



MAKTAB TA'LIMI
Muammolar, izlanishlar, yechimlar

UO'K 373.3/5
ISSN: 3060-4788

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI
ILMIY-NAZARIY VA O'QUV USLUBIY JURNAL

MAKTAB TA'LIMI

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

2026-yil, 7-son



A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining
ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

Научно-теоретический и учебно-методический журнал
Национального института педагогического мастерства имени А.Авлони

Scientific-theoretical and educational-methodological journal
of the National Institute of Pedagogical Skills named after A.Avloni

MAKTAB TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ:

ПРОБЛЕМЫ, ИССЛЕДОВАНИЯ, РЕШЕНИЯ

SCHOOL EDUCATION:

PROBLEMS, RESEARCH, SOLUTIONS

2026-yil,
7-son

Toshkent – 2026



Maktabgacha
va maktab
ta'limi vazirligi



ABDULLA AVLONIY NOMIDAGI
PEDAGOGIK MAHORAT
MILLIY INSTITUTI

Bosh muharrir

ISMAILOV Abduvali Abdumalikovich

Bosh muharrir o'rinbosari

RAJABOV Sherzod Umurzoqovich

Tahrir hay'ati:

YULDASHEV Maksudjon Abdullayevich

RADJABOV Sardor Baxtiyorovich

IBRAIMOV Xolboy Ibragimovich

PIOTR Fokich Borovski

GUNDA Tire

KOVALEVA Galina Sergeyevna

IBRAGIMOV A'lamjon Amrilloevich

ERGASHEVA Malohat Tursunovna

XAKIMOVA Dildora Mashrabjonovna

JUMANAZAROV Sirojiddin Salaydinovich

URINBAYEVA Dilbar Bazarovna

IBRAGIMOV Abdumalik Gapparovich

ALKAROV Elyor Maxmudovich

BADALOVA Maqsuda Umarovna

BOTIROV Hamid Hakimovich

OTAMURODOV G'olibjon Ro'zimurodovich

XURRAMOV Isroil Abdurashidovich

BABAYEVA Nargiza Muzaffarovna

Masul kotib:

DAMINOVA Shoxista Kabulovna

Adabiy muharrir:

MIRZOXIDOVA Laylo Baxtiyorovna

Tarjimon:

ABDULLAYEVA Maxprat Nurmatovna

MAKTAB TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR
ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ:

ПРОБЛЕМЫ, ИССЛЕДОВАНИЯ, РЕШЕНИЯ
научно-теоретический
и учебно-методический журнал

Scientific-theoretical and

educational-methodical journal

SCHOOL EDUCATION:


PROBLEMS, RESEARCH, SOLUTIONS

UO'K 373.3/.5

ISSN: 3060-4788

Muassis:

Abdulla Avloniy nomidagi
pedagogik mahorat milliy instituti



**“Har bir muallimning
saodati, davlatning tinchi
va rohati yoshlarning yaxshi
tarbiyasiga bog'liqdir”.**

MUNDARIJA

CONTENTS

Ta'lim uzluksizligi va islohotlar

- 5** Ismailov Abduvali Abdumalikovich.
Pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi: “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” modelining tashkiliy-uslubiy tahlili

- 16** Shotursunova Nodira Nasirovna.
Maktab ta'limida mahalliy va xalqaro hamkorlik: loyihalar va natijalar

Ta'lim menejmenti va boshqaruv

- 23** Alkarov Elyor Maxmudovich.
Janubiy Koreya – O'zbekiston ta'lim sohasida strategik hamkorlik va uzluksiz kasbiy rivojlantirish istiqbollari

- 36** Jabborova Yulduzxon Hasan qizi.
Maktab boshqaruvida manfaatdor tomonlarning partisipativ qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki va rollari

- 45** Sharipov Ilyosbek Ilxomovich.

Umumta'lim muassasalari rahbarlarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda xorijiy va milliy tajriba

- 54** Daminova Shoxista Kabulovna.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida mustaqil ta'lim samaradorligini baholashning integratsiyalashgan modeli

Sifat menejmenti

- 61** Ibragimov Abdimalik Gapparovich, Tulyakov Axmad Sa'dullayevich, Suyunov Sherzod Turdali o'g'li.

Esg standartlarining oliy ta'lim muassasalarida amaliy qo'llanilishi: talabalar fikri asosidagi empirik tahlil

***Ta'lim va tarbiya
nazariyasi va metodikasi***

69 Shavkatova Gulnoza Rustam qizi.

**O'quvchilar ijodiy qobiliyatini
rivojlantirishda teatr pedagogikasining
ahamiyati**

75 Xolmurodova Mahliyo Usmon qizi.

**Boshlang'ich ta'limda ona tili
kompetensiyasini rivojlantirishda
Singapur va Finlandiya
ta'lim texnologiyalarini
integratsiyalash asosidagi
innovatsion metodlar tizimi**

85 Жамолиддинова Нилуфар
Акрамжоновна.

**Рефлексивный подход как
фактор развития навыков
дифференцированного обучения
у учителей иностранных языков в
процессе повышения квалификации**

Maktab ta'limini tashkil etish

93 Бабаджанова Нодира Туйгуновна,
Ишбеков Аваз Фахридинович.

**Тестологические основания
совершенствования материалов
сор и соч по русскому языку и
литературе**

Inklyuziv ta'lim

105 Toshpo'lotova Zuhra Sharof qizi.

**Rivojlangan davlatlarda raqamli
inklyuziv musiqa ta'limi modellari**

PEDAGOG KADRLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHI: “KASBIY RIVOJLANISH KUNI” VA “KASBIY RIVOJLANISH SOATI” MODELINING TASHKILIY-USLUBIY TAHLILI

Ismailov Abduvali Abdumalikovich,

*A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti rektori,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent
abduvaliismailov@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0002-4228-5078>*

Annotatsiya: Maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan “Kasbiy rivojlanish kuni” (KRK) va “Kasbiy rivojlanish soati” (KRS) modelining mohiyati, mazmuni hamda tashkiliy-uslubiy jihatlari yoritilgan. Tadqiqotda mazkur modelning huquqiy-normativ asoslari, kaskadli tayyorlov tizimining tarkibiy-funksional xususiyatlari, ishtirokchilar bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar, raqamli boshqaruv platformasi-ning roli hamda xalqaro hamkorlik mexanizmlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: uzluksiz kasbiy rivojlanish, kasbiy rivojlanish kuni, kasbiy rivojlanish soati, kaskadli model, master-trener, mentor-o'qituvchi, raqamli ta'lim platformasi, pedagogik mahorat, ta'lim sifati, monitoring tizimi.

Непрерывное профессиональное развитие педагогических кадров: организационно-методический анализ модели “День профессионального развития” и “Час профессионального развития”

Исмаилов Абдували Абдумаликович,
ректор Национального института
педагогического мастерства имени А.Авлони,
Доктор философии по педагогическим
наукам (PhD), доцент

Аннотация: В статье освещены сущность, содержание и организационно-методические аспекты модели “День профессионального развития” (ДПР) и “Час профессионального развития” (ЧПР), направленной на обеспечение непрерывного профессионального развития педагогов в общеобразовательных учреждениях. В исследовании изучены нормативно-правовые основы данной модели, структурно-функциональные особенности каскадной системы подготовки, взаимосвязи между уровнями участников, роль цифровой платформы управления, а также механизмы международного сотрудничества.

Ключевые слова: непрерывное профессиональное развитие, день профессионального развития, час профессионального развития, каскадная модель, мастер-тренер, ментор-учитель, цифровая образовательная платформа, педагогическое мастерство, качество образования, система мониторинга.

Continuous professional development of teachers: organizational and methodological analysis of the model “Professional development day” and “Professional development hour”

Ismailov Abduvali Abdumalikovich,
*Rector of the National Institute of Pedagogical
Skills named after A.Avloni
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical
Sciences, Associate Professor*

Abstract: *The article highlights the essence, content, and organizational-methodological aspects of the model “Professional Development Day” (PDD) and “Professional Development Hour” (PDH) aimed at ensuring continuous professional development of teachers in general secondary*

educational institutions. The study explores the regulatory and legal foundations of this model, the structural-functional features of the cascade training system, the interconnections among participant levels, the role of the digital management platform, as well as the mechanisms of international cooperation.

Keywords: *continuous professional development, professional development day, professional development hour, cascade model, master-trainer, mentor-teacher, digital education platform, pedagogical mastery, education quality, monitoring system.*

XXI asr ta'lim taraqqiyotining global tendensiyalari pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini (Continuous Professional Development – CPD) ta'lim sifatini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etmoqda [4; 5; 15]. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) o'qituvchilar va ta'lim muhitini o'rganishga bag'ishlangan TALIS xalqaro tadqiqotida o'qituvchining ish o'rnida amalga oshiriladigan kollegial kasbiy rivojlanish tadbirlarida muntazam ishtirok etishi o'quvchilarning ta'lim natijalari va akademik motivatsiyasiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan [9]. Ushbu kontekstda o'tgan asrning oxirida shakllangan an'anaviy “bir martalik”, ish faoliyatidan ajratilgan tarzdagi malaka oshirish modeli o'rnini uzluksiz, ish o'rnida amalga oshiriladigan, hamkorlikka asoslangan va kontekstga moslashtirilgan kasbiy rivojlanish modellari egallab bormoqda [5; 7].

O'zbekiston Respublikasida 2024-yildan boshlab pedagog va mutaxassis kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlovchi yangi tashkiliy-uslubiy model – “Kasbiy rivojlanish kuni” (KRK) va “Kasbiy rivojlanish soati” (KRS) tadbirlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda [1]. Ushbu model nafaqat o'qituvchining bir martalik kursdan o'tish

tartibini almashtiradi, balki uni umumta'lim muassasasining kundalik ish faoliyatining integratsiyalashgan qismiga aylantiradi. Modelda kaskadli tayyorlov, mentorlik tizimi, raqamli platforma orqali monitoring hamda xalqaro hamkorlik elementlari o'zaro birlashtirilgan.

Tadqiqotning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

birinchidan, O'zbekistonda 2026-yil mart oyiga qadar tizim qamroviga yarim millionga yaqin o'qituvchi jalb etilgan bo'lib, bu tarixiy miqyosdagi institutsional o'zgarishni anglatadi;

ikkinchidan, KRK va KRS modeli mintaqaviy tajriba sifatida boshqa Markaziy Osiyo davlatlari uchun ham qiziqish uyg'otmoqda;

uchinchidan, raqamli platformaning (krk.avloniy.uz) joriy etilishi tadbirlar samaradorligini real vaqt rejimida o'lchash imkonini beradigan empirik baza yaratadi.

Shu bilan birga, mazkur modelning tashkiliy-uslubiy mexanizmlari hozircha ilmiy nashrlarda yetarli darajada tahlil qilinmagan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi joriy etilgan “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” modelining huquqiy-tashkiliy asoslari, ishlash mexanizmi, statistik qamrov ko'rsatkichlari hamda raqamli boshqaruv tizimini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ushbu modelning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda

uni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

O'qituvchining kasbiy rivojlanishi muammosi pedagogika fanining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, jahon adabiyotlarida bir necha o'n yillar davomida tadqiq etib kelinmoqda. T.R.Guskey o'zining klassik tadqiqotida kasbiy rivojlanish va o'qituvchi xulq-atvoridagi o'zgarishlar o'rtasidagi sababiy bog'liqlikni o'rganib, samarali kasbiy rivojlanish o'quvchi natijalaridagi o'zgarishlar orqali o'qituvchi e'tiqodlariga ta'sir qilishini ko'rsatib o'tgan [6]. L.Darling-Hammond va hammualiflar tomonidan amalga oshirilgan keng qamrovli meta-tahlilda samarali kasbiy rivojlanish dasturlarining yetti asosiy xususiyati – fan-mazmunga e'tibor, faol ta'lim, hamkorlik, namunaviy modellar, ekspert ko'magi, mulohaza va qayta aloqa hamda davomiylik aniqlangan [4].

L.M.Desimone tomonidan taklif qilingan kontseptual asos kasbiy rivojlanish dasturlarining ta'sir ko'rsatish zanjirini nazariy jihatdan modellashtiradi: kasbiy rivojlanish → o'qituvchining bilim va e'tiqodlaridagi o'zgarishlar → ta'lim amaliyotidagi o'zgarishlar → o'quvchi natijalaridagi o'zgarishlar [5]. Mazkur zanjirning ishlashi uchun beshta tarkibiy element zarur: fan-mazmunga yo'naltirilganlik, faol ta'lim, kogerentlik, davomiylik va kollegiallik. Shu nuqtai nazardan, KRK va KRS modeli ham huddi shunday tarkibiy elementlarga ega bo'lib, fanlar kesimida tashkil etilishi, mentor-o'qituvchilar orqali interaktiv mashg'ulotlar o'tkazilishi va davlat siyosati bilan kogerentligi e'tiborga molik.


Kasbiy rivojlanishning kaskadli (Cascade) modeli bo'yicha D.Hayesning tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. U kaskadli modelning ham kuchli, ham zaif tomonlarini aniqlab, modelning samaradorligi ko'p jihatdan trenerlarning sifati, kontent materiallarning standartlashtirilganligi va kaskadning har bir bo'g'inida ma'lumotlarning yo'qotilishini

kamaytirish mexanizmlari bilan belgilanishini ta'kidlagan [8]. Mazkur xulosalar O'zbekistondagi KRK va KRS modelida ishlatiladigan "master-trener – mentor-o'qituvchi – yetakchi o'qituvchi – fan o'qituvchisi" ko'p bosqichli kaskadini baholashda muhim mezon bo'lib xizmat qiladi.

A.Kennedy kasbiy rivojlanishning to'qqizta modelini transmissiyaviy, o'zgartiruvchi va o'zgartiruvchanlikka asoslangan yondashuvlar bo'yicha tasniflagan [7]. Uning tasnifiga ko'ra, mentorlik, jamoaviy o'rganish va amaliyotga asoslangan tadqiqot modellari yuqori darajadagi o'qituvchi avtonomiyasini ta'minlaydi va transformatsion ta'sirga ega bo'ladi. B.Avalos esa o'nyillik mobaynida nashr etilgan 111 ta tadqiqotni umumlashtirgan holda, kasbiy rivojlanishning o'qituvchi o'zlikni anglashi va kasbiy identifikatsiyasiga bog'liq murakkab jarayon ekanligini isbotlagan [15].

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda B.Yusupov pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishi muammolarini nazariy-pedagogik jihatdan tadqiq qilgan [12]. G.Nazarova ish tadqiqotida umumta'lim maktablari o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha amaliy yondashuvlarni o'rganib chiqqan [13]. Biroq, KRK va KRS kabi yangi institutsional modellar o'zbek adabiyotida hozircha bevosita tadqiqot mavzusi bo'lmagan, bu esa mazkur maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqot sifat va miqdoriy yondashuvlarning kombinatsiyasiga asoslangan aralash metodologiyani qo'llaydi. Tadqiqotning empirik bazasini quyidagi manbalar tashkil etadi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining KRK va KRS tadbirlariga oid normativ-huquqiy hujjatlari, A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy institutining tegishli buyruqlari hamda krk.avloniy.uz raqamli platformasidan olingan statistik ma'lumotlar [1; 2; 3].



1-rasm. KRK va KRS modelining tarkibiy-funksional sxemasi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanilgan:

- 1) normativ-huquqiy bazani o'rganish, modelning huquqiy asoslarini aniqlash uchun – hujjatlarni mazmuniy tahlil qilish metodi;
- 2) qamrov, ishtirokchilar tarkibi, hududiy taqsimot ko'rsatkichlarini umumlashtirish va tahlil qilish uchun – statistik tahlil;
- 3) KRK va KRS modelini xalqaro CPD modellari bilan taqqoslash maqsadida – qiyosiy tahlil;
- 4) modelning ichki tarkibi va element-

lar o'rtasidagi funksional aloqalarni aniqlash uchun – tarkibiy-funksional tahlil;

- 5) 2024–2026 yillar davomida kuzatilgan dinamikani aniqlash maqsadida – tendentsiyalarni aniqlash metodi.

Tahlil quyidagi to'rt o'lchov bo'yicha amalga oshirilgan: **institutsional**-huquqiy o'lchov (model qaysi normativ asoslarga tayanadi?); **tashkiliy-uslubiy o'lchov** (model qanday mexanizm asosida ishlaydi?); **miqdoriy-qamrov o'lchovi** (model qanday miqyosda joriy etilgan?); **raqamli-texnologik o'lchov** (jarayon-

larning raqamlashtirilishi qanday darajada?). Shuningdek, tadqiqotda L.M.Desimone tomonidan taklif qilingan kasbiy rivojlanishning samaradorligini baholash bo'yicha kontseptual asos analitik ramka sifatida ishlatilgan [5]. Tahlil davri 2024-yil iyun oyidan 2026-yil aprel oyiga qadar bo'lgan davrni qamrab oladi.

1. Modelning huquqiy va institutsional asoslari.

O'zbekistonda KRK va KRS modeli qurilishining huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori tashkil etadi [1]. Mazkur qarorda pedagog va mutaxassis kadrlar kasbiy rivojlanishining uzluksizligini ta'minlash maqsadida barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Kasbiy rivojlanish soati", tayanch umumiy o'rta ta'lim muassasalarida esa, shuningdek, "Kasbiy rivojlanish kuni" shakllari bosqichma-bosqich joriy etilishi belgilangan.

Qarorning ijrosi bo'yicha Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan 2024-yil 7-avgustdagi 246-sonli buyruq qabul qilingan bo'lib, unda KRK va KRS tadbirlarini o'tkazish tartibi tasdiqlangan va fanlar kesimida bosqichma-bosqich joriy etilishi rejalashtirilgan [2].

Birinchi bosqichda – 2024-yil 2-oktyabr kunidan boshlab – aniq (matematika, informatika va axborot texnologiyalari) va tabiiy (fizika, kimyo, biologiya, geografiya) fanlar o'qituvchilari uchun tadbirlar boshlangan.

Ikkinchi bosqichda – 2025-yil 31-yanvardan xorijiy til (ingliz tili) fani o'qituvchilari hamda 2025-yil 15-fevraldan boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun tadbirlar joriy qilindi.

Uchinchi to'liq bosqich – 2025–2026-o'quv yilidan boshlab – 11 ta fan yo'nalishini qamrab olib, ijtimoiy fanlar (tarix, davlat va huquq asoslari, tarbiya), filologiya (ona tili va

adabiyoti, o'zbek tili/rus tili), tabiiy va aniq fanlar, xorijiy tillar (ingliz, nemis, fransuz), hamda amaliy yo'nalishdagi fanlarni (tasviriy san'at, chizmachilik, texnologiya) o'z ichiga olgan [3].

Soatlar nisbati nuqtai nazaridan, har bir o'qituvchi uchun yil davomida jami 72 soat kasbiy rivojlanish hajmi belgilangan: oyning 1- va 3-haftalarida o'tkaziladigan KRK doirasida 36 soat hamda 2- va 4-haftalarida o'tkaziladigan KRS doirasida 36 soat. Bunday "ikki haftalik sikli" pedagogga muntazam, ammo asosiy o'quv yuklamasiga to'sqinlik qilmaydigan formatda kasbiy rivojlanish imkoniyatini taqdim etadi. Bu jihat L.M.Desimoneda ko'rsatilgan "davomiylik" (sustained duration) mezonini bilan tom ma'noda mos keladi [5].

Institutsional jihatdan modelning markaziy bo'g'ini sifatida A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, hududiy pedagogik mahorat markazlari, Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti hamda Chirchiq davlat pedagogika universiteti aniqlangan.

2. Kaskadli tayyorlov modelining tarkibiy-funksional tahlili.

KRK va KRS modeli tarkibiy jihatdan ko'p bo'g'inli kaskadli tayyorlovga asoslanadi. Kaskadning yuqori bo'g'inini master-trenerlar tashkil etadi. 2025–2026-o'quv yili uchun A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida 11 ta fan yo'nalishi bo'yicha 292 nafar master-trener tanlab olingan va tasdiqlangan. Master-trenerlarni tanlab olishda hududiy markazlardan 297 nafar nomzod ro'yxati taqdim etilgan, ya'ni tanlov koeffitsiyenti 1,02:1 ni tashkil etgan. Bu mintaqaviy darajada malakali kadrlarning yetarli darajada bo'lganligi bilan birga, tanlov tizimida tanlov darajasining ham yuqori bo'lganligini tasdiqlaydi.

Master-trenerlarning hududiy taqsimoti deyarli teng – har bir hududda o'rta hisob-

da 20-22 nafar master-trener tayinlangan. Eng kam ko'rsatkich Toshkent viloyatida – 19 nafar, eng yuqorisi Sirdaryo viloyati va Xorazm viloyatida – 22 nafardan. Fanlar kesimida esa eng katta tarkib tabiiy fanlar (40 nafar) va aniq fanlar (31 nafar) bo'yicha shakllantirilgan, eng kam – nemis tili (13 nafar) va fransuz tili (14 nafar) bo'yicha. Ushbu nomutanosiblik fan yo'nalishlari bo'yicha ehtiyojlarning ob'ektiv farqlanishi bilan izohlanadi va xorijiy hamkorlar (Gyote Instituti, Fransiya elchixonasi) ishtirokining ahamiyatini oshiradi.

Kaskadning ikkinchi bo'g'inini mentor-o'qituvchilar tashkil etadi. 5-12-avgust kunlari hududiy boshqarmalar va pedagogika markazlari tomonidan jami 9 425 nafar o'qituvchi nomzod sifatida ko'rsatilgan. Mazkur nomzodlar o'rtasidan har bir hudud uchun oldindan belgilangan ehtiyojga muvofiq saralash o'tkazilib, jami 3 901 nafar mentor-o'qituvchilikka tavsiya qilingan, 157 nafari esa zaxiraga kiritilgan. Ushbu jarayonda muhim metodologik nuans shundaki, har bir hudud uchun mentor-o'qituvchilar bo'yicha ehtiyoj o'sha hududdagi umumta'lim muassasalari, yetakchi o'qituvchilar va fan o'qituvchilarining umumiy soniga mutanosib (proportional) ravishda belgilangan [10].

Ushbu yondashuv natijasida ehtiyoj ko'rsatkichlari hududlar kesimida sezilarli darajada farqlanadi: eng ko'p maktablar (1 233 ta), 88 859 nafar yetakchi va fan o'qituvchilariga ega Qashqadaryo viloyatida ehtiyoj 443 nafar mentor-o'qituvchini tashkil etgan; xuddi shunday, Samarqand viloyatida – 439 nafar, Toshkent viloyatida – 330 nafar; nisbatan kichik miqyosli Sirdaryo viloyatida esa – atigi 128 nafar, Navoiy viloyatida – 140 nafar. Demak, saralash jarayoni faqat nomzodlarning sifat ko'rsatkichlari emas, balki ayni paytda har bir hududning ob'ektiv ta'lim infratuzilmasi miqyosi va kadrlar ehtiyoji asosida olib borilgan. Bu yondashuv ham miqdoriy (har bir

hudud o'z ehtiyojiga muvofiq mentorlar bilan ta'minlanishi), ham hududiy adolat (kichik hududlarning haddan tashqari, katta hududlarning yetarli darajada mentor-o'qituvchilar bilan qoplanishi) tamoyillariga asoslanadi. Shu nuqtai nazardan, mentor-o'qituvchilarni saralash ham sifat-ekspertizaga, ham ehtiyoj-asosli kvotali taqsimotga asoslangan ikki tomonlama mexanizm sifatida tavsiflanishi mumkin.

Kaskadning uchinchi bo'g'inini 88 859 nafar yetakchi o'qituvchi tashkil etadi – bular tayan-ch maktablar (jami 1 550 ta) negizida tashkil etilgan KRK tadbirlarida bevosita ishtirok etadigan kadrlardir. Eng quyi bo'g'inida esa jami 351 143 nafar fan o'qituvchisi joylashgan bo'lib, ular o'z maktablarida o'tkaziladigan KRS tadbirlari orqali tizimga jalb etiladi. Umumiy qamrov 443 743 nafarni tashkil etib, bunga master-trenerlar, mentorlar va yetakchi o'qituvchilarni qo'shganda jami 536 990 nafarga yetadi. Ushbu raqam Markaziy Osiyo mintaqasida tashkil etilgan eng yirik miqyosli pedagogik kasbiy rivojlanish dasturlaridan birini namoyon etadi.

Bunday kaskadli model D.Hayesning klassik nazariyasi nuqtai nazaridan tahlil qilinganda, modelda kaskadning har bir bo'g'inida bilim va metodikalarning yo'qotilishi xavfi mavjud bo'ladi [8]. O'zbekiston modelida ushbu xavfni kamaytirish maqsadida bir nechta strategiyalar qo'llanilgan: *birinchidan*, kontent materiallar markazlashtirilgan tarzda Pedagogik mahorat milliy instituti tomonidan ishlab chiqilgan; *ikkinchidan*, o'quv reja va dasturlar 11 ta fan bo'yicha standartlashtirilgan va 24 ta taqriz (10 ta tashqi va 10 ta ichki) bilan ekspertizadan o'tgan; *uchinchidan*, krk.avloniy.uz platformasi orqali har bir bo'g'in darajasidagi sifat ko'rsatkichlari real vaqt rejimida monitoring qilinadi.

3. Qamrov ko'lamini va dinamikasini miqdoriy tahlil.

Qamrov dinamikasini tahlil qilish modelning miqyosi va o'sish sur'atini ko'rsatadi.

2024–2025-o‘quv yilida (birinchi va ikkinchi bosqichlar davomida) tizim qamroviga jami 276 664 nafar fan o‘qituvchisi jalb etilgan: 47 651 nafar ingliz tili, 117 118 nafar boshlang‘ich ta‘lim, 54 202 nafar aniq fanlar va 57 693 nafar tabiiy fanlar o‘qituvchilari. 2025–2026-o‘quv yilida esa, 11 ta fan yo‘nalishi to‘liq qamrab olinishi bilan ishtirokchilar soni 536 990 nafarga yetdi. Bu bir yilda qamrovning ikki barobardan ortiq o‘sganligini bildiradi. Bunday dinamika modelning huquqiy va institutsional asoslari mustahkam bo‘lganligi va davlatning siyosiy irodasi yuqori darajada ekanligini tasdiqlaydi.

Hududiy taqsimot nuqtai nazaridan tayanch maktablar soni quyidagicha: Qashqadaryo

viloyatida – 191 ta, Samarqand viloyatida – 175 ta, Toshkent viloyatida – 159 ta. Eng kam ko‘rsatkich Xorazm viloyatida (65 ta) va Buxoro viloyatida (76 ta) qayd etilgan. Tayanch maktablar zichligi maktablar umumiy soniga nisbatan hisoblansa, eng yuqori zichlik (taxminan 24%) Sirdaryo viloyatida (313 maktabdan 81 tasi), eng past – Farg‘ona viloyatida (962 maktabdan 89 tasi, ya‘ni 9,3%) kuzatiladi. Mazkur tafovutlar kelajakda tayanch maktablar tarmog‘ini optimallashtirish va hududiy ehtiyojlarga moslashtirish bo‘yicha keyingi siyosiy qarorlar zaruratini ko‘rsatadi.

Fanlar kesimida ko‘pgina tayanch maktablar bir vaqtning o‘zida bir nechta fan yo‘nalishi bo‘yicha tayanch maktab vazifasini bajaradi.

1-jadval.

Hududlar kesimida tayanch maktablar taqsimoti

T/r	Hudud nomi	Tayanch maktablar soni					
		Jami	Shundan				
			1 ta fanga tayanch maktablar soni	2 ta fanga tayanch maktablar soni	3 ta fanga tayanch maktablar soni	4 ta fanga tayanch maktablar soni	5 ta fanga tayanch maktablar soni
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	108	67	21	18	2	0
2.	Andijon viloyati	124	104	18	2	0	0
3.	Buxoro viloyati	76	43	26	6	1	0
4.	Jizzax viloyati	84	19	23	37	5	0
5.	Qashqadaryo viloyati	191	42	57	90	2	0
6.	Navoiy viloyati	79	51	14	12	2	0
7.	Namangan viloyati	105	62	21	19	3	0
8.	Samarqand viloyati	175	52	22	99	2	0
9.	Surxondaryo viloyati	130	101	23	6	0	0
10.	Sirdaryo viloyati	81	55	19	7	0	0
11.	Toshkent viloyati	159	125	27	7	0	0
12.	Farg‘ona viloyati	89	34	25	25	4	1
13.	Xorazm viloyati	65	27	17	21	0	0
14.	Toshkent shahar	84	63	18	3	0	0
Jami		1550	845	331	352	21	1

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, jami 1 550 ta tayanch maktabdan 845 tasi (54,5%) bitta fan bo'yicha, 331 tasi (21,4%) ikkita fan bo'yicha, 352 tasi (22,7%) uchta fan bo'yicha, 21 tasi (1,4%) to'rtta fan bo'yicha, faqat bit-tasi (Farg'ona viloyatida) beshta fan bo'yicha tayanch maktab maqomiga ega. Ko'p fanli tayanch maktablar (multi-disciplinary hub-schools) yondashuvi resurslardan unumli foydalanish nuqtai nazaridan ijobiy hisoblanadi.

4. Raqamlashtirish va krk.avloniy.uz platformasi.

Yarim millionlik miqyosdagi pedagogik dasturni samarali boshqarish, shaffof monitoring va tahlilni yo'lga qo'yish maqsadida A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti tomonidan **krk.avloniy.uz** elektron platformasi hamda unga integratsiyalashgan **@krk_avloniy_bot** telegram boti ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Mazkur platforma orqali quyidagi funksional imkoniyatlar amalga oshiriladi: yetakchi o'qituvchilarning davomatini elektron qayd etish; treninglar yakunida bilim va ko'nikmalarni standartlashtirilgan testlar orqali baholash; mentor-o'qituvchilar tomonidan o'tkazilgan treninglar sifatini ham yuqori, ham quyi bo'g'inlardan baholash; o'quv materiallarini markazlashgan holda yetkazib berish; barcha jarayonlarni maxsus dashboard orqali real vaqt rejimida tahlil qilish.

Platforma effektivligini baholovchi muhim ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat: mentor-o'qituvchilarni platformaga kiritish koeffitsiyenti 97,49%, yetakchi o'qituvchilarni kiritish koeffitsiyenti 98,13%. Bunday yuqori ko'rsatkichlar tashkiliy jarayonlar va texnik integratsiya asosan to'liq yo'lga qo'yilganligini bildiradi. Bunda mavjud 2-3% farq foydalanuvchi savodxonligi, internet ulanishi sifati va texnik moslashuv bilan bog'liq omillar bilan izohlanishi mumkin. Solishtirish uchun, OECD mamlakatlarida pedagoglar uchun yaratilgan

o'xshash platformalarda foydalanish ko'rsatkichi o'rtacha 70-85% atrofida kuzatiladi [9; 15].

Sertifikatlashtirish jarayoni ham raqamli yechim bilan ta'minlangan. Buyruq talablariga muvofiq, KRK va KRS tadbirlarida to'liq ishtirok etgan va belgilangan topshiriqlarni bajargan o'qituvchilarga sertifikat berilishi nazarda tutilgan. Bugungi kunga qadar krk.avloniy.uz platformasi orqali 82 253 nafar yetakchi o'qituvchi yakuniy nazorat testlarini topshirgan va "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasida QR-kod bilan tasdiqlangan elektron-raqamli sertifikatga ega bo'lgan [12]. Bu ko'rsatkich nafaqat tizim shaffofligini ta'minlaydi, balki o'qituvchilarning kasbiy portfoliosi shakllanishi uchun zarur hujjatli asosni ham yaratadi.

Raqamli monitoring nuqtai nazaridan O'zbekiston modeli o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini empirik o'lchash uchun keng qamrovli ma'lumotlar bazasini shakllantirmoqda. Bu kelgusida har bir o'qituvchi profilini individuallashtirish, lokal va hududiy darajadagi ehtiyojlarni aniqlash hamda fan-mazmuni bo'yicha tabaqalashtirilgan kontentni avtomatik tarzda tavsiya qilish imkoniyatlarini ochib beradi. Hozirgi paytda mavjud platforma birinchi bosqich vazifasini bajarmoqda, keyingi rivojlanish bosqichlarida sun'iy intellektga asoslangan adaptiv ta'lim modullari integratsiyasi istiqbollidir [11; 16].

5. Xalqaro hamkorlikning tashkiliy roli.

KRK va KRS modelining xarakterli xususiyatlaridan biri uning xalqaro hamkorlik tarmog'ining keng qamrovligida ko'rinadi. Modelning o'quv reja va dasturlarini hamda kontent materiallarini ishlab chiqish jarayonida quyidagi xalqaro hamkorlar bilan strategik sheriklik o'rnatilgan: Britaniya Kengashi (British Council), Buyuk Britaniyaning Norwich Institute for Language Education (NILE), Singapurning Marshall Cavendish Education (MCE), Fransiyaning O'zbekiston-

dagi elchixonasi ta'lim va hamkorlik bo'yicha mintaqaviy attashesi, Gyote Instituti hamda Groupe Hatier International va Alliance Française de Tachkent.

Xalqaro hamkorlikning tashkiliy roli ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, mazmun-uslubiy: 25-27-avgust kunlari NILE bilan hamkorlikda kontent ishlab chiqish bo'yicha 40 nafar mutaxassis ishtirokida o'quv seminari tashkil etilgan; 25-30-avgust kunlari Gyote Instituti bilan hamkorlikda nemis tili fani bo'yicha 40 nafar ishtirokchi bilan seminar o'tkazilgan; Fransiya tomonining ishtirokida 50 nafar ishtirokchi bilan fransuz tili kontentini ishlab chiqishga oid seminar tashkil etilgan. Ikkinchidan, sifat nazorati: tashqi hamkorlar dasturlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Dasturlarga olingan 24 ta taqrizning 10 tasi tashqi mutaxassislar tomonidan beriganligi shu jihatda ko'rinadi.

Alohida e'tiborga molik bo'lgan tashabbus – 2026-yil 6-yanvarda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Massachusetts texnologiya instituti (MIT) sun'iy intellekt ta'lim dasturi asosida informatika fani o'qituvchilarini o'qitishni tashkil etish to'g'risidagi yo'riqnoma [3]. Mazkur dastur doirasida 71 ta tuman (shahar)larda jami 6 467 nafar o'qituvchilari uchun KRK tadbirlari tashkil etildi. Bu O'zbekiston ta'lim tizimida sun'iy intellekt sohasi bo'yicha o'qituvchilarni tayyorlash bo'yicha yirik miqyosli tashabbusdir [16].

6. Sifat nazorati va o'qitish dasturlarining mazmuniy tarkibi.

KRK va KRS modelining muhim xususiyatlaridan biri – uning dastur va mazmuniy ekspertizasidan o'tkazilishidir. 15–17-iyul kunlari A.Avloniy nomidagi pedagogik mahurat milliy institutda 55 nafar tajribali mutaxassis (prezident va ixtisoslashtirilgan maktablar, hududiy pedagogik mahorat markazlarining

vakillari) ishtirokida o'quv-seminar tashkil etilgan, uning natijasida 11 ta fan yo'nalishi bo'yicha 72 soatga (36 soat KRK + 36 soat KRS) mo'ljallangan o'quv reja va dasturlar ishlab chiqilgan. Dasturlar mazmuni respublikada prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarda yo'lga qo'yilgan kasbiy rivojlanish kurslari hamda pedagog kadrlarning attestatsiyasi natijalari tahlili asosida ishlab chiqilgan. Bu yondashuv K.Kennedyning kasbiy rivojlanish modellari tasnifida "evidence-based" yondashuv sifatida e'tirof etiladi va kuchli ilmiy asosga ega [7].

Sifat kafolatining yana bir muhim elementi – Britaniya Kengashi (British Council) va Buyuk Britaniyaning NILE instituti, Singapurning Marshall Cavendish Education (MCE), Gyote Instituti hamda Fransiyaning O'zbekistondagi elchixonasi kabi xalqaro hamkorlar bilan amalga oshirilgan ekspertiza va metodik konsultatsiyadir. Tashqi ekspertlarning ishtiroki nafaqat dasturlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlaydi, balki milliy pedagogik kadrlar bilan xorijiy mutaxassislar o'rtasidagi bilim almashinuvini ham faollashtiradi. Bu jihat T.R.Guskeyning fikrlari bilan mos keladi, unga ko'ra samarali kasbiy rivojlanish dasturlari faqat o'qituvchining individual o'sishi emas, balki butun pedagogik hamjamiyatning kollektiv kompetentsiyasini rivojlantirishga qaratilishi kerak [6].

Tadqiqot natijalari KRK va KRS modelining bir qator kuchli tomonlarini aniqlash imkonini berdi. Birinchidan, modelda kasbiy rivojlanishning xalqaro adabiyotda asoslab berilgan eng muhim mezonlari – davomiylik, fan-mazmunga yo'naltirilganlik, faol ta'lim, kollegiallik va kogerentlik [4; 5] institutsional darajada amalga oshirilgan. Yiliga 72 soat va ikki haftalik sikllarga taqsimlangan ish o'rnida ta'lim olish formati ushbu mezonlarga to'liq mos keladi. Ikkinchidan, kontent materiallarining markazlashtirilgan tarzda ishlab chiqilishi

va ekspertizadan o'tkazilishi kaskadli modelning klassik xatari bo'lgan "ma'lumot yo'qotilishi" muammosini sezilarli darajada kamaytiradi [8].

Uchinchi, raqamli platformaning markazlashtirilgan tarzda joriy etilishi ta'lim tizimini boshqarishda data-driven yondashuvni real vaqt rejimida amalga oshirish imkonini beradi. To'rtinchi, xalqaro hamkorlik tarmog'ining keng qamrovligi (Britaniya, Fransiya, Germaniya, Singapur, AQSh bilan strategik sheriklik) milliy ta'lim mazmunini global standartlar bilan moslashtirish va o'qituvchilarning xalqaro tajribaga kirish imkoniyatini oshiradi. Beshinchidan, bir yil davomida qamrov ikki baravardan ortiq o'sganligi modelning kengayuvchanligini (scalability) tasdiqlaydi.

Xalqaro tajriba bilan taqqoslaganda, O'zbekiston modeli bir qator o'ziga xosliklarga ega: Sloveniya, Finlyandiya yoki Singapur kabi mamlakatlarda kasbiy rivojlanish asosan o'qituvchi avtonomiyasiga asoslangan portfolio yondashuvi bilan tashkil etilsa, O'zbekistonda model markazlashtirilgan, standartlashtirilgan kaskadli yondashuvga asoslangan [9; 14]. Bu O'zbekiston kontekstida – keng miqyosdagi tizim va hudud farqlanishlari sharoitida sifat darajasini birlashtirish nuqtai nazaridan asoslangan tanlovdir. Biroq, model rivojlantirishining keyingi bosqichlarida, asosiy infrazuzilma shakllantirilgandan so'ng, o'qituvchining individual ehtiyojlariga moslashtirilgan, ko'proq avtonomiyaga asoslangan elementlarni qo'shish maqsadga muvofiq.

O'tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, 2024-yildan boshlab joriy etilgan "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" modeli pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini institutsional darajada ta'minlovchi yangi paradigmani anglatadi. Model O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-231-son qarori va vazir-

likning tegishli buyruqlari bilan mustahkam huquqiy asosga ega bo'lib, A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti markazida ko'p tarmoqli institutsional tuzilmaga tayanadi.

Ikkinchidan, modelda qo'llaniladigan kaskadli tayyorlov tizimi (master-trener – mentor-o'qituvchi – yetakchi o'qituvchi – fan o'qituvchisi) D.Hayes nazariyasi tomonidan aniqlangan klassik xatarlarni markazlashtirilgan kontent ishlab chiqish, qattiq tanlov va raqamli monitoring orqali sezilarli darajada kamaytiradi.

Uchinchi, krk.avloniy.uz raqamli platformasi va @krk_avloniy_bot telegram boti tizimning samarali boshqaruvini ta'minlovchi muhim quroldir. Platformada mentor-o'qituvchilar va yetakchi o'qituvchilarning faollashtirish ko'rsatkichlari mos ravishda 97,49% va 98,13% darajasiga yetganligi tashkiliy jarayonlarning yuqori darajada to'g'ri yo'lga qo'yilganligini bildiradi.

To'rtinchi, xalqaro hamkorlik tarmog'i (British Council, NILE, Marshall Cavendish, Gyote Instituti, Fransiya elchixonasi, MIT) modelning sifat va xalqaro standartlarga moslashuvini ta'minlovchi muhim element hisoblanadi. MIT sun'iy intellekt dasturining 2026-yildan informatika o'qituvchilari uchun joriy etilishi O'zbekiston ta'limini global akademik darajaga integratsiyalashga xizmat qiladi.

Beshinchidan, tadqiqot quyidagi yo'nalishlarda kelgusi tahlillarni o'tkazish zaruratini ko'rsatdi: a) modelning o'quvchi natijalariga ta'sirini empirik baholash; b) hududiy farqlarni qisqartirishga qaratilgan adresli strategiyalarni ishlab chiqish; c) o'qituvchining individual ehtiyojlariga moslashtirilgan ko'proq avtonomiyaga asoslangan komponentlarni qo'shish; d) sun'iy intellektga asoslangan adaptiv ta'lim modullarini platformaga integratsiya qilish. Bu yo'nalishlardagi keyingi tadqiqotlar modelni doimiy ravishda takomillashtirish va xalqaro miqyosda namunaviy keysga aylantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2024.
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining "Kasbiy rivojlanish soati" va "Kasbiy rivojlanish kuni" tadbirlarini o'tkazish tartibini tasdiqlash to'g'risidagi 2024-yil 7-avgustdagi 246-sonli buyrug'i. – Toshkent, 2024.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining "2025–2026-o'quv yilida "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini tashkil etishga tayyorgarlik ko'rish to'g'risida"gi 2025-yil 30-iyundagi 216-son buyrug'i. – Toshkent, 2025.
4. Darling-Hammond L., Hyler M.E., Gardner M. Effective Teacher Professional Development. – Palo Alto, CA: Learning Policy Institute, 2017. – 76 p.
5. Desimone L.M. Improving Impact Studies of Teachers' Professional Development: Toward Better Conceptualizations and Measures // Educational Researcher. – 2009. – Vol. 38, No. 3. – Pp. 181–199.
6. Guskey T. R. Professional Development and Teacher Change // Teachers and Teaching: Theory and Practice. – 2002. – Vol. 8, No. 3. – Pp. 381–391.
7. Kennedy A. Models of Continuing Professional Development: A Framework for Analysis // Professional Development in Education. – 2014. – Vol. 40, No. 3. – Pp. 336–351.
8. Hayes D. Cascade Training and Teachers' Professional Development // ELT Journal. – 2000. – Vol. 54, No. 2. – Pp. 135–145.
9. OECD. TALIS 2018 Results (Volume I): Teachers and School Leaders as Lifelong Learners. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 248 p.
10. Ismailov A.A. Rahbar kadrlar boshqaruv kompetentligining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi komponentlar. "Maktab ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar", 2026. 6(3), 1–11. <https://doi.org/10.5281/zenodo.19478313>
11. Ismailov A.A. Raqamli ta'lim muhitida maktab direktorlari faoliyatini raqamli transformatsiya asosida takomillashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirish. "Maktab ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar", 2026. 6(4), 1–9. 10.66023/MT/v2026_i286/334.
12. Yusupov B. Pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2023. – 224 b.
13. Nazarova G. Umumta'lim maktablari o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish // Pedagogika ilmiy jurnali. – 2024. – № 2. – B. 45–58.
14. Mizell H. Why Professional Development Matters. – Oxford, OH: Learning Forward, 2010. – 32 p.
15. Avalos B. Teacher Professional Development in Teaching and Teacher Education over Ten Years // Teaching and Teacher Education. – 2011. – Vol. 27, No. 1. – Pp. 10–20.
16. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and Education – All Means All. – Paris: UNESCO Publishing, 2020. – 422 p.

MAKTAB TALIMIDA MAHALLIY VA XALQARO HAMKORLIK: LOYIHALAR VA NATIJALAR

Shotursunova Nodira Nasirovna,
*Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor,
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
e-mail: nodirashotursunova94@gmail.com*

Аннотация: Mazkur maqolada maktab ta'limi rivojlantirishda olib borilayotgan ishlar mohiyati, mahalliy va xalqaro hamkorlikning ahamiyati, uning ta'lim sifatiga ta'siri hamda amalga oshirilayotgan hamkorlik loyihalarining natijalari tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar, xorijiy ta'lim muassasalari va milliy institutlar o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari, ularning pedagogik innovatsiyalar, raqamli ta'lim va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga qo'shayotgan hissasi yoritilgan. Maktab ta'limida xalqaro tajribalarni joriy etish ta'lim samaradorligi va inson kapitalini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

Mazkur maqolada milliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'llari, xalqaro tajribadan samarali foydalanishning afzalliklari hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar ilmiy asosda bayon etilgan.

Калит so'zlar: Maktab ta'limi, uzluksiz ta'lim, islohotlar, xalqaro hamkorlik, xalqaro tajriba, ta'lim tizimi, innovatsiya, malaka oshirish, inson kapitali, ta'lim diplomatiyasi, akademik hamkorlik.

**Местное и международное сотрудничество в
сфере школьного образования:
проекты и результаты**

Шотурсунова Нодира Насировна,
*Проректор по международному
сотрудничеству Национального института
педагогических навыков имени Абдуллы Авлони,
доктор экономических наук, доцент.*

Аннотация: В данной статье анализируется сущность проводимой работы по развитию школьного образования, важность местного и международного сотрудничества, его влияние на качество образования и результаты реализованных проектов сотрудничества. Также освещаются механизмы сотрудничества между международными организациями, зарубежными образовательными учреждениями и национальными институтами, их вклад в педагогические инновации, цифровое образование и профессиональное развитие учителей. Внедрение международного опыта в школьное образование является важным фактором эффективности образования и развития человеческого капитала.

В статье научно описаны пути дальнейшего совершенствования национальной системы образования, преимущества эффективного использования международного опыта и будущие приоритеты.

Ключевые слова: Школьное образование, непрерывное образование, реформы, международное сотрудничество, международный опыт, система образования, инновации, повышение квалификации, человеческий капитал, образовательная дипломатия, академическое сотрудничество.

Local and international cooperation in school education: projects and results

Shotursunova Nodira Nasirovna,

*Vice Rector for International Cooperation of the
National Institute of Pedagogical Skills named
after Abdulla Avloni*

*Doctor of Philosophy (PhD) in Economics,
Associate Professor*

Abstract: *This article analyzes the essence of the work being carried out in the development of school education, the importance of local and international cooperation, its impact on the quality of education, and the results of the implemented cooperation projects. It also highlights the mecha-*

nisms of cooperation between international organizations, foreign educational institutions, and national institutions, their contribution to pedagogical innovations, digital education, and the professional development of teachers. The introduction of international experience in school education is an important factor in the effectiveness of education and the development of human capital.

This article scientifically highlights the ways to further improve the national education system, the advantages of effectively using international experience, and future priorities.

Keywords: *School education, continuing education, reforms, international cooperation, international experience, education system, innovation, professional development, human capital, education diplomacy, academic cooperation.*

Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimi har bir mamlakat taraqqiyotining strategik sohasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, maktab ta'limida mahalliy va xalqaro hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish orqali ta'lim sifati va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasi dunyo miqyosida ustuvor vazifalardan biriga aylandi.

Bugungi kunda dunyo davlatlari maktab ta'limida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, pedagog kadrlar malakasini xalqaro standartlar asosida oshirish va xalqaro baholash tizimlariga integratsiyalashuv orqali ta'lim samaradorligiga erishayotgani kuzatilmoqda. Bu jarayonda **UNESCO, UNICEF, World Bank** hamda **Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD)** kabi xalqaro tashkilotlar muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda maktab ta'limi sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, xalqaro ta'lim dasturlari, pedagoglar malakasini oshirish loyihalari, raqamli ta'lim platformalari va xalqaro

baholash tadqiqotlarida ishtirok etish bu sohadagi muhim qadamlardan hisoblanadi.

Maktab ta'limida mahalliy va xalqaro hamkorlikning nazariy asoslari

Ta'lim sohasida hamkorlik – bu davlat tashkilotlari, ta'lim muassasalari, xalqaro institutlar va jamoat tashkilotlarining umumiy maqsad yo'lidagi hamjihat faoliyatidir. Maktab ta'limi tizimida bunday hamkorlik orqali ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlash, xalqaro standartlarga mos ta'lim muhitini yaratishga erishiladi.

Rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimi milliy tajribaga muhim qo'shimcha sifatida xizmat qiladi, milliy va xalqaro tajriba bir-birini to'ldirishi mumkin.

Maktab ta'limida xalqaro hamkorlikning quyidagi asosiy shakllari muhim hisoblanadi:

Qo'shma ta'lim loyihalari;

Pedagoglar malakasini oshirish va stajirovka dasturlari;

Akademik va pedagogik almashinuv dasturlari;

Ta'lim tizimini xalqaro baholash dasturlari;

Xalqaro grant va investitsiya dasturlari;

Raqamli ta'lim va onlayn platformalar;

Ta'lim diplomatiyasi va madaniy hamkorlik

Xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish [1].

Ma'lumki, **Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya** va **Singapur** kabi davlatlarda ta'lim sifati yuqori darajada kafolatlangan bo'lib, ilg'or pedagogik yondashuvlar, standartlashtirilgan baholash tizimlari, interaktiv va innovatsion texnologiyalar keng qo'llaniladi. So'nggi yillarda xalqaro tajribani o'rganish va milliy ta'lim tizimiga joriy etish orqali ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirishga erishildi.

Xalqaro hamkorlik loyihalari va ularning natijalari

So'nggi yillarda Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tomonidan o'qituvchilarning zamonaviy ta'lim jarayonida kasbiy salohiyatini doimiy rivojlantirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va ta'lim sifatini yanada oshirish maqsadida **UNESCO, UNICEF, UNDP, Jahon banki, British Council, GIZ, TIKA, JICA, Goethe-Institut** va **Fransiyaning Frankofoniya markazi** kabi qator nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik aloqalari olib borildi.

Joriy yilda Institutda **Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Estoniya, Turkiya** kabi rivojlangan davlatlardan 15 dan ortiq xalqaro delegatsiyalar kutib olinib, o'zaro hamkorlik aloqalari mustahkamlanildi hamda bir qator qo'shma loyihalar amalga oshirildi. Ushbu loyihalarning natijalari xususida qisman to'xtalib o'taman.

Fransiyaning **Frankofoniya markazi** bilan erishilgan kelishivga ko'ra, 75 nafar rahbar va pedagoglar Fransiyada zamonaviy peda-

gogika, raqamli texnologiyalar hamda sun'iy intellekt bo'yicha malaka oshirdi. Yil yakuniga qadar 250 nafar pedagoglarning malakasini oshirish rejalashtirilgan.

Britaniya Kengashi (British Council) ning "Future English in Uzbekistan" dasturi va Online Teacher Community platformasi orqali o'qituvchilar uchun bepul kurslar tashkil etildi. Norwich Institute for Language Education bilan hamkorlikda malaka oshirish kurslari uchun o'quv rejalari, dasturlar va kontent materiallari ishlab chiqildi. "School Champions" loyihasi doirasida tajribali o'qituvchilarni aniqlash hamda ularning kasbiy o'sishini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etildi. O'qituvchilarni tizimli qo'llab-quvvatlash maqsadida Institutda hamda Namangan, Farg'ona, Jizzax viloyatlari pedagogik mahorat markazlari huzurida Uzlaksiz kasbiy rivojlanish markazi – **(CPD Hub)** faoliyati yo'lga qo'yildi. Mazkur loyiha ingliz tili o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanish **(UKR)** tizimini yangi model asosida joriy etishga qaratilgan bo'lib, 2023-yildan buyon respublikaning 218 ta umumta'lim maktablari-da 32 nafar mahalliy konsultantlar hamda har bir maktabdagi UKR chempionlari ishtirokida muvaffaqiyatli amalga oshirildi [2].

Shuningdek, **Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ)** ko'magida "TexVET II" loyihasi doirasida 28 nafardan ortiq master-trainer va 14 nafar hududiy koordinator tayyorlandi, 750 nafardan ortiq o'qituvchi o'qitildi, 50 nafardan ziyod texnikum direktorlarining malakasi oshirildi, "Savings Game" va "Micro Business Game" amaliy modullari joriy etildi [3].

Ta'lim tizimida xalqaro aloqalar mustahkamlanishi mamlakatimizning xalqaro baholash **PISA, TIMSS** va **PIRLS** dasturlarida ishtirok etish hamd milliy ta'lim tizimini xalqaro mezonlar asosida tahlil qilish imkonini berdi.

Joriy yilda **PIRLS 2026** xalqaro tadqiqotining asosiy sinov jarayoni yuqori saviyada tashkil etilib, unda 164 ta maktab, 214 ta sinf, 5 854 nafar o'quvchi hamda 5 796 nafar ota-ona ishtirok etdi. Mazkur jarayon boshlang'ich ta'lim sifati va o'quvchilarning o'qish savodxonligini xalqaro mezonlar asosida baholashda muhim ahamiyat kasb etib, ta'lim tizimini yanada takomillashtirish uchun mustahkam asos yaratadi.

Alohida ta'kidlash joizki, 4-o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan PIRLS metodologiyasiga asoslangan holda o'qish savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan **"O'qish savodxonlari" tanlovi** halqaro hamkorlikning ijobiy natijasi bo'ldi.

Turkiya Hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (TİKA)ning O'zbekistondagi vakolatxonasi hamkorligida o'tkazilgan mazkur tanlovda Respublika bo'yicha 164 ta maktabdan 18 ming nafarga yaqin 4-sinf o'quvchilari ishtirok etishdi, har bir hududdan eng yuqori natijani qayd etgan 42 nafar g'oliblar xalqaro hamkorlar tomonidan esdalik sovg'alari va maxsus diplom bilan taqdirlandi.

Maktab ta'limida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish jarayoni O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ta'lim sifatini oshirish, innovation pedagogik texnologiyalarni joriy etish va xalqaro standartlarga integratsiyalashuvni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, amaliy jarayon tahlili **xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda qator institutsional, tashkiliy va metodik muammolar mavjudligini** ko'rsatmoqda.

Avvalo, ta'lim muassasalarida xorijiy tajribani joriy etish bilan milliy ta'lim standartlari o'rtasida **muvofiqlashtirish muammosi** saqlanib qolmoqda. Xalqaro baholash dasturlari o'quvchilardan tahliliy va amaliy fikrlashni talab qilsa, ayrim maktablarda an'anaviy yod-

lash usullari ustunlik qilmoqda. Bu esa milliy ta'lim mazmuni bilan xalqaro talablar o'rtasida nomutanosiblikni keltirib chiqaradi.

Xalqaro loyihalar shahar maktablarida samarali amalga oshirilib, chekka hududlarda esa raqamli texnologiyalar, internet sifati va zamonaviy laboratoriya jihozlari yetarli emasligi oqibatida joriy etilmasligi **hududlar o'rtasidagi ta'lim infratuzilmasi tafovutini** yuzaga keltirmoqda.

Ayrim o'qituvchilarda xorijiy til bilish darajasi, xalqaro baholash tizimlari (PISA, TIMSS, PIRLS) bo'yicha ko'nikmalar va raqamli pedagogik texnologiyalardan foydalanish malakasi yetarli darajada shakllanmaganligi **pedagog kadrlarning xalqaro kompetensiyasi yetarli emasligini** ko'rsatadi [4].

Ma'lumki, ko'plab xalqaro ta'lim loyihalari tashqi grant va donor mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Loyiha yakunlangach esa uning **davomiyligini ta'minlash mexanizmining shakllanmaganligi va loyihalarning moliyaviy barqarorligining pastligi** islohotlarning uzoq muddatli samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi davrda sun'iy intellekt, raqamli platformalar, onlayn ta'lim va gibrid o'qitish texnologiyalari juda tez rivojlanmoqda. Biroq ta'lim tizimida ushbu o'zgarishlarni qabul qilish ya'ni **sun'iy intellekt va raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish bo'yicha yagona pedagogik yondashuvning yetarli emasligi** kuzatilmoqda.

Ushbu kuzatilgan muammolar yuzasidan quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Qishloq va chekka hududlardagi maktablarni yuqori tezlikdagi internet, SMART-texnologiyalar va virtual laboratoriyalar bilan ta'minlash orqali **xalqaro ta'lim dasturlarida keng qamrovli ishtirokni ta'minlash.**

Pedagoglarning xorijiy til bilish darajasi, raqamli savodxonligi va xalqaro baholash

dasturlari bo'yicha malakasini oshirish maqsadida **Xalqaro kompetensiyaga ega pedagoglar tayyorlash tizimini joriy etish.**

Xorijiy ta'lim modellarini joriy etishda milliy qadriyatlar, mentalitet va mahalliy ta'lim muhitini hisobga olgan holda adaptatsion metodikalar ishlab chiqish orqali **xalqaro tajribani milliylashtirish mexanizmini kuchaytirish.**

Xalqaro ta'lim loyihalarini faqat grantlar asosida emas, balki xususiy sektor, IT-kompaniyalar va mahalliy investorlar ishtirokida amalga oshirish orqali ularning **uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash.**

Ta'lim tizimida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha yagona milliy pedagogik konsepsiyasi va maxsus metodik qo'llanma ishlab chiqish va pedagog kadrlar uchun "AI in Education" yo'nalishida amaliy treninglar tashkil qilish orqali **o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish** [5].

Pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish, xalqaro stajirovka va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish, shuningdek, ilmiy-tadqiqot faoliyatida xalqaro grantlar va qo'shma loyihalar ishtirokini kuchaytirish ta'lim tizimining innovatsion rivojlanishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari, ta'lim sifatini baholash va monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish orqali natijaga yo'naltirilgan boshqaruv tizimini shakllantirishga erishiladi.

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish ta'limning jahon ta'lim makoniga integratsiyasini kuchaytiradi va ilg'or tajribalarni o'zlashtirish imkonini yaratadi. **Innovatsion texnologiyalarni joriy etish** ta'lim samaradorligini oshirib, raqamli ta'lim muhitini shakllantiradi. **Pedagoglar kompetensiyalarini rivojlantirish** esa o'qituvchilarning kasbiy mahorati va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llash salohiyatini yuksaltiradi.

Shu bilan birga, **ilmiy-tadqiqot salohiyatini mustahkamlash** ta'lim va ilm-fan integratsiyasini ta'minlab, innovatsion g'oyalar va ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq etishga xizmat qiladi. **Ta'lim sifati samaradorligini oshirish** esa monitoring, baholash va natijaga yo'naltirilgan boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, **barqaror rivojlanish va ijtimoiy ta'sirni kuchaytirish** ta'limning jamiyat taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasini oshirish, inklyuzivlik va teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.

Natijada mazkur omillarning o'zaro uyg'unligi va tizimli amalga oshirilishi asosida **xalqaro standartlarga mos, innovatsion, samarali va yuqori sifatli raqobatbardosh ta'lim tizimi** shakllanadi. Bu esa mehnat bozori talablariga javob beradigan, yuqori malakali va zamonaviy kompetensiyalarga ega kadrlarni tayyorlash imkonini beradi [6].

Mazkur vazifalarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi qisqa muddatda xalqaro aloqalar va ilmiy faoliyatni faollashtirishga, o'rta muddatda qo'shma ta'lim dasturlari hamda xalqaro akkreditatsiya jarayonlarini rivojlantirishga, uzoq muddatda esa ta'lim muassasasining xalqaro miqyosda tan olingan innovatsion ta'lim va tadqiqot markaziga aylanishiga xizmat qiladi. Shu tariqa, zamonaviy talablarga javob beradigan, barqaror va raqobatbardosh ta'lim tizimini shakllantirish uchun mustahkam asos yaratiladi.

Ushbu maqolada maktab ta'limida mahalliy va xalqaro hamkorlikning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari hamda ularning ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilindi. O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan xalqaro hamkorlik loyihalari, pedagoglar malakasini oshirish dasturlari, raqamli ta'lim platformalari va xalqaro baholash tadqiqotlaridagi ishtirok jarayonlari keng yoritildi. Shu-



1-rasm. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali raqobatbardosh ta'limga erishish vazifalari

ningdek, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi rivojlangan davlatlarning ilg'or pedagogik tajribalari hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikning samarali natijalari tahlil qilindi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, xalqaro hamkorlik ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish va o'quvchilarning xalqaro standartlar asosida bilimni baholashda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, xalqaro baholash dasturlari (**PISA, TIMSS, PIRLS**), xorijiy malaka oshirish loyihalari, raqamli ta'lim platformalari hamda pedagogik almashinuv dasturlari milliy ta'lim tizimining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida hududlar o'rtasidagi infratuzilma tafovutlari, ayrim pedagoglarning xorijiy til va raqamli kompetensiyalarining yetarli emasligi, xalqaro

tajribalarni milliy ta'lim muhitiga moslashtirishdagi metodik muammolar hamda loyihalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq qator muammolar mavjudligi aniqlandi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt va raqamli ta'lim vositalaridan foydalanishda yagona pedagogik yondashuvni shakllantirish zarurati ham dolzarb masala sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, maktab ta'limida mahalliy va xalqaro hamkorlikni tizimli rivojlantirish, xalqaro tajribalarni milliy qadriyatlar va ta'lim muhiti asosida moslashtirish, pedagoglarning xalqaro kompetensiyalarini oshirish hamda raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalarini samarali joriy etish O'zbekiston ta'lim tizimining sifat va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Bu esa kela-jakda global raqobatbardosh, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega avlodni tarbiyalashning muhim omili bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. British Council. Future English in Uzbekistan Programme Reports and CPD Materials. – London: British Council, 2023. – 120 p.
2. European Commission. Erasmus+ Programme Guide. – Brussels: European Commission, 2024. – 456 p.
3. Karimov S. Ta'lim tizimining modernizatsiyasi va xalqaro hamkorlik. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2022. – 256 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy axborot agentligi (UzA), 2022. – 216 b.
5. OECD. Education at a Glance 2022: OECD Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2022. – 132 p.
6. OECD. Internationalisation of Higher Education: Trends and Challenges. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 38 p.
7. Singapur Ta'lim Vazirligi. Singapur ta'lim tizimining mukammallik asoslari. – Singapur: Ministry of Education Singapore, 2022. – 98 p.
8. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023. – Paris: UNESCO Publishing, 2023. – 437 p.
9. UNESCO. Ta'lim sifati va global standartlar. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 47 p.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF–5712-son Farmoni. “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2019.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF–158-son Farmoni. “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2023.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ–231-son qarori. “Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2024.

JANUBIY KOREYA – O'ZBEKISTON TA'LIM SOHASIDA STRATEGIK HAMKORLIK VA UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Alkarov Elyor Maxmudovich,

*A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti,
Rahbar kadrlarni malakasini oshirish kurslarini
metodik ta'minlash bo'limi boshlig'i, p.f.f.d. (PhD), dotsent
mralkarov@gmail.com,
<https://orcid.org/0000-0003-3215-3135>*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Janubiy Koreya Respublikasining pedagog kadrlar malakasini oshirish va uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi tajribasi hamda uni O'zbekiston ta'lim tizimiga tatbiq etishning strategik yo'nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqotda Janubiy Koreyaning Milliy ta'limni rivojlantirish instituti (National Education Training Institute – NETI) va 16 ta hududiy malaka oshirish institutlari faoliyati, ularning sun'iy intellekt (Artificial Intelligence – AI) va raqamli ta'lim, ta'lim liderligi va maktab boshqaruvi, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, kelajak ko'nikmalari va STEAM ta'limi hamda barqaror rivojlanish va global fuqarolik ta'limi yo'nalishlaridagi ustuvor amaliyotlari o'rganilgan. Qiyosiy-tipologik tahlil asosida Janubiy Koreya va O'zbekiston malaka oshirish tizimlarining institutsional, mazmuniy va texnologik jihatlarini solishtirilib, ikki mamlakat o'rtasidagi ta'lim hamkorligining strategik modeli ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: malaka oshirish, kasbiy rivojlanish, sun'iy intellekt, raqamli pedagogika, ta'lim liderligi, mentorlik, STEAM, smart maktab, barqaror ta'lim, strategik hamkorlik.

Южная Корея – Узбекистан: стратегическое сотрудничество в сфере образования и перспективы непрерывного профессионального развития

Алкарров Элёр Махмудович,

Национальный институт педагогического мастерства имени А.Авлони, начальник отдела методического обеспечения курсов повышения квалификации руководящих кадров, доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент

Аннотация: В данной статье проанализирован опыт Республики Корея в области повышения квалификации педагогических кадров и системы непрерывного профессионального развития, а также стратегические направления его внедрения в систему образования Узбекистана. В исследовании рассмотрена деятельность Национального института подготовки кадров образования Южной Кореи (National Education Training Institute – NETI) и 16 региональных институтов повышения квалификации, а также их приоритетные практики в области искусственного интеллекта (Artificial Intelligence – AI) и цифрового образования, образовательного лидерства и управления школой, профессионального развития учителей, формирования навыков будущего и STEAM-образования, устойчивого развития и глобального гражданского образования. На основе сравнительно-типологического анализа сопоставлены

институциональные, содержательные и технологические аспекты систем повышения квалификации Республики Корея и Узбекистана. В результате разработана стратегическая модель образовательного сотрудничества между двумя странами.

Ключевые слова: повышение квалификации, профессиональное развитие, искусственный интеллект, цифровая педагогика, образовательное лидерство, менторство, STEAM, смарт-школа, устойчивое образование, стратегическое сотрудничество.

Korea – Uzbekistan: strategic cooperation in education and prospects for continuous professional development

Alkarov Elyor Makhmudovich,

A. Avloni National Institute of Pedagogical Excellence, Head of the Department for Methodological Support of Professional Development Courses for Managerial Staff, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Abstract: This article examines the experience of the Republic of Korea in teacher professional development and continuous professional learning systems, as well as the strategic directions for adapting this experience to the education system of Uzbekistan. The study explores the activities of the National Education Training Institute (NETI) and 16 regional teacher training institutes, focusing on their priority practices in artificial intelligence (AI) and digital education, educational leadership and school management, teachers' professional development, future skills and STEAM education, as well as education for sustainable development and global citizenship. Based on a comparative-typological analysis, the institutional, content-related, and technological aspects of the professional development systems of the Republic of Korea and Uzbekistan were compared. As a result, a strategic model of educational cooperation between the two countries was developed.

Keywords: professional development, continuous professional growth, artificial intelligence, digital pedagogy, educational leadership, mentoring, STEAM, smart school, sustainable education, strategic cooperation.

Jahonda ta'lim tizimlarining raqobatbardoshligi, eng avvalo, pedagog kadrlarning kasbiy salohiyati va ularning uzluksiz rivojlanish imkoniyatlari bilan belgilanmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (*Organisation for Economic Co-operation and Development – OECD*) tadqiqotlarida o'qituvchi omili o'quvchilar natijalariga ta'sir etuvchi maktab ichidagi eng kuchli omil ekanligi qayd etilgan [5]. Shu sababli rivojlangan mamlakatlarda pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini doimiy modernizatsiya qilib bormoqda. Bu borada Janubiy Koreya Respublikasining tajribasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakat so'nggi yarim asr ichida ta'lim sifati bo'yicha jahonning yetakchi davlatlari qatoridan o'rin oldi va xalqaro qiyosiy tadqiqotlarda (*Xalqaro o'quvchilarni baholash*

dasturi – Programme for International Student Assessment, PISA) barqaror yuqori natijalarni namoyish etib kelmoqda [15].

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, xususan, pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da inson kapitalini rivojlantirish, ta'lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [3]. Shuningdek, maktab ta'limini rivojlantirishga qaratilgan milliy dasturda o'qituvchilar va maktab rahbarlarining malakasini oshirish tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirish nazarda tutilgan [4]. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirishda

xorijiy mamlakatlarning, jumladan, Janubiy Koreya Respublikasining ilg'or tajribasini o'rganish va milliy sharoitga moslashtirib joriy etish muhim ahamiyatga ega.

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti O'zbekistonda maktabgacha va maktab ta'limi tizimi pedagog kadrlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashning bosh ilmiy-metodik markazi sifatida Janubiy Koreya ta'lim muassasalari bilan strategik hamkorlikni yo'lga qo'yimoqda. Mazkur maqolada Janubiy Koreya Respublikasi pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimining institutsional tuzilmasi va ustuvor yo'nalishlarini tahlil qilish, ikki mamlakat tizimlari qiyosiy o'rganilgan hamda shu asosda Janubiy Koreya – O'zbekiston ta'lim hamkorligining strategik modelini va ustuvor loyihalari asoslab berilgan.

Pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi masalasi xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. L.Darling-Hammond va hammualliflari samarali kasbiy rivojlantirish dasturlarining yetti belgisini, jumladan, mazmunga yo'naltirilganlik, faol o'rganish, hamkorlik, modellashtirish, kouching va ekspert ko'magi, qayta aloqa va refleksiya hamda davomiylikni asoslab berganlar [7]. E.Xargrivs va M.Fullan "kasbiy kapital" (*professional capital*) konsepsiyasini ilgari surib, o'qituvchining individual salohiyati (*inson kapitali*), hamkasblar bilan o'zaro hamkorligi (*ijtimoiy kapital*) va kasbiy qaror qabul qilish layoqati (*qarorlar kapitali*) uyg'unligini ta'lim sifatining hal qiluvchi omili sifatida ko'rsatganlar [8].

Sharqiy Osiyo mamlakatlari tajribasini o'rgangan J.Stigler va J.Hibert darsni hamkorlikda tahlil qilish (*Lesson Study*) metodikasi-ning o'qituvchilar kasbiy mahoratini oshirishdagi samaradorligini ilmiy asoslab berganlar [9]. R.Dyufur kasbiy o'rganish jamoalari (*Professional Learning Communities – PLC*) konsepsiyasini rivojlantirib, maktabni o'qituv-

chilarning birgalikda o'rganadigan tashkilotiga aylantirish g'oyasini ilgari surgan [10]. A.Shlyaycher jahon ta'lim tizimlarini qiyosiy tahlil qilib, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning muvaffaqiyati zahirida o'qituvchilik kasbining yuqori nufuzi va kasbiy rivojlanishning tizimlilik yotishini ta'kidlagan [15].

Janubiy Koreya ta'lim tizimining institutsional asoslari Janubiy Koreya ta'limni rivojlantirish instituti (*Korean Educational Development Institute – KEDI*) tadqiqotlarida [11], OECD ning Janubiy Koreya ta'lim siyosatiga bag'ishlangan sharhlarida [5] hamda YUNESKOning ta'lim kelajagiga oid hisobotlarida [6] yoritilgan. O'zbekistonda maktab rahbar kadrlarining kasbiy kompetentligi va ularni uzluksiz rivojlantirish tizimi masalalari E.M.Alkarov tadqiqotlarida o'rganilgan. Muallif maktab direktori kasbiy kompetentligining mazmuni, tuzilmasi va komponentlarini integrativ yondashuv asosida asoslab bergan [1] hamda rahbar kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini yangi bosqichga olib chiqish mexanizmini ishlab chiqqan [2]. Shu bilan birga, Janubiy Koreya malaka oshirish institutlari tajribasini O'zbekiston sharoitiga tatbiq etishning yaxlit strategik modeli hozirga qadar maxsus tadqiqot obyekti bo'lmagan, bu esa mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

Maqolada qiyosiy pedagogika metodologiyasiga tayanildi. Asosiy metodlar sifatida hujjatlarni tahlil qilish (Janubiy Koreya malaka oshirish institutlarining rasmiy hujjatlari, o'quv dasturlari va veb-resurslari [12; 13; 14]), qiyosiy-tipologik tahlil (*ikki mamlakat malaka oshirish tizimlarining institutsional, mazmuniy va texnologik jihatlarini solishtirish*), tizimli-strukturaviy tahlil (*hamkorlik modelining tarkibiy qismlarini aniqlash*) hamda model-lashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot manbalari sifatida Janubiy Koreya Respublikasining 17 ta malaka oshirish muassasasi, jumladan, Milliy ta'limni rivojlantirish institu-

ti (NETI), Seul (SETI), Tegu (DETI), Incheon (IETI), Pusan (BETI), Kvanju, Tejon, Ulsan, Kenggi, Kanvon, Chungchonnang, Chonbuk, Kenseonbuk, Kenseonnam, Cheju va Chollanang hududiy institutlari hamda Janubiy Koreyaning Toshkentdagi ta'lim markazi faoliyatiga oid ma'lumotlar tahlil qilindi.

Tahlil uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda Janubiy Koreya malaka oshirish tizimining institutsional tuzilmasi va boshqaruv mexanizmlari o'rganildi. Ikkinchi bosqichda institutlar faoliyatining mazmuniy yo'nalishlari tasniflanib, beshta ustuvor yo'nalish ajratib ko'rsatildi. Uchinchi bosqichda qiyosiy tahlil natijalari asosida Janubiy Koreya – O'zbekiston ta'lim hamkorligining strategik modeli ishlab chiqildi va ustuvor loyihalar asoslandi.

Janubiy Koreya Respublikasi pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimining institutsional tuzilmasi.

Janubiy Koreya Respublikasida pedagog kadrlarning malakasini oshirish ko'p darajali institutsional tizim orqali amalga oshiriladi. Tizimning markazida Ta'lim vazirligi huzuridagi Milliy ta'limni rivojlantirish instituti (*National Education Training Institute – NETI*) turadi [12]. NETI mamlakat miqyosida ta'lim siyosatini amaliyotga joriy etish, maktab direktorlari va ularning o'rinbosarlarini sertifikatlash, ta'lim boshqaruvi bo'yicha liderlarni tayyorlash hamda milliy ta'lim islohotlarini metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash vazifalarini bajaradi. Institutning muhim afzalligi – Ta'lim vazirligi bilan bevosita integratsiyalashganligi, maktab rahbarlarini tayyorlashning milliy modelini ishlab chiqqanligi hamda OECD, YUNESKO kabi xalqaro tashkilotlarning ilg'or tajribalarini milliy tizimga muvaffaqiyatli tatbiq etib kelayotganligidir.

Tizimning ikkinchi darajasini har bir metropoliten shahar va provinsiya ta'lim bosh-

qarmalari huzuridagi hududiy malaka oshirish institutlari tashkil etadi. Ular orasida Seul ta'limni rivojlantirish instituti (*Seoul Education Training Institute – SETI*) raqamli transformatsiya va aqlli sinflar (*Smart Classrooms*) yo'nalishida [13], Tegu instituti (DETI) innovatsion pedagogika va kelajak ko'nikmalari yo'nali-shida, Incheon instituti (IETI) xalqaro ta'lim va global fuqarolik ta'limi yo'nalishida, Pusan instituti (BETI) barqaror rivojlanish uchun ta'lim (*Education for Sustainable Development – ESD*) va ekologik ta'lim yo'nalishida, Tejon instituti esa sun'iy intellekt, kodlash va robototexnika yo'nalishida ixtisoslashgan. Bunday hududiy ixtisoslashuv har bir institut-ning o'z mintaqasi ijtimoiy-iqtisodiy xususiyat-laridan kelib chiqqan holda noyob kompeten-siya markaziga aylanishini ta'minlaydi.

Hududiy institutlar faoliyatida bir qator umumiy tamoyillar kuzatiladi.

Birinchi, o'qitish shakllarining xilma-xilligi. Kurslar kollektiv (*yuzma-yuz*), masofaviy, aralash (*blended*) hamda mikroo'rganish (*microlearning*) formatlarida tashkil etiladi. Masalan, Kenseonbukdo instituti 20 000 dan ortiq mikroo'rganish modulidan iborat “5 daqiqalik bilim xizmati” platformasini boshqaradi, Chollanang-do instituti esa hududiy ta'lim bo'limlari ehtiyojidan kelib chiqib, ketma-ket ko'p guruhli kurslarni tashkil etadi.

Ikkinchidan, o'qituvchining kasbiy hayot bosqichlariga moslashtirilganlik. Yangi pedagoglar uchun mentorlik, rivojlanish bosqichida-gi o'qituvchilar uchun chuqurlashtirilgan kurs-lar, rahbarlar uchun liderlik dasturlari alohida loyihalashtiriladi.

Uchinchi, amaliyotga yo'naltirilganlik. Chonbuk instituti “haqiqatga asoslanib amaliy bilim izlash” tamoyili asosida o'qituv-chilar darhol maktabda qo'llay oladigan kurs-larga ustuvorlik beradi, Cheju ta'lim markazi esa “maktabga borib o'tkaziladigan” va mak-

tab ehtiyojidan kelib chiqib loyihalashtirilgan kurslarni rivojlantirgan.

Tizimning uchinchi darajasini xalqaro hamkorlik infratuzilmasi tashkil etadi. Xususan, Janubiy Koreya Respublikasining Toshkentdagi ta'lim markazi (*Korean Education Center in Tashkent*) ikki mamlakat o'rtasidagi ta'lim hamkorligini muvofiqlashtiruvchi bevosita bo'g'in bo'lib, koreys tili kurslari, xalqaro TOPIK imtihoni hamda Janubiy Koreya hukumati stipendiya dasturlarini O'zbekistonda tashkil etib kelmoqda [14].

Hududiy institutlarning ixtisoslashuvi yuqorida qayd etilganlar bilan cheklanmaydi. Kvanju instituti o'quvchi va o'qituvchi farovonligi (*Wellbeing*), demokratik maktab boshqaruvi, xarakter tarbiyasi (*Character Education*) va inklyuziv ta'lim yo'nalishlarida yetakchi hisoblanasa, Tejon instituti sun'iy intellekt, kodlash, robototexnika va hisoblash fikrlash bo'yicha o'qituvchilarni tayyorlashda ilg'or tajribaga ega. Janubiy Koreya da eng ko'p o'quvchi va pedagogga ega Kenggi provinsiyasi instituti innovatsion pedagogika va maktablarni rivojlantirish bo'yicha, tog'li va qishloq hududlari ulushi yuqori bo'lgan Kanvon provinsiyasi instituti esa qishloq maktablarini rivojlantirish, hududiy ta'lim tengligini ta'minlash va kichik maktablarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha mamlakatdagi eng ilg'or markazlardan biri sifatida tan olingan. Bu jihat O'zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega, chunki respublikamizda ham qishloq maktablari ulushi yuqori bo'lib, hududiy ta'lim tengligi masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Chungchonnamdo instituti maktablarning mustaqilligini oshirish (*School Autonomy*), jamiyatga asoslangan ta'lim hamda o'qituvchi kompetensiyalarini boshqarish tizimlarini milliy raqamli platforma, o'quv analitikasi (*learning analytics*), mikroo'rganish va majburiy o'qitish (*mandatory training*) modullari bilan yagona ekotizimga birlashtirgan. Maj-

buriy modullar tarkibiga bolalar xavfsizligi, inklyuziv ta'lim, korrupsiyaga qarshi kurash, sun'iy intellekt etikasi va raqamli xavfsizlik kabi mavzular kiritilgan bo'lib, bu har bir pedagogning zamonaviy ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarga ega bo'lishini kafolatlaydi. Shuningdek, Kensannamdo instituti o'quv jarayonida katta hajmdagi ma'lumotlar (*big data*) asosidagi o'quv analitikasi va intellektual o'quv boshqaruv tizimlaridan foydalanish bo'yicha tajriba to'plagan. Umuman olganda, JANUBIY KOREYA tizimida har bir institut milliy strategiya doirasida o'ziga xos "kompetensiya markazi" vazifasini bajarishi tizimning yaxlit samaradorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

O'zbekistonda pedagog kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining hozirgi holati.

Janubiy Koreya tajribasini tatbiq etish imkoniyatlarini baholash uchun O'zbekiston malaka oshirish tizimining hozirgi holatini tavsiflash zarur. So'nggi yillarda mamlakatda pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi sohasida tub institutsional o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, malaka oshirishning davriyligi va mazmuni qayta ko'rib chiqildi, masofaviy ta'lim platformalari joriy etildi, pedagoglarning kasbiy o'sishini rag'batlantirish mexanizmlari takomillashtirildi. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da [3] hamda xalq ta'limini rivojlantirish milliy dasturida [4] o'qituvchilarning kasbiy mahoratini xalqaro standartlar asosida oshirish, maktab rahbarlarini zamonaviy boshqaruv kompetensiyalari bilan qurollantirish vazifalari belgilangan.

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tizimning markaziy bo'g'ini sifatida malaka oshirish dasturlarini modernizatsiya qilish, masofaviy va aralash o'qitish

formatlarini kengaytirish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish yo'nalishlarida faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar tahlili tizimda bir qator rivojlanish nuqtalari mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, maktab rahbar kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini yangi bosqichga olib chiqish mexanizmi-ga bag'ishlangan tadqiqotda [2] rahbar kadrlar zaxirasi bilan ishlash, ularni bosqichma-bosqich tayyorlash va sertifikatlash tizimini yaratish zarurati asoslab berilgan. Maktab direktori kasbiy kompetentligining integrativ tuzilmasi haqidagi tadqiqot [1] esa rahbarlik lavozimiga tayyorgarlikning ilmiy asoslangan mezonlarini taklif etadi. Bu yo'nalishlarda Janubiy Koreya-ni NETI tajribasi – direktorlikka nomzodlar-ni majburiy sertifikatlash va liderlik dasturlari – bevosita qo'llanilishi mumkin bo'lgan tayyor institutsional yechimlarni taqdim etadi.

O'qituvchilar darajasida esa quyidagi ehtiyojlar dolzarb:

- yangi pedagoglarni kasbiy faoliyatga moslashtiruvchi tizimli mentorlik mexanizmining yo'qligi;

- malaka oshirish dasturlarining o'qituvchi kasbiy hayoti bosqichlariga yetarlicha tabaqalashtirilmaganligi;

- sun'iy intellekt va raqamli pedagogika bo'yicha kompetensiyalarni rivojlantiruvchi kurslarning boshlang'ich bosqichda ekanligi;

- mikroo'rganish formatidagi qisqa, amaliy modullar bankining shakllanmaganligi. Aynan shu ehtiyojlar Janubiy Koreya institutlarining ixtisoslashgan tajribasi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanadi va quyida asoslab beriladigan hamkorlik loyihalarining mazmunini belgilaydi.

JANUBIY KOREYA tajribasining ustuvor yo'nalishlari.

O'tkazilgan tahlil Janubiy Koreya malaka oshirish institutlari faoliyatida beshta ustuvor yo'nalishni ajratib ko'rsatish imkonini berdi.

Birinchi yo'nalish – sun'iy intellekt va raqamli ta'lim. Janubiy Koreya institutlari sun'iy intellekt asosida o'qitish metodlarini ishlab chiqish, aqlli sinf (*Smart Classroom*) texnologiyalari, ta'lim texnologiyalari (*EdTech*) yechimlari va platformalari, raqamli pedagogika, ma'lumotlarga asoslangan o'qitish va baholash hamda o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirmoqda. NETI o'qituvchilar uchun matematika, tabiiy fanlar, ingliz tili, ijtimoiy fanlar, texnologiya va san'at yo'nalishlarida "AI darslik orqali dars innovatsiyasi" kursini, direktorlar uchun esa "AI davrida maktab boshqaruvi" modulini joriy etgan. Bu yo'nalish Janubiy Koreya da sun'iy intellektga asoslangan raqamli darsliklarning maktab amaliyotiga bosqichma-bosqich kiritilishi bilan uzviy bog'liq.

Ikkinchi yo'nalish – ta'lim liderligi va maktab boshqaruvi. Maktab liderligini rivojlantirish, ta'limni strategik rejalashtirish, maktablarni innovatsion rivojlantirish, ta'lim islohotlariga ko'maklashish hamda ta'lim sifatini monitoring qilish va baholash ushbu yo'nalishning asosiy mazmunini tashkil etadi. Maktab rahbarining kasbiy kompetentligi ta'lim muassasasi samaradorligining hal qiluvchi omili ekanligi ilmiy adabiyotlarda asoslangan bo'lib [1], Janubiy Koreya tajribasi rahbar kadrlarni maqsadli tayyorlash, sertifikatlash va uzluksiz rivojlantirishning yaxlit milliy modeli qanday ishlashini yaqqol ko'rsatadi.

Uchinchi yo'nalish – o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi. Bu yo'nalishda kasbiy o'rganish jamoalari (*PLC*) faoliyati, darsni hamkorlikda tahlil qilish (*Lesson Study*), tengdosh murabbiyligi (*Peer Coaching*), mentorlik tizimi, kompetensiyaga asoslangan rivojlantirish hamda tadqiqotga asoslangan amaliyot markaziy o'rin tutadi. Kensannamdo instituti (GNETI) yangi pedagoglarni tajribali o'qituvchilar ko'magida kasbiy faoliyatga mos-

lashtiruvchi mentorlik tizimining rivojlangan modeliga ega bo'lsa, Chonbuk instituti hayot bosqichlariga mos bosqichma-bosqich malaka oshirish dasturlari tuzilmasini joriy etgan. Bu amaliyotlar R.Dyufur [10] hamda J.Stigler va J.Hibert [9] g'oyalarning tizimli institutsional tatbiqini namoyish etadi.

To'rtinchi yo'nalish – kelajak ko'nikmalari va STEAM ta'limi. Kodlash va robototexnika, STEAM (*Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics – fan, texnologiya, muhandislik, san'at, matematika*) ta'limi, yaratuvchanlik (*Maker*) ta'limi, hisoblash fikrlash (*Computational Thinking*) hamda loyiha asosida o'qitish (*Project-Based Learning*) ushbu yo'nalishning tarkibiy qismlaridir. Tejon va Ulsan institutlari o'qituvchilarni zamonaviy texnologiyalar asosida tayyorlash, kasbiy ta'limni sanoat bilan integratsiyalash va kelajak kasblariga yo'naltirish bo'yicha katta tajriba to'plagan.

Beshinchi yo'nalish – barqaror rivojlanish va global fuqarolik ta'limi. Barqaror rivojlanish uchun ta'lim (*ESD*), ekologik ta'lim, global fuqarolik ta'limi, iqlim o'zgarishiga oid ta'lim hamda yashil maktab (*Green School*) modeli bu yo'nalishning asosini tashkil etadi. Pusan instituti shaharning xalqaro port va innovatsiyalar markazi sifatidagi mavqeidan kelib chiqib, o'quvchilarni XXI asr kompetensiyalari, ekologik mas'uliyat va global raqobatbardoshlikka tayyorlashga alohida e'tibor qaratadi. Bu yo'nalish YUNESKOning ta'lim kelajagi to'g'risidagi konseptual yondashuvlari bilan hamohangdir [6].

Ta'kidlash joizki, mazkur beshta yo'nalish bir-biridan ajralgan holda emas, balki o'zaro uzviy bog'liqlikda amal qiladi. Sun'iy intellekt va raqamli ta'lim boshqa barcha yo'nalishlarning texnologik negizi bo'lib xizmat qilsa, ta'lim liderligi ularning maktab darajasida samarali joriy etilishini ta'minlaydi. O'qituv-

chilarning kasbiy rivojlanishi yo'nalishi esa yangiliklarni sinf xonasiga yetkazuvchi asosiy kanal hisoblanadi. Kelajak ko'nikmalari va barqaror rivojlanish yo'nalishlari ta'lim mazmunining strategik mo'ljallarini belgilaydi. Aynan shu tizimli uyg'unlik – texnologiya, boshqaruv, kasbiy rivojlanish va mazmun yangilanishining bir vaqtda olib borilishi – Janubiy Koreya tajribasining eng muhim saboqlaridan biri bo'lib, hamkorlik loyihalarini loyihalashtirishda asosiy metodologik mo'ljal sifatida qabul qilindi.

Janubiy Koreya va O'zbekiston malaka oshirish tizimlarining qiyosiy tahlili.

Qiyosiy-tipologik tahlil ikki mamlakat pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimlarining umumiy va farqli jihatlarini aniqlash imkonini berdi. Umumiy jihatlar sifatida ikkala tizimning ham davlat siyosati darajasida boshqarilishi, markaziy muvofiqlashtiruvchi institut (*Janubiy Koreyada – NETI, O'zbekistonda – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti*) va hududiy tarmoqning mavjudligi, malaka oshirishning majburiy davriyligi hamda raqamlashtirishga yo'naltirilganligini ko'rsatish mumkin. Farqli jihatlar esa, asosan, texnologik yetuklik darajasi, mazmuniy ixtisoslashuv chuqurligi va o'qituvchining individual ehtiyojiga moslashuv mexanizmlarida namoyon bo'ladi (1-jadval).

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Janubiy Koreya tizimining asosiy ustunliklari texnologik infratuzilmaning yetukligi, mazmuniy ixtisoslashuvning chuqurligi hamda o'qituvchi kasbiy hayotining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi tabaqalashtirilgan yondashuvda namoyon bo'ladi. O'zbekiston tizimi esa jadal islohotlar bosqichida bo'lib, institutsional asoslar mustahkamlanmoqda, bu holat Janubiy Koreya tajribasini maqsadli o'zlashtirish uchun qulay strategik imkoniyat yaratadi.

Janubiy Koreya va O'zbekiston pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimlarining qiyosiy tavsifi

T/r	Qiyoslash mezonlari	Janubiy Koreya Respublikasi	O'zbekiston Respublikasi
1	Markaziy institut	NETI – Ta'lim vazirligi huzuridagi milliy institut, rahbar kadrlarni sertifikatlash vakolatiga ega	A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti – malaka oshirishning bosh ilmiy-metodik markazi
2	Hududiy tarmoq	17 ta metropoliten va provinsiya instituti, har biri mintaqaviy ixtisoslashuvga ega	Hududiy pedagogik mahorat markazlari; mazmuniy ixtisoslashuv shakllanish bosqichida
3	O'qitish shakllari	Kollektiv, masofaviy, aralash, mikroo'rganish (20 000+ modul), maktabga borib o'tkaziladigan kurslar	Kollektiv va masofaviy kurslar; aralash va mikroo'rganish formatlari joriy etilmoqda
4	AI va raqamli ta'lim	AI asosidagi raqamli darsliklar, "AI davrida maktab boshqaruvi" modullari, o'quv analitikasi	Raqamli platformalar rivojlanmoqda; AI kompetensiyalari bo'yicha dasturlar boshlang'ich bosqichda
5	Mentorlik va PLC	Yangi pedagoglar uchun milliy mentorlik tizimi, PLC va Lesson Study keng tarqalgan	Mentorlik va PLC elementlari ayrim maktablarda tajriba-sinov tarzida qo'llanilmoqda
6	Rahbar kadrlar tayyorlash	Direktorlikka nomzodlarni majburiy sertifikatlash, liderlik dasturlari	Rahbar kadrlar zaxirasi bilan ishlash va uzluksiz rivojlantirish mexanizmlari takomillashtirilmoqda [2]
7	Kasbiy bosqichlarga moslashuv	Hayot bosqichlariga mos (boshlang'ich – rivojlanish – chuqurlashtirilgan) dasturlar tuzilmasi	Yagona dasturlardan tabaqalashtirilgan dasturlarga o'tish jarayoni kechmoqda
8	Xalqaro hamkorlik	OECD, YUNESKO tajribalarini tatbiq etish, xorijda ta'lim markazlari tarmog'i	Xalqaro hamkorlik kengaymoqda; Janubiy Koreya bilan strategik sheriklik yo'lga qo'yilmoqda

Janubiy Koreya – O'zbekiston ta'lim hamkorligining strategik modeli


Tahlil natijalari asosida ikki mamlakat o'rtasidagi ta'lim hamkorligining strategik modeli ishlab chiqildi (1-rasm). Model olti darajadan iborat bo'lib, Janubiy Koreya tajribasini O'zbekiston ta'lim tizimiga tizimli, bosqi-

chma-bosqich va natijaga yo'naltirilgan tarzda tatbiq etish mantig'ini aks ettiradi. Modelning yuqori darajasida tajriba manbai – NETI boshchiligidagi Janubiy Koreya malaka oshirish institutlari tarmog'i, ikkinchi darajasida tajribaning beshta ustuvor yo'nalishi, uchinchi darajasida esa hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi

platforma – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti va Janubiy Koreya ta'lim muassasalari strategik sherikligi joylashgan.

Modelning to'rtinchi darajasini oltita ustuvor hamkorlik loyihasi, beshinchi darajasini kutilayotgan natija – O'zbekistonda kelajakka yo'naltirilgan ta'lim ekotizimi, oltinchi daraja-

sini esa monitoring, baholash va qayta aloqa mexanizmi tashkil etadi. Qayta aloqa konturi (chizmada punktir chiziq bilan ifodalangan) loyihalar natijalarining muntazam baholanishi asosida hamkorlik dasturlarini takomillashtirib borishni nazarda tutadi, bu esa modelga dinamik va o'z-o'zini rivojlantiruvchi xususiyat baxsh etadi.



1-rasm. Janubiy Koreya – O'zbekiston ta'lim sohasidagi strategik hamkorlikning tuzilmaviy-funksional modeli.

O'zbekiston uchun ustuvor hamkorlik loyihalari.

Ishlab chiqilgan model doirasida O'zbekiston uchun oltita ustuvor hamkorlik loyihasi asoslab berildi. Loyihalar Janubiy Koreya tajribasining ustuvor yo'nalishlariga muvofiq shakllantirilib, har biri aniq maqsad, mazmun va kutilayotgan natijalarga ega.

“AI pedagogika akademiyasi” loyihasi JANUBIY KOREYA ekspertlari tomonidan trening kurslarini tashkil etish, o'qituvchilarni sertifikatlash dasturlarini joriy qilish, sun'iy intellekt asosidagi dars dizayni metodikasini o'zlashtirish, raqamli pedagogika va sun'iy intellekt kompetensiyalarini mustahkamlash hamda ta'limda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishni ilmiy tadqiq etishni nazarda tutadi. Loyiha doirasida NETI ning “AI darslik orqali dars innovatsiyasi” kursini milliy o'quv dasturlariga moslashtirish hamda Kensannamdo instituti bilan hamkorlikda matematika va tabiiy fanlar o'qituvchilari uchun “AI va STEM dars dizayni” kursini yaratish rejalashtirilgan.

“Smart maktab – O'zbekiston” loyihasi aqlli maktab modelini ishlab chiqish, aqlli sinfxona laboratoriyalarini yaratish, raqamli ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish, ta'lim kontentini raqamlashtirish hamda aqlli maktab sertifikatlash tizimini joriy etishga qaratilgan. Seul instituti (SETI) ning aqlli sinflar va raqamli transformatsiya tajribasi loyihaning metodik asosini tashkil etadi [13]. Loyiha sun'iy intellektga asoslangan raqamli darsliklardan foydalanish metodikasini tajriba-sinov maktablariida bosqichma-bosqich sinovdan o'tkazishni ham qamrab oladi.

“Ta'lim liderlari akademiyasi” loyihasi maktab rahbarlari uchun treninglar tashkil etish, liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish, Janubiy Koreya tajribasini maktab boshqaruvida ulashish hamda maktab boshqaruvi modullarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Loyiha NETI ning maktab direktorlarini sertifikatlash

milliy modeliga tayanadi va maktab direktori kasbiy kompetentligining integrativ tuzilmasi [1] asosida modulli dasturlarni shakllantiradi. Bu yo'nalish rahbar kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini yangi bosqichga olib chiqish mexanizmi [2] bilan uzviy bog'lanib, kadrlar zaxirasini maqsadli tayyorlashga xizmat qiladi. Loyiha doirasida Janubiy Koreya – O'zbekiston maktab rahbarlari almashinuvi dasturini yo'lga qo'yish ham ko'zda tutilgan.

“Kasbiy o'rganish jamoalari va darsni tahlil qilish markazi” loyihasi maktablarda kasbiy o'rganish jamoalari (PLC) faoliyatini qo'llab-quvvatlash, darsni hamkorlikda tahlil qilish (Lesson Study) bo'yicha murabbiylik hamda o'qituvchilar hamkorligini rivojlantirish va mentorlikni nazarda tutadi. Kensannamdo instituti (GNETI) ning mentorlik tizimi tajribasiga asoslanib, yangi pedagoglarni qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan milliy mentorlik modelini ishlab chiqish va joriy etish loyihaning markaziy vazifasi hisoblanadi. Bunda samarali kasbiy rivojlantirishning ilmiy asoslangan tamoyillari [7; 8] hamda darsni tahlil qilish metodikasi [9; 10] tayanch nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

“Yashil maktab – O'zbekiston” loyihasi ekologik ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, barqaror maktab madaniyati va amaliyotini rivojlantirish, yashil maktab sertifikatlash tizimini qo'llab-quvvatlash hamda yashil maktab modelini amaliy joriy etishga qaratilgan. Pusan instituti (BETI) ning barqaror rivojlanish uchun ta'lim va loyihaviy o'qitish tajribasi loyihaning metodik negizini tashkil etadi. Loyiha iqlim o'zgarishi sharoitida o'quvchilarning ekologik madaniyati va global fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi [6].

“Janubiy Koreya – O'zbekiston ta'lim hamkorligi platformasi” loyihasi qo'shma seminarlar va konferensiyalar, vebinarlar va onlayn o'quv dasturlari, o'qituvchilar almashinuvi va stajirovkalar hamda qo'shma tadqiqotlar

va ta'lim resurslarini yaratishni qamrab oladi. Platforma boshqa beshta loyihani muvofiqlashtiruvchi va ularning barqarorligini ta'minlovchi infratuzilma vazifasini bajaradi. Janubiy Koreyaning Toshkentdagi ta'lim markazi [14] platformaning tezkor aloqa bo'g'ini sifatida koreys tili o'qituvchilarini tayyorlash, TOPIK imtihoni va stipendiya dasturlari orqali akademik mobillikni kengaytirishga ko'maklashadi.

Har bir loyiha uchun kutilayotgan natijalarning o'lchanadigan ko'rsatkichlari belgilanishi maqsadga muvofiq. Jumladan, "AI pedagogika akademiyasi" bo'yicha sertifikatlangan o'qituvchilar soni va ularning raqamli kompetensiyalari o'sish dinamikasi; "Smart maktab – O'zbekiston" bo'yicha aqlli sinfxona laboratoriyalari bilan jihozlangan tajriba maktablari soni va raqamlashtirilgan ta'lim kontenti hajmi; "Ta'lim liderlari akademiyasi" bo'yicha liderlik dasturlarini tamomlagan rahbarlar ulushi va ular boshqarayotgan maktablarning samaradorlik ko'rsatkichlari; mentorlik loyihasi bo'yicha mentorlik bilan qamrab olingan yangi pedagoglar ulushi va ularning kasbda barqaror qolish darajasi; "Yashil maktab" loyihasi bo'yicha sertifikatlangan yashil maktablar soni; hamkorlik platformasi bo'yicha esa qo'shma tadbirlar, almashinuv dasturlari ishtirokchilari va yaratilgan qo'shma ta'lim resurslari soni asosiy indikatorlar bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bunday ko'rsatkichlar tizimi loyihalar samaradorligini xolis baholash hamda qayta aloqa mexanizmini real ma'lumotlar bilan ta'minlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari Janubiy Koreya tajribasini O'zbekistonga tatbiq etishda uch muhim metodologik shartga rioya qilish zarurligini ko'rsatadi.

Birinchidan, moslashtirish tamoyili. Janubiy Koreya modellari mexanik ko'chirilmasdan, milliy ta'lim an'analari, normativ-huquqiy baza va resurs imkoniyatlaridan kelib chiqib qayta loyihalashtirilishi lozim. Qiyosiy pedagogika

nazariyasida ta'kidlanganidek, muvaffaqiyatli tizimlarning kuchi alohida elementlarda emas, balki elementlar o'rtasidagi tizimli muvofiklikda namoyon bo'ladi [15]. Masalan, mentorlik tizimini joriy etish o'qituvchi mehnatini rag'batlantirish, ish yuklamasini taqsimlash va attestatsiya mexanizmlari bilan uyg'unlashtirilgandagina kutilgan samarani beradi.

Ikkinchidan, bosqichlilik tamoyili. Ustuvor loyihalarni avval tajriba-sinov maktablari sinovdan o'tkazish, natijalarni baholash va shundan so'ng ommalashtirish maqsadga muvofiq. Janubiy Koreya tajribasining o'zi ham raqamli darsliklar va aqlli sinflarni bosqichma-bosqich, doimiy monitoring asosida joriy etish namunasini beradi.

Uchinchidan, institutsional egalik tamoyili. Hamkorlik dasturlari alohida tadbirlar yig'indisi emas, balki A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti boshchiligidagi yagona muvofiqlashtiruv tizimi doirasida amalga oshirilishi kerak. Aks holda loyihalar tarqoqlashib, barqaror natija bermasligi mumkin.

Bosqichlilik tamoyilidan kelib chiqib, hamkorlikni amalga oshirishning uch bosqichli yo'l xaritasini taklif etish mumkin.

Tayyorgarlik bosqichida (birinchi yil) Janubiy Koreyaning tegishli institutlari bilan memorandumlar imzolanadi, qo'shma ishchi guruhlar tuziladi, trener-pedagoglar (master-trenerlar) tanlab olinadi va Janubiy Koreyada stajirovkadan o'tkaziladi, dastlabki o'quv modullari milliy sharoitga moslashtiriladi.

Tajriba-sinov bosqichida (ikkinchi yil) har bir loyiha bo'yicha cheklangan miqdordagi tajriba maktablari tanlanib, dasturlar amaliyotda sinovdan o'tkaziladi, kirish va chiqish diagnostikasi asosida o'qituvchilar kompetensiyalarining o'sish dinamikasi o'lchanadi.

Ommalashtirish bosqichida (uchinchi yildan boshlab) sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan dasturlar hududiy markazlar orqali respublika miqyosida joriy etiladi, master-trenerlar yangi

treynerni tayyorlash (kaskad) modeli ishga tushiriladi va dasturlar mazmuni qayta aloqa natijalari asosida muntazam yangilanib boriladi. Bunday ketma-ketlik resurslarni oqilona taqsimlash bilan birga, xatolarni erta bosqichda aniqlash va tuzatish imkonini ham beradi.

Shu bilan birga, ayrim cheklovlarni ham qayd etish lozim. Janubiy Koreya va O'zbekiston ta'lim tizimlari moliyalashtirish hajmi, raqamli infratuzilma darajasi va o'qituvchilik kasbining ijtimoiy mavqei bo'yicha sezilarli farqlanadi. Shuning uchun kutilayotgan natijalarga erishish muddatlari real baholanishi, har bir loyiha uchun aniq o'lchanadigan ko'rsatkichlar (joriy etilgan dasturlar soni, qamrab olingan pedagoglar ulushi, o'qituvchilar kompetensiyalarining o'sish dinamikasi va boshqalar) belgilanishi zarur. Bundan tashqari, mazkur tadqiqot hujjat tahliliga asoslangan bo'lib, kelgusida loyihalarning amaliy samaradorligini empirik o'rganish, jumladan, tajriba-sinov natijalarini statistik tahlil qilish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

O'tkazilgan tadqiqot quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi.

Birinchidan, Janubiy Koreya Respublikasining pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimi markaziy institut (NETI) va chuqur ixtisoslashgan hududiy institutlar tarmog'idan iborat ko'p darajali tuzilmaga ega bo'lib, uning samaradorligi texnologik yetuklik, mazmuniy xilma-xillik va o'qituvchi kasbiy hayoti bosqichlariga moslashuvchanlik bilan ta'minlanadi.

Ikkinchidan, Janubiy Koreya tajribasining beshta ustuvor yo'nalishi – sun'iy intellekt va raqamli ta'lim, ta'lim liderligi, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, kelajak ko'nikmalari va STEAM ta'limi hamda barqaror rivojlanish ta'limi – O'zbekiston ta'lim islohotlarining ustuvorliklari bilan yuqori darajada mos keladi, bu esa hamkorlik uchun mustahkam mazmuniy asos yaratadi.

Uchinchidan, ishlab chiqilgan strategik model hamkorlikni tajriba manbai, ustuvor yo'nalishlar, muvofiqlashtiruvchi platforma, aniq loyihalar, kutilayotgan natija va qayta aloqa mexanizmidan iborat yaxlit tizim sifatida tashkil etish imkonini beradi.

To'rtinchidan, asoslab berilgan oltita ustuvor loyiha – “AI pedagogika akademiyasi”, “Smart maktab – O'zbekiston”, “Ta'lim liderlari akademiyasi”, “Kasbiy o'rganish jamoalari va darsni tahlil qilish markazi”, “Yashil maktab – O'zbekiston” va “Janubiy Koreya – O'zbekiston ta'lim hamkorligi platformasi” – Janubiy Koreya tajribasini milliy tizimga tatbiq etishning aniq yo'l xaritasi vazifasini bajaradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi JANUBIY KOREYA Respublikasi malaka oshirish institutlari faoliyatining yaxlit tasnifi ishlab chiqilganligi, ikki mamlakat tizimlarining ko'p mezonli qiyosiy tavsifi berilganligi hamda ta'lim hamkorligining qayta aloqa mexanizmiga ega tuzilmaviy-funksional modeli taklif etilganligida namoyon bo'ladi. Amaliy ahamiyati esa ishlab chiqilgan model va loyihalar A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti hamda ta'lim sohasidagi boshqa mas'ul tashkilotlar tomonidan xalqaro hamkorlik dasturlarini rejalashtirish, malaka oshirish kurslarining mazmunini yangilash va rahbar kadrlar bilan ishlash tizimini takomillashtirishda bevosita qo'llanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti huzurida Janubiy Koreya – O'zbekiston ta'lim hamkorligini muvofiqlashtiruvchi doimiy ishchi guruh tashkil etish;
- har bir ustuvor loyiha bo'yicha Janubiy Koreyaning tegishli ixtisoslashgan instituti bilan memorandum imzolash va qo'shma yillik ish rejalarini tasdiqlash;

- yangi pedagoglar uchun milliy mentorlik modelini hamda maktab rahbarlarini sertifikatlashning milliy tizimini Janubiy Koreya tajribasi asosida ishlab chiqish;

- sun'iy intellekt va raqamli kompetensiyalar bo'yicha mikroo'rganish kurslari milliy bankini yaratish;

- loyihalar samaradorligini baholashning

o'lchanadigan ko'rsatkichlar tizimini joriy etish.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi pedagog kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga hamda O'zbekistonda kelajakka yo'naltirilgan ta'lim ekotizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alkarov, E.M. (2026). Maktab direktori kasbiy kompetentligining mazmuni, tuzilmasi va komponentlari: integrativ yondashuv // Maktab ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar. – 6(1). – B. 1–11. <https://doi.org/10.5281/zenodo.18372586>

2. Alkarov, E.M. (2026). Maktab rahbar kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini yangi bosqichga olib chiqish mexanizmi // Maktab ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar. – 6(1). – B. 1–10. <https://orcid.org/0000-0003-3215-3135>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. “2022–2026-yil-larga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2022.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoni. “2022–2026-yil-larda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur to'g'risida” // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2022.

5. OECD (2016). Education Policy Outlook: Korea. – Paris: OECD Publishing. – 28 p.

6. UNESCO (2021). Reimagining our futures together: A new social contract for education. – Paris: UNESCO Publishing. – 186 p.

7. Darling-Hammond, L., Hyler, M.E., Gardner, M. (2017). Effective Teacher Professional Development. – Palo Alto, CA: Learning Policy Institute. – 76 p.

8. Hargreaves, A., Fullan, M. (2012). Professional Capital: Transforming Teaching in Every School. – New York: Teachers College Press. – 240 p.

9. Stigler, J.W., Hiebert, J. (1999). The Teaching Gap: Best Ideas from the World's Teachers for Improving Education in the Classroom. – New York: Free Press. – 210 p.

10. DuFour, R. (2004). What is a “professional learning community”? // Educational Leadership. – 61(8). – P. 6–11.

11. Korean Educational Development Institute (KEDI) (2023). Education in Korea. – Jincheon: KEDI. – <https://www.kedi.re.kr>

12. National Education Training Institute (NETI). Rasmiy veb-sayt. – <https://www.neti.go.kr>

13. Seoul Education Training Institute (SETI). Rasmiy veb-sayt. – <https://www.seti.go.kr>

14. Korean Education Center in Tashkent. Rasmiy veb-sayt. – <https://www.tashkec.uz>

15. Schleicher, A. (2018). World Class: How to Build a 21st-Century School System. – Paris: OECD Publishing. – 296 p.

MAKTAB BOSHQARUVIDA MANFAATDOR TOMONLARNING PARTISIPATIV QARORLAR QABUL QILISHDAGI ISHTIROKI VA ROLLARI

Jabborova Yulduzxon Hasan qizi,

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti

Rahbar kadrlarni malakasini oshirish kurslarini

metodik ta'minlash bo'limi bosh mutaxassisi

yulduzjabborova19@gmail.com

+998 90 646 97 94

Annotatsiya: Maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasasini boshqarishda manfaatdor tomonlarning (o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar, kuzatuv kengashi hamda mahalla va jamoatchilik) partisipativ qarorlar qabul qilish jarayonidagi roli, ular ishtirok etadigan boshqaruv bosqichlari va jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ishtirokning ijobiy hamda salbiy tomonlari yoritilib, har bir manfaatdor tomonning aniq boshqaruv sohasi bo'yicha maqbul ishtirok darajasini, har bir manfaatdor tomonning partisipativ qaror qabul qilishdagi roli; ular ishtirok etadigan boshqaruv jarayonlari; manfaatdor tomonlar ishtirokining tizimlashtirilgan modeli; mualliflik yondashuvi sifatida har bir manfaatdor tomonning maqbul ishtirok darajalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: partisipativ boshqaruv, manfaatdor tomonlar, qaror qabul qilish, taqsimlangan bilim, kasbiy kapital, kuzatuv kengashi, o'zini-o'zi boshqarish, ishtirok darajasi, davlat-jamoat boshqaruvi, ta'lim sifati.

**Участие и роль заинтересованных сторон
в процессе совместного принятия решений
в сфере школьного управления**

Джаббарова Юлдузхан Хасан кызы,
Национальный институт педагогического
мастерства им. А. Авлони, главный специалист

отдела методического обеспечения курсов
повышения квалификации руководящих кадров

Аннотация: В статье рассматривается роль заинтересованных сторон (учителей, учеников, родителей, наблюдательного совета, а также местного сообщества и населения) в процессе принятия решений на основе широкого участия, анализируются этапы и процессы управления, в которых они участвуют, а также их конкретные сферы ответственности. Кроме того, освещаются положительные и отрицательные аспекты участия, а также определяется оптимальный уровень вовлеченности каждой заинтересованной стороны в конкретной сфере управления, их роль в процессе принятия решений на основе широкого участия и управленческие процессы, в которых они принимают участие. систематическая модель участия заинтересованных сторон; научно обоснованные оптимальные уровни участия для каждой заинтересованной стороны в качестве авторского подхода.

Ключевые слова: управление с участием заинтересованных сторон, заинтересованные стороны, принятие решений, распределенные знания, профессиональный капитал, наблюдательный совет, самоуправление, уровень участия, государственно-частное управление, качество образования.

The participation and roles of stakeholders in participatory decision-making in school management

Jabbarova Yulduzkhan Khasan kizi,

*A. Avloni national institute of pedagogical skills
chief specialist of the department of
methodological provision for In-Service
training courses of managerial personnel*

Abstract: *The article examines the role of stakeholders (teachers, pupils, parents, the supervisory board, and the neighbourhood and community) in the participatory decision-making process, the management stages and processes in which they*

participate, and their specific areas of responsibility are analysed. Furthermore, the positive and negative aspects of participation are highlighted, along with the appropriate level of involvement for each stakeholder in their specific area of management, their role in participatory decision-making, and the management processes in which they participate. a systematic model of stakeholder participation; the scientifically substantiated optimal levels of participation for each stakeholder as an authorial approach.

Keywords: *participatory governance, stakeholders, decision-making, distributed knowledge, professional capital, supervisory board, self-governance,*

Zamonaviy ta'lim menejmenti rivojining bosh yo'nalishi boshqaruvni ma'muriy-buyruqbozlik andozasidan partipativ, ya'ni manfaatdor tomonlarning keng ishtirokiga asoslangan andozaga o'tkazishdan iborat. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari ham aynan shu yo'nalishni maktabni yagona rahbar irodasi bilan emas, balki barcha manfaatdor tomonlarning birgalikdagi mas'uliyati asosida boshqarishni nazarda tutadi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va tegishli normativ hujjatlar maktab boshqaruvida jamoatchilik ishtirokini huquqiy jihatdan mustahkamlab, davlat-jamoat boshqaruvi tamoyilini birinchi o'ringa qo'yadi [1].

Manfaatdor tomonlarni qaror jarayoniga jalb qilishning nazariy zaminini taqsimlangan bilim g'oyasi tashkil etadi: maktab hayotining muayyan jihatini eng aniq biladigan toifa uni bevosita boshdan kechirayotgan toifadir. R. Frimanning manfaatdor tomonlar nazariyasiga ko'ra, tashkilot samaradorligi uning faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi va undan manfaatdor barcha guruhlar bilan o'zaro munosabatlar sifatiga bevosita bog'liqdir [2]. Shu bois maktab

direktorining muhim vazifasi ushbu taqsimlangan bilimni qaror jarayoniga tizimli kiritish mexanizmlarini yaratishdan iborat bo'ladi.

Maktab direktorining funksional vazifalari aynan manfaatdor tomonlar ishtiroki orqali amalga oshadi. Shu sababli boshqaruvda har bir manfaatdor tomon qaysi bilim turi bilan, qaysi qaror bosqichlarida va qanday vakolat asosida ishtirok etishini aniqlash zarur. Kanadalik tadqiqotchilar E. Hargrivy va M. Fullan "kasbiy kapital" modelida uch turdagi kapitalni ajratadi: insoniy kapital (individual kompetensiya), ijtimoiy kapital (hamkorlik sifati) va qaror kapitali (kasbiy mulohaza yuritish qobiliyati) [3]. Manfaatdor tomonlarni partisipativ jarayonga jalb qilish aynan shu uch kapitalni bir vaqtda faollashtiruvchi yagona tashkiliy mexanizmdir.

Boshqaruv nazariyasida qaror qabul qilishga jamoaning jalb etilishi qaror sifati va uning ijro etilish ehtimolini bir vaqtda oshiruvchi omil sifatida e'tirof etiladi [4]. Quyida har bir asosiy manfaatdor toifaning roli ketma-ket ko'rib chiqiladi.

O'qituvchilar maktab boshqaruvida partisipativ qarorlarning markaziy manfaatdor

toifasini tashkil etadi. Ular o'quv jarayonini bevosita amalga oshiruvchi shaxslar sifatida qaror uchun zarur eng qimmatli bilimga sinf xonasidagi real vaziyat, o'quvchining individual xususiyatlari va metodikaning amaliy samaradorligi haqidagi bilimga ega. Biroq amaliyotda maktab boshqaruvida o'qituvchilarning pedagogik bilimi tizimli ravishda yetarlicha e'tiborga olinmaydi [5]. Natijada sinf xonasida har kuni yuzaga keladigan muammolar boshqaruv qarorlariga yetib bormaydi va qarorlar ko'pincha amalda qo'llab bo'lmaydigan yoki nomuvofiq bo'lib chiqadi.

O'qituvchilarning roli bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi. Kasbiy ekspert sifatida ular muammoni aniqlash, ma'lumot to'plash va muqobil yechimlarni ishlab chiqish bosqichlarida asosiy bilim manbai bo'ladi. Ijrochi sifatida qarorlarni sinf xonasida bevosita amalga oshiradi shu sababli ular ishtirokida qabul qilingan qaror eng yaxshi bajariladi. Refleksiya manbai sifatida esa qaror amalga oshgandan keyin uning real ta'siri haqida ishonchli ma'lumot beradi. Demak, o'qituvchini qaror jarayoniga jalb qilish nafaqat qaror sifatini oshiradi, balki o'qituvchining kasbiy rivojlanishiga ham hissa qo'shadi ya'ni bu jarayon ikki tomonlama foyda keltiradi.

Bu o'rinda muhim xavfga to'xtalish lozim. Agar o'qituvchi muhokamada rasmiy ishtirok etsayu, biroq uning fikri qarorga real ta'sir ko'rsatmasa, u keyingi muhokamalardan tobora uzoqlashadi. Bu partisipativ boshqaruvning eng xavfli holati: ishtirok haqiqiy ta'sir ko'rsatmaganda, uni tashkil etishning o'zi yetarli emas, aksincha, u o'qituvchilarda ishonchsizlikni chuqurlashtirib, ishtirokchilikni quruq shaklga (imitatsiyaga) aylantiradi. Shu bois o'qituvchi ishtiroki har doim real natijaga ulanishi shart.

O'quvchilar maktabdagi qarorlarning bevosita ta'sir doirasidagi asosiy toifadir. Ular ta'lim

jarayonining bosh ishtirokchisi sifatida o'z ta'lim sifatiga oid eng aniq va bevosita kuzatuvlarga ega: dars qanchalik qiziqarli, tushuntirish qanchalik tushunarli, maktab muhiti qanchalik xavfsiz. Zamonaviy ta'lim falsafasiga ko'ra, o'quvchi nafaqat ta'lim jarayonining obyekti, balki o'z ta'limini shakllantirishda ishtirok etuvchi to'la subyektdir.

O'quvchilarning roli quyidagicha namoyon bo'ladi. Ta'lim sifatini bevosita baholovchi sifatida ular darsning samaradorligini va o'qituvchi yondashuvining muvofiqqligini aniqroq his qiladi. O'zini-o'zi boshqarish organi vakili sifatida madaniy-sport tadbirlari, tartib-qoidalar va o'quv muhitiga doir qarorlarda ishtirok etadi. Tengdoshlar ovozi sifatida esa boshqa o'quvchilarning muammolarini sinf ichidagi munosabatlar, motivatsiya holati kabi kattalar sezmaydigan jihatlarni biladi. Qaror qabul qilishga jalb qilingan o'quvchilarda maktab qoidalariga hurmat va maktabga "egalik" hissi sezilarli kuchayadi; bu esa "maktab fuqarosi" ongini shakllantirishning eng amaliy yo'lidir.

Ota-onalar maktab boshqaruvida ikki tomonlama bilim maqomiga ega: bir tomondan, maktab faoliyatini tashqaridan mustaqil baholay oladi; ikkinchi tomondan, farzandining oiladagi holati, rivojlanishi va ehtiyojlari haqida maktab xodimlaridan to'liqroq ma'lumotga ega. Ota-onalar ishtiroki uch darajaga bo'linaadi: ma'lumot olish, maslahat berish va qaror qabul qilishda ishtirok etish [6]. Amaliyotda ko'plab maktablarda ota-onalar birinchi darajadan yuqoriga ko'tarila olmaydi bu partisipativlikning institutsional jihatdan cheklanganligini ko'rsatadi.

Ota-onaning roli, ayniqsa, muammoni aniqlash va natijalarni baholash bosqichlarida muhim: u farzandining individual xususiyatlari va motivatsiyasi haqida noyob bilim beradi. Shuningdek, ota-onalar mahalla va jamiyatning

ta'limga bo'lgan kutishlarini boshqaruvga yetkazadi hamda maktabga moliyaviy va ijtimoiy resurs jalb qilishi mumkin. O'zbekistonda mahalla an'anasi asosida ota-onalar ishtiroki uchun kuchli madaniy zamin mavjud, biroq uni rasmiy mexanizmga aylantirish hali to'liq amalga oshirilmagan.

Kuzatuv kengashi maktab boshqaruvida partisipativlikning eng muhim rasmiy-huquqiy mexanizmidir. Namunaviy nizomga muvofiq, ushbu organ maktab moliyasi va faoliyatini monitoring qilish, ta'lim sifatini baholash, rivojlanish strategiyasiga oid tavsiyalar berish va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish vakolatlariga ega [7]. Bu vakolatlar Kuzatuv kengashini partisipativ boshqaruvning institutsional asosiga aylantiradi.

Kuzatuv kengashining roli bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi. Mustaqil baholovchi sifatida u maktab faoliyatini tashqaridan kuzatib, direksiya o'zi ko'ra olmaydigan tizimli xatolarni aniqlaydi. Strategik maslahatchi sifatida a'zolar (ota-onalar, nafaqadagi pedagoglar, bitiruvchilar, homiylar) o'z tajribasidan kelib chiqib maktab rivojlanishiga maslahat beradi. Legitimlovchi organ sifatida esa kengash ma'qullagan qaror jamoatchilik oldida qonuniy tus oladi. Muallif fikricha, amaliyotda Kuzatuv kengashining strategik maslahatchi roli hali to'liq rivojlanmagan u ko'pincha faqat moliyaviy masalalar bilan cheklanmoqda, bu esa kengashning salohiyatini cheklaydi [8].


O'zbekiston ta'lim tizimi uchun o'ziga xos bo'lgan manfaatdor toifa mahalla va keng jamoatchilikdir. Amaldagi normativ hujjatlarga ko'ra, maktab jamoasi o'z vazifasini ota-onalar, mahalla qo'mitalari va keng jamoatchilik bilan mustahkam hamkorlikda olib boradi, maktabni boshqarish esa jamoaning o'zini-o'zi boshqarishi va yakkaboshchilik uyg'unligi asosida amalga oshiriladi. Mahalla maktab uchun

ijtimoiy kapital, ma'naviy muhit va qo'shimcha resurs manbai vazifasini bajaradi.

Mahalla va jamoatchilikning roli, avvalo, ijtimoiy himoyaga muhtoj o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash, oilaviy nizolarni bartaraf etish, ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirish va maktabga moddiy ko'mak ko'rsatishda namoyon bo'ladi. Shu ma'noda maktab, oila va jamoatchilik hamkorligi yaxlit tarbiyaviy makonni vujudga keltiradi [9]. Mahallaning kuchli an'anaviy salohiyatini zamonaviy partisipativ boshqaruvning rasmiy elementiga aylantirish O'zbekiston ta'lim menejmentining istiqbolli yo'nalishlaridan biridir.

Yuqorida sanab o'tilgan manfaatdor tomonlardan farqli o'laroq, maktab direktori va ma'muriyat qaror jarayoniga noyob "soha bilimi" bilan emas, balki muvofiqlashtiruvchi va integratsiyalovchi funktsiya bilan hissa qo'shadi. Direktorning vazifasi har bir tomonning bilimini to'g'ri bosqichda jalb etish, ularning fikrlarini yagona qaror tizimiga birlashtirish va qaror ijrosini ta'minlashdan iborat. Boshqaruv nazariyasida bu rol "taqsimlangan yetakchilik" tushunchasi orqali ifodalanadi. Demak, partisipativ modelda direktor obro'sini yo'qotmaydi, aksincha, jarayonni mohirona boshqaruvchi me'mor maqomiga ko'tariladi.

Manfaatdor tomonlar ishtirokini to'g'ri tashkil etish uchun ular qaror qabul qilishning qaysi bosqichlarida va qaysi boshqaruv sohalarida ishtirok etishini aniqlash lozim. Boshqaruv jarayoni o'zining tabiatiga ko'ra siklik bo'lib, asosiy boshqaruv faoliyatining yopiq ketma-ketligidan iborat: tahlil qilish, qaror qabul qilish, maqsad belgilash, rejalashtirish, ijro etish, nazorat va natijalarni baholash. Manfaatdor tomonlar shu siklning turli bosqichlarida turlicha faollik bilan qatnashadi. Qaror qabul qilish siklini soddalashtirilgan ko'rinishda besh asosiy bosqichga ajratish mumkin:



Har bir bosqichda eng qimmatli bilimga ega tomonning ishtiroki nisbatan ustun bo'ladi: tashxis va baholash bosqichlarida bevosita tajriba egalari (o'qituvchi, o'quvchi, ota-ona), yechim va qaror bosqichlarida kasbiy ekspertlar va rasmiy organ (pedagogik kengash, kuzatuv kengashi), ijro bosqichida esa qarorni amalda bajaruvchi o'qituvchilar va o'quvchilar.

Bosqichlardan tashqari, manfaatdor tomonlar ishtiroki bir qancha boshqaruv sohalarida namoyon bo'ladi. Bularning asosiylari quyidagilardir: birinchidan, maktabning strategik

rivojlanishi va missiyasini belgilash; ikkinchidan, o'quv-tarbiya jarayoni sifatini baholash va takomillashtirish; uchinchi, moliya-xo'jalik faoliyati va resurslar taqsimoti; to'rtinchidan, kadrlar siyosati va pedagoglarni rag'batlantirish; beshinchidan, ichki tartib-intizom va o'quvchilar xavfsizligi; oltinchidan, ma'naviy-ma'rifiy va madaniy-sport tadbirlari; yettinchi, ijtimoiy himoya va jamiyat bilan hamkorlik. Quyidagi jadval har bir manfaatdor tomonning qaror siklining qaysi bosqichida va qanday rolda ishtirok etishini tizimli ko'rsatadi.

1-jadval

Manfaatdor tomonlarning qaror qabul qilish bosqichidagi rollari


Manfaatdor tomon	Muammoni aniqlash	Yechim ishlab chiqish	Qaror qabul qilish	Ijro etish	Baholash va refleksiya
O'qituvchilar	Asosiy	Asosiy	Qisman	Asosiy	Asosiy
O'quvchilar	Asosiy	Maslahat	Maslahat	Qisman	Asosiy
Ota-onalar	Asosiy	Maslahat	Maslahat	Qisman	Asosiy
Kuzatuv kengashi	Qisman	Asosiy	Asosiy	Nazorat	Asosiy
Mahalla va jamoatchilik	Qisman	Maslahat	Maslahat	Qisman	Qisman

Jadvaldan ko‘rinadiki, manfaatdor tomonlarning ishtiroki barcha bosqichlarda bir xil emas, balki har biri o‘zi eng ko‘p qiymat qo‘sha oladigan bosqichda eng faol bo‘ladi. Bu “hamma narsada hammani ishtirok ettirish” xatosining oldini oluvchi muhim metodologik tamoyildir.

Yuqorida tahlil qilingan rollar va jarayonlar asosida manfaatdor tomonlar ishtirokining tizimlashtirilgan modeli ishlab chiqildi. Model maktab boshqaruvini yagona, o‘zaro bog‘langan tizim sifatida tasvirlaydi va uning markazida partisipativ boshqaruv qarori jarayoni turadi.

1. Qaror sifatining oshishi. Qaror qabul qilishga turli bilim sohiblarining jalb etilishi muammoni ko‘p qirrali ko‘rish imkonini beradi va direksiya yolg‘iz ko‘ra olmaydigan “ko‘r nuqtalar”ni bartaraf etadi. Boshqaruv nazariyasida bu hodisa “kollektiv aql” effekti deb ataladi: ko‘p manbadan kelgan axborot asosida qabul qilingan qaror tizimli xatolardan xoli bo‘ladi [10].

2. Ijro samaradorligining ortishi. Psixologik jihatdan inson o‘zi ishtirok etib qabul qilgan qarorni o‘ziniki deb his qiladi va uni bajarishga ko‘proq mas’uliyat bilan yondashadi. Natijada



1-rasm. Maktab boshqaruvida manfaatdor tomonlar ishtirokining tizimlashtirilgan modeli

Ishlab chiqilgan model o‘zining ilmiy mohiyatiga ko‘ra bir qancha nazariy asoslarga tayanadi va ularni yagona amaliy konstruksiyada birlashtiradi. Manfaatdor tomonlarning boshqaruv qarorlariga jalb etilishi ta’lim muassasasi faoliyatiga ko‘p qirrali ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Quyida ushbu ijobiy tomonlar ilmiy asoslar bilan yoritiladi.

qarorga nisbatan qarshilik kamayadi, ijro tezlashadi. Aynan shu sababli o‘qituvchi ishtirokida qabul qilingan o‘quv-metodik qaror sinf xonasida eng yaxshi natija beradi.

3. Legitimlik va o‘zaro ishonchning mustahkamlanishi. Manfaatdor tomonlar ishtiroki qarorga jamoatchilik oldida qonuniy maqom va ishonch baxsh etadi. Shaffof va ishtirokchilikka

asoslangan boshqaruv pedagoglarda jamoaviy mas'uliyat va korporativ sadoqatni shakllantiradi, demokratik va partisipativ boshqaruv esa ularni maktab hayotiga daxldor etadi [11].

4. Pedagoglarning kasbiy rivojlanishi. Qaror jarayonidagi muhokama, asoslash va mulo-haza o'qituvchining tahliliy va kasbiy fikrlash qobiliyatini o'stiradi. Shu ma'noda partisipativ boshqaruv bir vaqtning o'zida pedagogik jamoani rivojlantiruvchi kasbiy maktab vazifasini ham bajaradi.

5. O'quvchilarda fuqarolik ongining shakllanishi. O'quvchilarni maktab hayotiga oid qarorlarga jalb qilish ularda mas'uliyat, tashabbuskorlik va demokratik qadriyatlarni amaliy tarzda tarbiyalaydi. Maktab o'quvchi uchun fuqarolik tajribasini egallaydigan birinchi ijtimoiy maydonga aylanadi.

6. Ijtimoiy kapital va qo'shimcha resurslarning jalb etilishi. Ota-onalar, mahalla va jamoatchilikning ishtiroki maktabga moddiy, ma'naviy va ijtimoiy resurslar oqimini ta'minlaydi. Mustahkam ijtimoiy aloqalar maktab atrofida qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratadi va uning barqarorligini oshiradi.

7. Shaffoflik va korrupsiyaga qarshi muhitning kuchayishi. Kuzatuv kengashi va jamoatchilik nazorati maktab moliyaviy-xo'jalik faoliyatini ochiq holga keltiradi. Qaror qabul qilishdagi shaffoflik suiiste'mollik imkoniyatini cheklaydi va resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantiradi.

8. Innovatsiya va moslashuvchanlikning oshishi. Turli tomonlardan keladigan g'oyalar oqimi maktabni yangi yondashuvlarga ochiq qiladi, o'zgaruvchan sharoitga tez moslashish qobiliyatini kuchaytiradi. Ishtirokchilik madaniyatiga ega maktab tashqi o'zgarishlarga nisbatan chaqqonroq harakat qiladi.

9. Maktab obro'si va imidjining mustahkamlanishi. Ota-onalar va jamoatchilik bilan ochiq muloqotga asoslangan boshqaruv maktabning ijobiy qiyofasini shakllantiradi. Man-

faatdor tomonlar maktabni "o'ziniki" deb hisoblaganda, ular uning eng ishonchli targ'ibotchilariga aylanadi. Bu omillar yig'indisi partisipativ boshqaruvni nafaqat demokratik, balki strategik jihatdan ham foydali yondashuvga aylantiradi.

Ayni paytda partisipativ boshqaruvning ayrim cheklov va xavflarini ham qisqacha qayd etish lozim. Birinchidan, ko'p tomon ishtiroki qaror qabul qilishni sekinlashtirishi va qo'shimcha vaqt hamda tashkiliy resurs talab qilishi mumkin. Ikkinchidan, ayrim murakkab kasbiy-texnik masalalarda mutaxassis bo'lgan tomonlarning ortiqcha aralashuvi qaror sifatini pasaytirishi ehtimoli bor. Uchinchidan, tomonlar manfaatlari to'qnashganda nizolar kelib chiqishi mumkin. To'rtinchidan va eng xavfli ishtirok rasmiy bo'lib, real ta'sir ko'rsatmasa, u soxta ishtirokka aylanadi va ishonchsizlikni kuchaytiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu cheklovlarning barchasi to'g'ri tashkiliy mexanizmlar aniq reglament, ishtirok darajalarini belgilash va majburiy qaytma aloqa orqali bartaraf etilishi mumkin. Demak, ular partisipativlikdan voz kechish uchun emas, balki uni puxta loyihalash zarurati uchun asosdir.

Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, partisipativ boshqaruvning samaradorligi ishtirokning o'zigagina emas, balki uning to'g'ri darajada tashkil etilishiga bog'liq. Muallifning yondashuviga ko'ra, har bir manfaatdor tomon har bir boshqaruv sohasida bir xil emas, balki shu sohaga eng mos keladigan darajada ishtirok etishi lozim. Bu yondashuv ishtirokning subsidiarlik tamoyiliga asoslanadi: qaror unga oid eng aniq bilimga ega bo'lgan tomon darajasida qabul qilinishi yoki shu tomon ishtirokida shakllantirilishi kerak.

Ishtirok darajalarini belgilashda S.Arns-taynning "ishtirok zinapoyasi" konsepsiyasi metodologik asos qilib olindi. Maktab sharoitiga moslashtirilgan holda to'rtta asosiy ishtirok darajasi ajratiladi: xabardor qilish tomon qaror

haqida o'z vaqtida xabardor qilinadi; maslahatlashish tomonning fikri so'raladi va hisobga olinadi; hamkorlikda qaror tomon qarorni birgalikda ishlab chiqishda teng ishtirok etadi; vakolat berish tomonga muayyan masala bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish huquqi beriladi. Quyidagi jadval har bir manfaatdor tomon uchun aniq boshqaruv sohasi, tavsiya etilgan ishtirok darajasi va shu ishtirok natijasida maktabning qaysi qismi rivojlanishini tizimli ko'rsatadi.

ishtirok etsa, maktabning tarbiyaviy muhiti va oila-maktab hamkorligi sezilarli mustahkamlanadi. Xuddi shunday, o'qituvchilarga o'quv-metodik masalalarda "vakolat berish" darajasidagi erkinlik berilsa, o'qitish sifati va metodik salohiyat yuksaladi; o'quvchilar maktab muhiti va tadbirlar bo'yicha qarorda ishtirok etsa, ularning tashabbuskorligi va fuqarolik ongi o'sadi; kuzatuv kengashi moliya va strategiya bo'yicha faol bo'lsa, mak-

Manfaatdor tomon	Boshqaruv sohasi	Tavsiya etilgan ishtirok darajasi	Kutilayotgan rivojlanish natijasi
O'qituvchilar	O'quv-metodik masalalar, dars metodikasi	Vakolat berish	O'qitish sifati va metodik salohiyat yuksaladi
	Kadrlar rivojlanishi, malaka oshirish	Hamkorlikda qaror	Pedagogik jamoaning kasbiy kapitali o'sadi
O'quvchilar	Madaniy-sport tadbirlari, maktab muhiti	Hamkorlikda qaror	O'quvchilar tashabbuskorligi va fuqarolik ongi rivojlanadi
	Ichki tartib-qoidalar	Maslahatlashish	Intizom va xavfsiz o'quv muhiti mustahkamlanadi
Ota-onalar	Tarbiyaviy ishlar, ma'naviy-axloqiy muhit	Hamkorlikda qaror	Maktabning tarbiyaviy muhiti barqarorlashadi
	O'quvchi ehtiyojlari, individual yondashuv	Maslahatlashish	O'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim kuchayadi
Kuzatuv kengashi	Moliya-xo'jalik, byudjet nazorati	Hamkorlikda qaror nazorat	Moliyaviy shaffoflik va resurs samaradorligi oshadi
	Strategik rivojlanish va missiya	Hamkorlikda qaror	Maktab strategiyasi asosli va barqaror bo'ladi
Mahalla va jamoatchilik	Ijtimoiy himoya, og'ir vaziyatdagi oilalar	Hamkorlikda qaror	O'quvchilarning ijtimoiy himoyasi kuchayadi
	Moddiy resurs va ma'naviy muhit	Maslahat va hamkorlik	Maktab ijtimoiy kapitali va moddiy bazasi mustahkamlanadi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, har bir manfaatdor tomonni o'zi eng kuchli bilimga ega bo'lgan sohada yuqoriroq darajada ishtirok ettirish maktabning aynan shu yo'nalishdagi rivojlanishini ta'minlaydi. Masalan, ota-onalar tarbiyaviy ishlar va ma'naviy-axloqiy muhit masalalarida "hamkorlikda qaror" darajasida

tabning shaffofligi va strategik barqarorligi ta'minlanadi.

Ushbu yondashuvni amalga oshirish uchun bir qancha tashkiliy mexanizmlarni tavsiya etish mumkin. Birinchidan, har bir boshqaruv sohasi bo'yicha qaysi tomon qaysi darajada ishtirok etishini belgilovchi aniq reglament

(matritsa) ishlab chiqilishi lozim. Ikkinchidan, manfaatdor tomonlarning fikri qarorga qanday ta'sir ko'rsatgani ularga albatta qaytarib bildirilishi ya'ni majburiy qaytma aloqa joriy etilishi kerak. Uchinchidan, ishtirok uchun muntazam va tartiblangan maydonlar (pedagogik kengash, ota-onalar kengashi, o'quvchilar o'zini-o'zi boshqarish organi, kuzatuv kengashi majlislari) faollashtirilishi zarur. To'rtinchidan, manfaatdor tomonlarning ishtirok ko'nikmalarini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy ishlar tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Bu mexanizmlar O'zbekistondagi kuchli mahalla an'analari bilan uyg'unlashtirilganda, milliy sharoitga mos, samarali partisipativ boshqaruv tizimini shakllantirish imkonini beradi.

Har bir manfaatdor tomon qaror jarayoniga almashtirib bo'lmaydigan noyob bilim bilan

hissa qo'shadi: o'qituvchi pedagogik tajribani, o'quvchi bevosita o'quv tajribasini, ota-ona oiladagi bilimni, kuzatuv kengashi mustaqil tashqi nuqtai nazarni, mahalla ijtimoiy kutilma va resursni keltiradi. Maktab direktori esa bu bilimlarni birlashtiruvchi muvofiqlashtiruvchi subyektdir. Manfaatdor tomonlarning ishtiroki barcha jarayonlarda bir xil emas; har biri o'zi eng ko'p qiymat qo'sha oladigan bosqichda eng faol bo'lishi maqsadga muvofiq. Bu "hamma narsada hammani ishtirok ettirish" xatosining oldini oladi.

Manfaatdor tomonlar ishtiroki qaror sifati, ijro samaradorligi, legitimlik, kasbiy rivojlantirish, fuqarolik ongi, ijtimoiy kapital va shaffoflik kabi ko'plab ijobiy natijalarni beradi; uning cheklovlari esa to'g'ri tashkiliy mexanizmlar orqali bartaraf etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2019-yilda ro'yxatga olingan MYu-3118-son "Umumiy o'rta ta'lim muassasasi kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizom".
3. Arnstein S.R. A Ladder of Citizen Participation // Journal of the American Institute of Planners. – 1969. – Vol. 35, № 4. – P. 216–224.
4. Freeman R.E. Strategic Management: A Stakeholder Approach. – Boston: Pitman, 1984. – 276 p.
5. Hargreaves A., Fullan M. Professional Capital: Transforming Teaching in Every School. – New York: Teachers College Press, 2012. – 240 p.
6. Hoy W.K., Miskel C.G. Educational Administration: Theory, Research, and Practice. – 9th ed. – New York: McGraw-Hill, 2013. – 580 p.
7. Mavlonova R.A. Maktab menejmentining asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – 168 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
9. Po'latov Sh. Ta'limda menejment yoxud ta'lim muassasasini ilmiy-metodik boshqarish strategiyasi. – Toshkent: Yosh kuch, 2019. – 256 b.
10. Ortiqov N.O., Jo'rayev A.J. Maktab, oila va jamoatchilik hamkorligi kengashi. – Toshkent, 2024.
11. Yusupova G.N. Umumiy o'rta ta'lim boshqaruvini rivojlantirishda ayol direktorlar faoliyati va tajribasi: magistrlik dissertatsiyasi. – Termiz, 2024. – B. 50–52.

UMUMTA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA XORIJIY VA MILLIY TAJRIBA

*Sharipov Ilyosbek Ilxomovich,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya: Maqolada umumta'lim muassasalari rahbarlarining kasbiy kompetentligini shakllantirish masalalari xorijiy va milliy ilmiy-pedagogik tajriba qiyosida tahlil qilingan. Kasbiy kompetentlik kalit, tayanch va maxsus kompetensiyalarning o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi integrativ tizimi sifatida asoslangan. Tadqiqotda DeSeCo (OECD) loyihasi, Boloniya jarayoni hujjatlari, Buyuk Britaniyada ishlab chiqilgan menejerlar kompetentligi standart, "soft skills" va emotsional intellekt konsepsiyalari hamda milliy tadqiqotchilarning yondashuvlari o'rganildi.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentlik, rahbar kadrlar, kalit kompetensiyalar, tayanch kompetensiyalar, maxsus kompetensiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, "soft skills", emotsional intellekt, ijtimoiy kapital, pedagogik boshqaruv, uzluksiz kasbiy rivojlanish.

**Отечественный и зарубежный опыт
формирования профессиональной
компетентности руководителей
общеобразовательных учреждений**

Шарипов Ильёсбек Ильхомович,
*Независимый исследователь Национального
института педагогических навыков
имени А.Авлони*

Аннотация: В статье в сравнении зарубежного и национального научно-педагогического опыта анализируются вопросы форми-

рования профессиональной компетентности руководителей образовательных учреждений. Профессиональная компетентность обоснована как интегративная система взаимосвязанных и взаимодополняющих ключевых, базовых и специальных компетенций. В исследовании рассмотрены проект DeSeCo (OECD), документы Болонского процесса, разработанный в Великобритании стандарт компетентности менеджеров, концепции "soft skills" и эмоционального интеллекта, а также подходы национальных исследователей.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, руководящие кадры, ключевые компетенции, базовые компетенции, специальные компетенции, компетентностный подход, "soft skills", эмоциональный интеллект, социальный капитал, педагогическое управление, непрерывное профессиональное развитие.

**International and national experience in
developing the professional competence
of general education school leaders**

Sharipov Ilyosbek Ilhomovich,
*Independent researcher at the A.Avloni National
Institute of Pedagogical Skills*

Abstract: The article analyzes the formation of professional competence of education institution leaders through a comparison of foreign and national pedagogical experience. Professional

competence is substantiated as an integrative system of interrelated and complementary key, basic and special competencies. The study examines the DeSeCo (OECD) project, Bologna process documents, the British management competence standard, the concepts of "soft skills" and emotional intelligence, as well as the approaches of national researchers. Using the experience of the A.Avloni National Institute of Pedagogical Excellence, the mechanisms of

continuous professional development of managerial staff are considered.

Keywords: professional competence, managerial staff, key competencies, basic competencies, special competencies, competence-based approach, soft skills, emotional intelligence, social capital, pedagogical management, continuous professional development.

Zamonaviy ta'lim tizimining rivojlantirish nishi ko'p jihatdan ta'lim muassasalari rahbarlarining kasbiy salohiyati va boshqaruv qobiliyatlari bilan belgilanadi. Globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal taraqqiyoti hamda mehnat bozoridagi raqobatning kuchayishi ta'lim sohasi rahbarlari oldiga mutlaqo yangi talablarni qo'yimoqda. Bugungi kunda rahbar nafaqat ma'muriy jarayonlarni tashkil etuvchi shaxs, balki ta'lim xizmatlari boshqaruvchisi, jamoaning rivojlanishini ta'minlovchi yetakchi va innovatsion o'zgarishlarning tashabbuskori sifatida namoyon bo'lishi lozim. Ayni shu sababdan rahbar kompetentligi konsepsiyasini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash hamda uni amaliy faoliyat bilan bog'lash zamonaviy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biriga aylanmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, jumladan, pedagog va rahbar kadrlarning kasbiy rivojlanishini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da inson kapitalini rivojlantirish va ta'lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur vazifalarni samarali hal etishda ta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetentligini tizimli ravishda rivojlantirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, kasbiy kompetentlik masalasi xorijiy va milliy tadqiqotchilar tomonidan keng yoritilgan. Xalqaro miqyosda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan amalga oshirilgan DeSeCo loyihasi kalit kompetensiyalar tizimini nazariy asoslashga muhim hissa qo'shdi [7]. V.D.Shadrikov pedagogik faoliyatning tayanch kompetensiyalari mazmuni va baholash mezonlarini ishlab chiqdi [8]. D.Goleman emotsional intellekt nazariyasini ilgari surib, uning kasbiy muvaffaqiyatdagi rolini asoslab berdi [3], R.Putnam esa ijtimoiy kapitalni baholash modelini taklif etdi [6]. Milliy tadqiqotchilardan G'.Otamurodov [5], A.Nosirov [4], A.Suyarova va A.Erjanovlar [10] ta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetentligini chuqur tahlil qildilar. O.I.Storozheva maxsus (boshqaruv) kompetensiyalarini malaka oshirish jarayonida rivojlantirish modelini asoslab berdi [9]. Shu bilan birga, kalit, tayanch va maxsus kompetensiyalarni yagona integrativ tizim sifatida tahlil qilish hamda milliy va xorijiy tajribani qiyosiy umumlashtirish masalasi yetarlicha yoritilmagan, bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Maqolaning maqsadi ta'lim muassasalari rahbarlarining kasbiy kompetentligini shakllantirishga oid xorijiy va milliy tajribani qiyosiy tahlil qilish, kompetentlik tizimining ichki tuzilmasi, funksional vazifalari va mazmuniy

xususiyatlarini aniqlash hamda uni rivojlantirishning amaliy mexanizmlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqot kompetensiyaviy yondashuv hamda tizimli-strukturaviy tahlil tamoyillariga asoslanadi. Mazkur yondashuv kasbiy kompetentlikni alohida elementlar yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro bog'langan va bir-birini to'ldiruvchi tarkibiy qismlardan iborat integrativ tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi nazariy metodlardan foydalanildi:

- ilmiy-pedagogik, psixologik va boshqaruvga oid manbalarni nazariy tahlil qilish va umumlashtirish;

- xorijiy va milliy tajribani qiyosiy tahlil qilish (komparativ metod) – xalqaro tashkilotlar hujjatlari, professional standartlar va milliy tadqiqotlarni solishtirish orqali;

- kompetentlik tushunchasi va uning tarkibiy komponentlarini tizimli-strukturaviy tahlil qilish;

- normativ-huquqiy hujjatlar va institutsional amaliyotni tahlil qilish (kontent-tahlil) hamda olingan natijalarni nazariy modellashtirish.

Tadqiqotning empirik asosini OECD ning DeSeCo loyihasi materiallari, Boloniya jarayoni hujjatlari, Buyuk Britaniyaning menejerlar kompetentligiga oid professional standarti, shuningdek, milliy darajada A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida rahbar kadrlarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha shakllangan amaliyot tashkil etadi [1; 2]. Tahlil natijalari kasbiy kompetentlikning umumiydan xususiyga qarab bosqichma-bosqich shakllanishini nazariy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

Kasbiy kompetentlik: milliy ilmiy tadqiqotlar tahlili.

Milliy ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalari rahbarlarining kasbiy kompetentligi masalasi izchil o'rganib kelinmoqda va u pedagogik hamda boshqaruv

faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etilmoqda. Oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish masalalari bilan shug'ullangan tadqiqotchi G'. Otamurodov rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligi ijtimoiy-huquqiy, innovatsion, boshqaruvda AKTdan foydalanish, kommunikativ, qarorlar qabul qilish va menejment kabi kompetensiyalardan tarkib topishi muhimligini ta'kidlaydi [5].

Tadqiqotchi A.Nosirov rahbar kompetentligini faoliyat mazmuni va murakkablik darajasiga ko'ra turlarga ajratadi. Uning ta'kidlashicha, standart kompetensiya kundalik va odatiy vazifalarni bajara olishni anglatadi, asosiy kompetensiya innovatsion vazifalarni belgilash qobiliyati bilan ifodalanadi; yetarli kompetensiya esa rahbarning yangi faoliyat yo'nalishlarini yarata olish salohiyatini ko'rsatadi [4]. Shu bilan birga, muallif kasbiy kompetensiyani pedagogik va psixologik bilimlarga egalik, o'z ustida ishlash hamda motivatsiyani shakllantirish qobiliyati bilan bog'laydi. Mazkur yondashuv rahbar kompetentligining boshqaruv va pedagogik jihatlari o'zaro uyg'un holda namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Tadqiqotchilar A.Suyarova hamda A.Erjanovlar maktab rahbarining boshqaruv kompetentligini rahbarning real holatlarda vujudga keladigan tipik kasbiy muammolarni hal etishi, kasbiy-boshqaruv faoliyatining ustunligi va masalalarni obyektiv tarzda zudlik bilan hal etishi, yuksak salohiyati, rahbar sifatidagi namunaviyligi hamda yuqori darajadagi kasbiy intellekti orqali maqsadga erishish darajasi sifatida talqin qiladilar. Mualliflar kompetentlik ta'lim muassasasi rahbarining ma'naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyatini, ya'ni uning kasbiy imkoniyatlarini ifodalashini qayd etadilar [10].

Mazkur milliy ilmiy tadqiqotlar tahlilidan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, ta'lim muassasalari rahbarlarining kompetentligi

ko'pqirrali va integrativ xarakterga ega bo'lib, u ijtimoiy-huquqiy, innovatsion, kommunikativ, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, qaror qabul qilish hamda menejment sohalaridagi bilim va ko'nikmalarning uyg'unligida namoyon bo'ladi. Shuningdek, rahbar kompetentligi faqat mavjud vazifalarni bajarish bilan cheklanmasdan, innovatsion yondashuvlarni shakllantirish va yangi faoliyat yo'nalishlarini yarata olish qobiliyatini ham qamrab oladi. Demak, rahbar kompetentligi konsepsiyasini ishlab chiqishda milliy tajribaga tayanish, uning tarkibiy komponentlarini tizimli asoslash va amaliy faoliyat bilan bog'lash ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Kalit kompetensiyalar va kompetensiyaviy yondashuvning xalqaro tajribasi.

Ta'lim amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, kompetensiyaviy yondashuvning rivojlanishi, avvalo, kalit kompetensiyalarni shakllantirishga bo'lgan e'tiborning ortishi bilan bog'liq. Aynan ushbu kompetensiyalar shaxsning universal faoliyat yuritish qobiliyatini ta'minlaydi va uni turli kasbiy vaziyatlarda moslashuvchan subyekt sifatida namoyon etadi. XX asrning so'nggi choragidan boshlab "kalit kompetensiyalar" tushunchasi ta'lim muammolariga bag'ishlangan xalqaro tashkilotlar hujjatlarida keng qo'llanila boshladi. Xususan, 1996-yilda o'tkazilgan Yevropa Kengashi simpoziumida o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilari egallashi zarur bo'lgan kalit kompetensiyalarni belgilash ustuvor vazifa sifatida e'tirof etilgan.

Bu boradagi eng nufuzli tadqiqotlardan biri Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan amalga oshirilgan "Kompetensiyalarni aniqlash va tanlash: nazariy va konseptual asoslar" loyihasidir. 1997-yilda boshlangan ushbu loyihada kompetensiya tushunchasi shaxsning shunchaki bilim va ko'nikmalar yig'indisi emas, balki muayyan kontekstda murakkab talablarga psixologik-ijtimoiy resurslarni safarbar etgan holda javob

bera olish qobiliyati sifatida talqin qilingan [7]. Loyiha doirasida kalit kompetensiyalar uchta keng toifaga ajratilgan: vositalardan interaktiv foydalanish, ijtimoiy jihatdan turlicha guruhlarda samarali o'zaro munosabatda bo'lish hamda mustaqil va mas'uliyatli harakat qilish.

DeSeCo dasturining asosiy maqsadi ilmiy asoslangan kalit kompetensiyalar tizimini shakllantirishdan iborat bo'lib, tadqiqot doirasida funksional savodxonlik, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalar, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish qobiliyati, axborot bilan ishlash ko'nikmalari, ona tili va xorijiy tillarni egallash, miqdoriy fikrlash hamda uzluksiz ta'lim olishga tayyorlik kabi jihatlar bo'yicha umumiy kelishuvga erishilgan. Tadqiqot natijalarida kompetensiyalarni baholash mexanizmlarini ishlab chiqishda O'quvchilarni xalqaro baholash dasturi (PISA) hamda kattalarning hayotiy ko'nikmalari va savodxonligini baholashga qaratilgan tadqiqotlar (ALL) muhim empirik asos sifatida xizmat qilishi qayd etilgan [7].

Tayanch kompetensiyalar va kasbiy standartlar.

Kasbiy standartlarni ishlab chiqish jarayonida V.D.Shadrikov tomonidan tayanch kompetensiyalar mazmuniga kengaytirilgan yondashuv taklif etilgan bo'lib, u nafaqat ularning tarkibiy tuzilmasini, balki baholash mezonlarini ham aniq belgilab beradi. Muallif ushbu kompetensiyalarni pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillar sifatida talqin qiladi [8]. Shadrikovning yondashuviga ko'ra, pedagogik faoliyatning tayanch kompetensiyalari quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi: pedagogning shaxsiy sifatlari, ya'ni uning kasbiy-axloqiy pozitsiyasi, mas'uliyat darajasi va kommunikativ xususiyatlari; pedagogik faoliyatning maqsad va vazifalarini aniq va maqsadga muvofiq belgilay olish qobiliyati; o'quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb etish va ularning o'quv faoliyatini samarali rag'batlan-

tira olish ko'nikmalari; axborot bilan ishlash va uni ta'lim jarayonida samarali qo'llashni nazarda tutuvchi axborot kompetentligi; pedagogik jarayonni rejalashtirish va asoslangan pedagogik qarorlar qabul qilish qobiliyati; hamda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishga doir tashkiliy-metodik kompetensiyalar.

Menejment sohasida ham kasbiy standartlarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-amaliy ishlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, Buyuk Britaniyada ishlab chiqilgan menejerlar kompetentligiga oid professional standart rahbarlar faoliyatining asosiy yo'nalishlarini tizimli ravishda belgilab beradi. Mazkur standart doirasida boshqaruv faoliyati to'qqizta ustuvor sohaga ajratilgan bo'lib, ular xizmat yoki ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, o'zgarishlarni boshqarish, resurslardan oqilona foydalanish, kadrlar siyosatini yuritish, jamoani rivojlantirish, faoliyatni rejalashtirish va baholash, samarali kommunikatsiyani shakllantirish, axborot bilan ishlash hamda qaror qabul qilish jarayonida axborot almashinuvini tashkil etish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Ushbu standart rahbarlik faoliyatini kompleks va tizimli tarzda ifodalash imkonini berib, menejerlarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va baholashda muhim nazariy-metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

Onglik va ongsiz kompetentlik modeli.

Rahbar shaxsining kasbiy rivojlanish dinamikasini tizimli tahlil qilishda onglik (conscious) va ongsiz (unconscious) kompetentlik tushunchalariga asoslangan model alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, menejer kompetentligi bir necha bosqich orqali shakllanadi va har bir bosqich muayyan psixologik hamda kasbiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Birinchi bosqich – rivojlanayotgan menejer (onglik nokompetentlik) – bunda rahbar o'zining bilim va ko'nikmalari yetarli emasli-

gini anglaydi, kasbiy o'sish ehtiyojini his etadi hamda rivojlanish yo'nalishlarini belgilay boshlaydi.

Ikkinchi bosqich – nokompetent menejer (ongsiz nokompetentlik) – o'z imkoniyatlari va cheklovlarini anglamaydigan, boshqaruv usullari xilma-xilligidan bexabar holatni ifodalaydi; bunday rahbarlar an'anaviy va tasodifiy yondashuvlarga tayanadi, jamoa bilan ishlashda subyektivlik ustuvor bo'ladi.

Uchinchi bosqich – dono menejer (ongsiz kompetentlik) – bunda rahbar amaliy tajriba asosida samarali qarorlar qabul qiladi, murakkab vaziyatlarda to'g'ri yo'lni ko'pincha intuitiv tarzda tanlaydi, biroq qabul qilingan qarorlarni har doim ham nazariy jihatdan izohlab bera olmasligi mumkin.

To'rtinchi va eng yuqori bosqich – kompetent menejer (onglik kompetentlik) – bunda rahbar chuqur bilim, boy amaliy tajriba va tahliliy fikrlash asosida hatto eng murakkab vaziyatlarda ham samarali va asoslangan qarorlar qabul qila oladi, o'z faoliyatini onglik ravishda boshqaradi.

Mazkur model rahbar kompetentligining bosqichma-bosqich rivojlanishini ochib berish orqali, uni baholash va rivojlantirishda muhim nazariy asos sifatida xizmat qiladi. Yevropa ta'lim maktabida kompetensiyaviy yondashuv asosan instrumental xarakterga ega bo'lib, u kompetentlikni amaliy faoliyat orqali namoyon bo'ladigan ko'nikmalar tizimi sifatida baholashni nazarda tutadi.

“Soft skills” va ijtimoiy kapital.

Yuqorida qayd etilgan ko'nikmalarning funksional xususiyatlari va mazmunini tahlil qilishda Boloniya jarayoni materiallari muhim manba hisoblanadi. Mazkur hujjatlarda ular “soft skills” (yumshoq ko'nikmalar) atamasi orqali ifodalanib, shaxsning o'zgaruvchan mehnat bozori sharoitiga moslashish, ijtimoiy munosabatlarda samarali ishtirok etish va kasbiy faoliyatda yuqori mobillikni ta'minlash

qobiliyati bilan bog'lanadi. "Soft skills" deyarli barcha Yevropa ta'lim modellarida universal kompetensiyalar sifatida e'tirof etiladi. Zamonaviy ilmiy yondashuvlarga ko'ra, yumshoq ko'nikmalar ishlab chiqarish va boshqaruv samaradorligiga ayrim hollarda tor ixtisoslashgan professional kompetensiyalarga nisbatan ham kuchliroq ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu bilan birga, "soft skills"ni aniq baholash murakkab metodologik muammo hisoblanadi, chunki bunday baholash ko'p jihatdan ijtimoiy kapital darajasini aniqlash bilan bog'liq. Ijtimoiy kapitalni baholashda eng keng qo'llaniladigan indikatorlar sifatida shaxslararo ishonch darajasi, o'zaro hamkorlikning rivojlanganlik holati hamda individlarning ijtimoiy va guruh faoliyatida ishtirok etish darajasi ko'rsatiladi. Mazkur yondashuvni chuqur tahlil qilgan olimlardan biri R.Putnam bo'lib, u AQSH shtatlari misolida ijtimoiy kapitalning hududiy farqlarini o'rganishda uzoq muddatli panel va kesim ma'lumotlarining keng qamrovli bazasidan foydalangan [6].

Putnam tomonidan taklif etilgan ijtimoiy kapitalni baholash modeli, odatda, bir necha o'zaro bog'liq komponentni qamrab olgan integral ko'rsatkichga asoslanadi: ko'ngillilik va xayriya faolligi darajasi, jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari hayotida ishtirok etish faolligi, jamoatchilik jarayonlarida (masalan, saylovlarda) qatnashish darajasi, shaxslararo ishonch ko'rsatkichlari hamda norasmiy ijtimoiy aloqalar [6]. Mazkur yondashuv "soft skills"ni baholashda ijtimoiy omillarning ustuvorligini asoslab beradi hamda rahbar va mutaxassislar kompetentligini aniqlashda an'anaviy kasbiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda ijtimoiy-munosabatga doir ko'nikmalarni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Emotsional kompetensiyalar va emotsional intellekt.

Zamonaviy mehnat bozorida emotsional va ijtimoiy kompetensiyalarga bo'lgan talab

izchil ortib bormoqda. Bu esa mutaxassis va rahbar kadrlardan nafaqat professional bilim va ko'nikmalarni, balki insonlararo munosabatlarni samarali yo'lga qo'yish, jamoada ishlash va o'zini boshqarish qobiliyatlarini ham talab etadi. Ish beruvchilar tomonidan nomzodlarni baholashda emotsional intellektga tobora katta ahamiyat berilmoqda. D.Goleman o'zining mashhur tadqiqotlarida emotsional intellekt kasbiy muvaffaqiyatga ta'sir ko'rsatish darajasi jihatidan an'anaviy intellekt koeffitsiyentidan (IQ) ham ustun bo'lishi mumkinligini asoslab berdi [3].

Ko'plab ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, kasbiy muvaffaqiyatga ta'sir etuvchi omillar ichida intellektual salohiyatning ulushi nisbatan cheklangan bo'lib, u o'rtacha 25–30 foizni tashkil etadi, rahbar kadrlar uchun esa bu ko'rsatkich ayrim hollarda yanada past bo'lishi mumkin. Mazkur holat muvaffaqiyatga erishishda shaxsning ichki qadriyatlari, ijtimoiy va emotsional xususiyatlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Emotsional kompetensiyalar deganda shaxsning o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish va ijtimoiy munosabatlarda samarali qo'llay olish qobiliyatlari tushuniladi. Ushbu kompetensiyalar tarkibiga boshqalarga nisbatan empatiyani namoyon etish, o'z emotsional holatini anglash va nazorat qilish, shuningdek, faoliyatga nisbatan ichki motivatsiyani shakllantirish kabi muhim jihatlar kiradi [3].

Emotsional kompetensiyalarni maqsadli ravishda rivojlantirish bir qator ijobiy natijalarga olib keladi: shaxsning o'z-o'zini baholash darajasi oshadi, u o'zini ijtimoiy va kasbiy muhitda to'g'ri pozitsiyalay oladi, empatiya qobiliyati mustahkamlanadi, baxs va muzokaralarda samarali ishtirok etish hamda hamkasblar va mijozlarni rag'batlantirish va ishontirish qobiliyati rivojlanadi. Umuman olganda, jamiyatning mahsulotga yo'naltirilgan modeldan mijozga yo'naltirilgan hamda axborotga asos-

langan modelga bosqichma-bosqich o'tishi natijasida emotsional kompetensiyalarga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada ortmoqda.

Maxsus kompetensiyalar.

Maxsus kompetensiyalar muayyan fanlararo yoki predmet doirasidagi kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Ular rahbarning egallagan bilim va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llash, turli boshqaruv vaziyatlarida belgilangan me'yor va talablarga rioya qilgan holda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Ta'lim tashkiloti rahbarining maxsus kompetensiyalariga muassasa faoliyatiga xos muammolarni samarali hal etish; ta'lim jarayoni ishtirokchilariga ularning qadriyat yo'nalishlari va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'sir ko'rsata olish; zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini chuqur o'zlashtirish; innovatsion o'zgarishlar sharoitida jamoani samarali boshqarish hamda jamoaviy ishni tashkil etish va uni izchil rivojlantirish kabi qobiliyatlarni kiritish mumkin.

O.I.Storozheva ta'kidlaganidek, maxsus kompetensiyalar oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonida to'liq shakllanib ulgurmaydi, biroq ularni izchil rivojlantirish obyektiv zarurat hisoblanadi. Muallif fikriga ko'ra, rahbarlarda yetarli darajada shakllanmagan boshqaruv (maxsus) kompetensiyalarini takomillashtirishning eng samarali mexanizmi sifatida malaka oshirish tizimi namoyon bo'ladi. Storozheva tomonidan olib borilgan tadqiqotda ta'lim tashkilotlari rahbarlarining boshqaruv kompetensiyalarini malaka oshirish jarayonida rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-metodik model ishlab chiqilgan, amaliyotda sinovdan o'tkazilgan hamda mazkur kompetensiyalarni baholash uchun aniq mezonlar, darajalar va ko'rsatkichlar tizimi taklif etilgan [9]. Bu esa rahbar kadrlarning kasbiy salohiyatini tizimli ravishda rivojlantirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, maxsus kompetensiyalar kalit va tayanch kompetensiyalarning amaliy

ifodasi sifatida namoyon bo'lib, ularni muayyan kasbiy faoliyat sharoiti va talablariga mos ravishda tatbiq etishni ta'minlaydi. Boshqacha aytganda, aynan maxsus kompetensiyalar orqali umumiy va tayanch kompetensiyalar konkret boshqaruv vaziyatlarida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit, tayanch va maxsus kompetensiyalarning yaxlit tizimi.

Kasbiy kompetentlikni uchta asosiy komponent – kalit, tayanch va maxsus kompetensiyalar majmuasi sifatida talqin etish ushbu tizimning ichki tuzilmasi, funksional vazifalari va mazmuniy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Kalit kompetensiyalar kasbidan qat'i nazar har bir shaxs egallashi zarur bo'lgan universal qobiliyatlar majmuasini ifodalaydi va, odatda, umumiy o'rta ta'lim bosqichida shakllantiriladi. Tayanch kompetensiyalar muayyan kasbiy faoliyat mazmuni va uning asosiy vazifalari haqidagi zamonaviy tasavvurni aks ettiradi hamda asosan oliy kasbiy ta'lim tizimida rivojlantiriladi. Maxsus kompetensiyalar esa rahbarning muayyan amaliyot vaziyatlarida egallangan bilim va ko'nikmalar asosida boshqaruv vazifalarini mustaqil va samarali hal qila olish qobiliyatini ifodalaydi.

Mazkur uch komponent o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ular bir-birini to'ldiruvchi va rivojlantiruvchi tizimni tashkil etadi. Ushbu komponentlarning har biri qay darajada shakllangani boshqalarining rivojlanish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Natijada, mazkur kompetensiyalar majmuasi rahbar yoki mutaxassisning nafaqat kasbiy faoliyatdagi, balki umumiy hayotiy muvaffaqiyatini belgilab beruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Milliy amaliyot: rahbar kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish.

Nazariy yondashuvlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash nuqtai nazaridan A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tajribasi alohida ahamiyatga ega. Institut

O'zbekistonda maktabgacha va maktab ta'limi tizimi pedagog va rahbar kadrlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashning bosh ilmiy-metodik markazi sifatida faoliyat yuritadi. E.M.Alkarovning tadqiqotlarida maktab direktori kasbiy kompetentligining mazmuni, tuzilmasi va komponentlari integrativ yondashuv asosida asoslab berilgan hamda rahbar kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini yangi bosqichga olib chiqish mexanizmi ishlab chiqilgan [2].

Muallifning ta'kidlashicha, amaldagi menejerlik kurslarini qisqa muddatli tayyorgarlik shaklidan rahbarlik salohiyatini aniqlash, bosqichma-bosqich rivojlantirish, amaliyotga yo'naltirish va natijadorlik asosida baholashga xizmat qiluvchi yaxlit tizimga aylantirish zarurati yuzaga kelmoqda. Bu borada maktab direktorlari va direktor o'rinbosarlari uchun uch bosqichli menejerlik kurslarini joriy etish, rahbar kadrlarning kasbiy-karyera yo'lini belgilash, "tajribali rahbar – yangi rahbar" mentorlik modelini yo'lga qo'yish, situatsion o'quv xonalari va amaliy loyihalar asosida o'qitish hamda KPI ko'rsatkichlari orqali rahbarlar faoliyatini baholash va rag'batlantirish mexanizmlari taklif etilgan [2]. Mazkur yondashuv Singapur ta'lim tizimida qo'llanilayotgan "karyera yo'li" modeliga hamohang bo'lib, unda rahbarlikka tayyorgarlik bir martalik kurs emas, balki kasbiy faoliyat davomida izchil shakllanadigan jarayon sifatida qaraladi [2].

Bundan tashqari, ilg'or xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirib joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Janubiy Koreya Respublikasining pedagog va rahbar kadrlar malakasini oshirish hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi alohida diqqatga sazovor. Mazkur tajribada sun'iy intellekt va raqamli ta'lim, ta'lim liderligi va maktab boshqaruvi, o'qituvchilarning kasbiy rivojlantirishi, kelajak ko'nikmalari va STEAM ta'limi hamda barqaror rivojlanish yo'nalishlaridagi

ustuvor amaliyotlar o'rganilib, ikki mamlakat malaka oshirish tizimlarining institutsional, mazmuniy va texnologik jihatlari qiyosiy tahlil qilingan [1]. E.M.Alkarovning bunday qiyosiy-tipologik tahlili milliy malaka oshirish tizimini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish hamda rahbar kadrlar kompetentligini rivojlantirishning strategik modelini ishlab chiqishga xizmat qiladi [1].

Ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni tahlil qilish hamda ta'lim faoliyati subyektining kasbiy kompetentligi xususiyatlarini aniqlash quyidagi ilmiy-nazariy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Birinchidan, kasbiy kompetentlik real hayotda yuzaga keladigan kasbiy vazifa va muammolarni bilim, qobiliyat, qadriyatlar hamda hayotiy va kasbiy tajribaga tayangan holda samarali hal etishni ta'minlovchi integrativ xususiyat sifatida asoslandi. U bir vaqtning o'zida rivojlanuvchi va o'zaro bog'liq bo'lgan kalit, tayanch va maxsus kompetensiyalar majmuasi sifatida talqin etiladi.

Ikkinchidan, xalqaro va milliy tajribani qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim tashkiloti rahbari an'anaviy ma'mur emas, balki ta'lim xizmatlari boshqaruvchisi va "o'zgarishlar yetakchisi" sifatida faoliyat yuritishi zarur. Bu esa undan strategik fikrlash, innovatsion yondashuv va zamonaviy boshqaruv vositalarini samarali qo'llay olishni talab qiladi.

Uchinchidan, tahlillar ta'lim tizimida "kvalifikatsiya" tushunchasining bosqichma-bosqich "kompetentlik" tushunchasi bilan almashib borayotganini ko'rsatdi. Bu esa ta'lim natijalarini baholashda bilimdan ko'ra uni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatiga ustuvor ahamiyat berilayotganini anglatadi.

To'rtinchidan, umumta'lim tashkiloti rahbarining pedagogik boshqaruv kompetentligi rahbar kasbiy kompetentligining ajralmas, tayanch va integrativ xususiyati hisoblanadi. U kalit, tayanch va maxsus pedagogik bosh-

qaruv kompetensiyalarining o‘zaro bog‘liq majmuasini ifodalaydi hamda ularning shakllanganlik darajasi rahbarning boshqaruv faoliyatida pedagogik vazifalarni samarali hal qilish qobiliyatini belgilaydi. Tadqiqot doirasida rahbar faoliyatiga xos quyidagi xususiyatlar ajratib ko‘rsatildi:

- innovatsion faoliyatda yetakchilik qilish va innovatsion loyihalarni amalga oshirishda ijodiy, tadqiqotchilik hamda tahliliy-loyihaviy yondashuvni qo‘llash;

- ishtirokchilar bilan o‘zaro munosabatlarda muloqotga asoslangan (dialogik) yondashuvni ta‘minlash;

- innovatsion jarayonlarni boshqarishda markazlashuvni kamaytirish (desentralizatsiya);

- samarali qo‘shma ijodiy faoliyatni tashkil etish va loyihalash.

Beshinchidan, rahbar kompetentligini rivojlantirishning eng samarali mexanizmi uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi hisoblanadi. Milliy amaliyot, jumladan, A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tajribasi rahbar kadrlarni bosqichma-bosqich aniqlash, tayyorlash, amaliyotga yo‘naltirish va natijadorlik asosida baholashga qaratilgan tizimni shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi. Bunda ilg‘or xorijiy tajribani milliy sharoitga ijodiy moslashtirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, ta‘lim muassasalari rahbarlarining kasbiy kompetentligini shakllantirish kalit, tayanch va maxsus kompetensiyalarning uyg‘un rivojlanishini ta‘minlovchi, nazariy asoslangan hamda amaliy faoliyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan tizimli jarayon sifatida tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alkarov E.M. Janubiy Koreya – O‘zbekiston ta‘lim sohasida strategik hamkorlik va uzluksiz kasbiy rivojlantirish istiqbollari // Maktab ta‘limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar. – Toshkent, 2026. – №7. – B. 28–34.
2. Alkarov E.M. Maktab rahbar kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini yangi bosqichga olib chiqish mexanizmi // Maktab ta‘limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar. – Toshkent, 2026. – Maxsus son. – B. 48–55.
3. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 1995. – 352 p.
4. Nosirov A. Rahbarning kasbiy kompetentligi, pedagogik mahorati va boshqaruv madaniyati // “Ta‘lim menejmenti” jurnali. – 2013. – №6. – B. 2.
5. Otamurodov G‘.R. Oliy ta‘lim muassasalari rahbar kadrlari boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning integrallashgan axborot-metodik tizimini takomillashtirish: ped. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz, 2020. – 51 b.
6. Putnam R.D. Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. – New York: Simon & Schuster, 2000. – 541 p.
7. Rychen D.S., Salganik L.H. (eds.). Key Competencies for a Successful Life and a Well-Functioning Society (DeSeCo, OECD). – Göttingen: Hogrefe & Huber Publishers, 2003. – 251 p.
8. Shadrikov V.D. Professionalnye sposobnosti. – Moskva: Universitetskaya kniga, 2010. – 320 s.
9. Storozheva O.I. Razvitie upravlencheskih kompetensiy rukovoditeley obshcheobrazovatelnyh uchrejdeniy v protsesse povysheniya kvalifikatsii: dis. ... kand. ped. nauk. – Yekaterinburg, 2011. – 220 s.
10. Suyarova A.M., Erjanova A.A. Maktab rahbarlarining kasbiy kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari xususida // “Mug‘allim ham uzliksiz bilimlendiriv”. – 2024. – №2. – B. 303–308.

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA MUSTAQIL TA'LIM SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN MODEL

Daminova Shoxista Kabulovna,

*A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti,
Rahbar kadrlarni malakasini oshirish kurslarini
metodik ta'minlash bo'limi bosh mutaxassisi
miss.shohista_77@mail.ru
<https://orcid.org/0009-0004-3717-1740>*

Annotatsiya: Mazkur maqolada mustaqil ta'lim samaradorligini baholashning an'anaviy yondashuvlardan farqli jihatlari tahlil qilingan hamda zamonaviy pedagogik menejment asosida kompleks metodik model taklif etilgan. Tadqiqotda kasbiy rivojlanishni baholashning kognitiv, kompetensiyaviy va institutsional darajalari asoslab berilgan. Kompetensiyaviy paradigma, reflektiv amaliyot nazariyasi, data-driven menejment va adaptiv liderlik konsepsiyalarining integratsiyasi asosida rahbarlarning kasbiy o'sishini aniqlash mexanizmlari ishlab chiqilgan. Kompetensiya asosidagi diagnostik-reyting modeli, portfolio va reflektiv evidensiya hamda ma'lumotlarga asoslangan indikatorlar tizimi orqali mustaqil ta'lim natijadorligini obyektiv baholash usullari yoritilgan. Maqolada maktab direktorlari kompetensiyalarining rivojlanishi real institutsional natijalar bilan bog'lanib, baholashning ilmiy, tizimli va amaliy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, samaradorlik, kompetensiyaviy paradigma, diagnostik-reyting, reflektiv amaliyot, portfolio, data-driven management, adaptiv liderlik, kasbiy rivojlanish, indikatorlar tizimi, ta'lim menejmenti, baholash modeli.

**Интегрированная модель оценки
эффективности самостоятельного обучения
на основе компетентностного подхода**

Даминова Шохиста Кабуловна,
главный специалист отдела методического
обеспечения курсов повышения квалификации
для управленческого персонала Национального
института педагогических навыков
имени А. Авлони

Аннотация: В данной статье проанализированы отличительные особенности оценки эффективности самостоятельного обучения по сравнению с традиционными подходами, а также предложена комплексная методическая модель на основе современных принципов педагогического менеджмента. В исследовании обоснованы когнитивный, компетентностный и институциональный уровни оценки профессионального развития. На основе интеграции компетентностной парадигмы, теории рефлексивной практики, data-driven менеджмента и концепции адаптивного лидерства разработаны механизмы определения профессионального роста руководителей. Раскрыты мето-

ды объективной оценки результативности самостоятельного обучения посредством диагностико-рейтинговой модели, основанной на компетенциях, портфолио, рефлексивных доказательствах и системе индикаторов, основанных на данных.

В статье развитие компетенций директоров школ соотнесено с реальными институциональными результатами, а также раскрыта научная, системная и практическая значимость оценки.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, эффективность, компетентностная парадигма, диагностико-рейтинговая модель, рефлексивная практика, портфолио, “data-driven management”, адаптивное лидерство, профессиональное развитие, система индикаторов, образовательный менеджмент, модель оценки.

An integrated competency-based model for assessing the effectiveness of independent learning

Shokhista Kabulovna Daminova,
Chief Specialist of the Department of
Methodological Support for Professional
Development Courses of Administrative Staff
at the National Institute of Pedagogical Skills
named after A. Avloni

Abstract: This article analyzes the distinctive features of assessing the effectiveness of independent learning in comparison with traditional approaches and proposes a comprehensive methodological model based on modern principles of pedagogical management. The study substantiates cognitive, competency-based, and institutional levels of professional development assessment. Based on the integration of the competency-based paradigm, reflective practice theory, data-driven management, and adaptive leadership concepts, mechanisms for identifying the professional growth of school leaders have been developed. The paper outlines methods for objectively assessing the effectiveness of independent learning through a competency-based diagnostic rating model, portfolios, reflective evidence, and a system of data-driven indicators.

The study also links the development of school principals' competencies with real institutional outcomes and highlights the scientific, systemic, and practical significance of the assessment process.

Keywords: independent learning, effectiveness, competency-based paradigm, diagnostic rating model, reflective practice, portfolio, data-driven management, adaptive leadership, professional development, indicator system, educational management, evaluation model.

Mustaqil ta'lim samaradorligini baholash masalasi an'anaviy malaka oshirish kurslari baholash tizimidan tubdan farq qiladi. An'anaviy modelda baholash ko'pincha o'quv soatlari, yakuniy test natijalari yoki sertifikat olish bilan chegaralanadi. Bunday yondashuv bilimni qay darajada amaliy natija-

ga aylanganini ko'rsatmaydi. Mustaqil ta'lim esa natijaviylikka, qarorlar sifati va institutsional o'zgarishlarga yo'naltirilgan ta'lim turi sifatida ahamiyatlidir. Zamonaviy pedagogik menejment va andragogika nazariyalariga ko'ra, kasbiy rivojlanish samaradorligi uch darajada baholanadi:

KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH DARAJALARI

Uch bosqichli yondashuv


01	KOGNITIV DARAJA (bilim va tushuncha) Nazariy bilim, tushuncha va ma'lumotlarni egallashga yo'naltirilgan bosqich.	Asosiy yo'nalishlar - Nazariy bilimlarni o'rganish - Tushunchalarni anglash - Axborotni eslab qolish - Tahlil qilish va izohlash	Natija (misol) Shaxs ma'lum bilimlarga ega bo'ladi, tushuncha va g'oyalarni anglaydi. Misol: Ta'lim nazariyasi va pedagogik nazariyalarni tushunadi.
02	KOMPETENSIYAVIY DARAJA (amalga tatbiq etish qobiliyati) Olingan bilim va tushunchalarni amaliyotda qo'llash, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish bosqichi.	Asosiy yo'nalishlar - Ko'nikmalarni shakllantirish - Amaliy mashqlar va treninglar - Muammolarni yechish - Qaror qabul qilish - Refleksiya va o'zini baholash	Natija (misol) Shaxs bilimlarni amaliyotda qo'llay oladi, muammolarni yechadi, malaka oshadi. Misol: Dars dasturi tahlil qilib va yondashuvlar bo'yicha reja tuzishni biladi.
03	INSTITUTSIONAL DARAJA (tashkiliy faoliyatga integratsiya) Yangi kompetensiyalarni tashkiliy amaliyotga joriy etish va tizimli rivojlantirishga erishish bosqichi.	Asosiy yo'nalishlar - Tashkiliy jarayonlarni takomillashtirish - Yangi amaliyot va siyosatlarini joriy etish - Innovativ yondashuvlarni qo'llash - Natijalarni monitoring qilish - Barqaror rivojlanishga erishish	Natija (misol) Tashkilda bilimlar integratsiyalanadi, samaradorlik va sifat oshadi. Misol: Maktabda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha yangi tizim joriy etiladi.

MAQSAD: Bilimdan boshlab, amaliy ko'nikma orqali tashkilotdagi barqaror o'zgarishlarga erishish.

Demak, mustaqil ta'lim samaradorligini kompleks baholash uchun o'zaro integratsiyalashgan metodik yondashuv ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim. Ushbu yondashuvlar kompetensiyaviy paradigma, reflektiv amaliyot nazariyasi, data-driven management va adaptiv liderlik konsepsiyalariga asoslanadi (1-rasm).

oluvchi faqat eslab qolmaydi, balki tahlil qiladi, muammoni hal qiladi va bilimni hayotda ishlata oladi.

Reflektiv amaliyot nazariyasi – bu inson o'z faoliyatini tahlil qilib, o'z tajribasi va harakatlari ustida fikr yuritish orqali o'z kasbiy faoliyatini takomillashtirib borishini tushuntiradigan pedagogik nazariyadir.



1-rasm. Mustaqil ta'lim samaradorligini kompleks baholashning integratsiyalashgan metodik yondashuvlari

Kompetensiyaviy paradigma – ta'lim jarayonini "bilim berish" modelidan "bilimni amalda qo'llash" modeliga o'tkazadigan pedagogik yondashuv hisoblanadi. Ya'ni: ta'lim

Data-driven menejment – bu boshqaruv qarorlarini ma'lumotlar (data), statistik tahlil va aniq dalillarga asoslanib qabul qilishga qaratilgan boshqaruv yondashuvidir.

Adaptiv liderlik konsepsiyasi – bu rahbarning o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashib, yangi muammolarni hal qilish uchun jamoani birgalikda o‘rganish, moslashish va yangicha yechimlar topishga yo‘naltiradigan liderlik yondashuvidir [5].

Ushbu usullar integratsiyalashgan holda qo‘llanilganda mustaqil ta‘lim samaradorligi individual va institutsional darajada obyektiv, tizimli va ilmiy asosda baholanadi, degan farazni ilgari suramiz. Mustaqil ta‘lim jarayoni samaradorligini baholashda eng muhim metodologik masala – kasbiy rivojlanishni qanday mezonlar asosida o‘lchash mumkinligi hisoblanadi. Kompetensiyaviy yondashuvga ko‘ra, kasbiy rivojlanish bilimlar hajmi bilan emas, balki amaliy faoliyatni samarali amalga oshirish qobiliyati bilan belgilanadi [3]. Rahbarlarning mustaqil ta‘lim jarayonidagi o‘shini baholash aniq indikatorlar va mezonlar tizimiga asoslanishi lozim. Taklif etilayotgan kompetensiyalar asosidagi diagnostik-reyting modeli ana shu metodologik zaruratdan kelib chiqadi. Uning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, rahbarning kasbiy kompetensiyalari tizimli ravishda o‘lchanadi, ularning rivojlanish dinamikasi miqdoriy ko‘rsatkichlar orqali ifodalalanadi va natijalar reyting shaklida umumlashtiriladi [2].

Kompetensiyaviy paradigma, andragogika nazariyasi hamda natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv konsepsiyasiga tayanadi. Kompetensiyaviy paradigma rahbar faoliyatini integrativ ko‘nikmalar tizimi sifatida ko‘radi. Andragogik yondashuv esa kattalar ta‘limida mustaqillik, tajribaga tayanish va refleksiya muhimligini ta‘kidlaydi. Natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv esa har qanday rivojlanish jarayonini aniq o‘lchov indikatorlari bilan baholashni talab etadi. Bunda rahbar faoliyati uchun ustuvor hisoblangan olti asosiy kompetensiya ajratiladi:

strategik boshqaruv [8];
analitik-prognoztik;

raqamli boshqaruv;
liderlik va kommunikativ;
reflektiv;
innovatsion kompetensiyalar.

Har bir kompetensiya bo‘yicha 5-7 ta aniq indikator ishlab chiqiladi. Indikatorlar amaliy faoliyat bilan bog‘langan, kuzatiladigan va o‘lchanadigan bo‘lishi shart.

Masalan, strategik kompetensiya quyidagi indikatorlar asosida baholanadi: maktabning o‘rta muddatli rivojlanish dasturi mavjudligi va sifat darajasi; rejalashtirish jarayonida aniq indikatorlardan foydalanish; risklarni tahlil qilish mexanizmining mavjudligi; ichki monitoring tizimining izchilligi; strategik qarorlarning natijadorligi. Analitik-prognoztik kompetensiya o‘quv natijalarini tahlil qilish darajasi, ma‘lumotlar asosida qaror qabul qilish, statistik hisobotlar aniqligi va prognozlash qobiliyati orqali aniqlanadi. Raqamli kompetensiya esa elektron boshqaruv platformalaridan foydalanish samaradorligi, ma‘lumotlarni vizualizatsiya qilish va onlayn monitoring tizimlarini qo‘llash darajasi bilan baholanadi. Liderlik kompetensiyasi jamoani motivatsiyalash, nizolarni konstruktiv hal etish va kommunikativ madaniyat darajasi orqali aniqlanadi. Reflektiv kompetensiya o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqish qobiliyatini ifodalaydi. Innovatsion kompetensiya esa yangi tashabbuslarni ishlab chiqish va joriy etish samaradorligi bilan belgilanadi [1; 8].

Baholash jarayoni 4 darajali shkala asosida amalga oshiriladi. Birinchi daraja – boshlang‘ich. Bu bosqichda kompetensiya elementlari mavjud, biroq ular tizimli va barqaror emas. Ikkinchi daraja – rivojlanayotgan. Rahbar ayrim indikatorlar bo‘yicha ijobiy natijalarga erishgan, lekin ularni tizimlashtirish zarur. Uchinchi daraja – barqaror. Kompetensiya izchil namoyon bo‘ladi va amaliy natijaga olib keladi. To‘rtinchi daraja – yuqori professional.

Bu bosqichda kompetensiya strategik va innovatsion darajada namoyon bo'ladigan hamda institutsional o'zgarishlarga olib keladi. Baholash algoritmi bosqichma-bosqich tashkil etiladi.

Diagnostic-reytingning ilmiy ahamiyati shundaki, u kasbiy rivojlanishni miqdoriy va tizimli tarzda o'lchash imkonini beradi. Kompetensiya o'sishi aniq indikatorlar orqali baholanadi, rivojlanish dinamikasi ko'rsatiladi va natijalar statistik asosda tahlil qilinadi. Bu esa baholash jarayonining obyektivligini ta'minlaydi. Amaliy jihatdan esa rahbarning mustaqil ta'lim jarayonini nazorat qilish, natijalarni aniq ko'rsatkichlar asosida baholash va keyingi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi. Kompetensiya asosidagi diagnostik-reyting mustaqil ta'limni formal jarayondan real natijador boshqaruv mexanizmiga aylantiradi. Kompetensiya asosidagi diagnostik-reyting mustaqil ta'lim samaradorligini baholashning ilmiy asoslangan, tizimli va o'lchanadigan mexanizmini taqdim etadi. U rahbar kompetensiyalarining rivojlanishini miqdoriy ko'rsatkichlar orqali ifodalaydi, subyektivlikni kamaytiradi va kasbiy o'sish dinamikasini aniq namoyon etadi. Shu tariqa, mazkur usul mustaqil ta'lim samaradorligini aniqlashda metodologik jihatdan ishonchli vosita sifatida xizmat qiladi. Mustaqil ta'lim jarayonining muhim xususiyati shundaki, u faqat yakuniy natijani emas, balki rivojlanish jarayonining o'zini ham qamrab oladi. An'anaviy baholash tizimlarida ko'pincha faqat yakuniy test natijalari yoki sertifikat mavjudligi inobatga olinadi [4; 5].

Mustaqil ta'limda kasbiy o'sish jarayonining dinamikasi, qarorlar qabul qilish mantig'i, refleksiya darajasi va amaliy faoliyat natijalari alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan portfolio va reflektiv evidensiya mustaqil ta'lim samaradorligini baholashning tizimli va chuqur metodik yondashuvi sifatida taklif etiladi hamda reflektiv pedagogika va konstruk-

tivistik yondashuvga asoslanadi. Reflektiv nazariyaga ko'ra, professional rivojlanish jarayoni shaxsning o'z tajribasini tahlil qilishi, xatolarni aniqlashi va yangi strategiyalar ishlab chiqishi orqali amalga oshadi. Portfolio esa ushbu jarayonni hujjatlashtiruvchi va tizimlashtiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. U rahbarning mustaqil ta'lim jarayonidagi barcha faoliyatini bir joyda jamlaydi va rivojlanish dinamikasini kuzatish imkonini beradi. Elektron portfolio mustaqil ta'lim jarayonining markaziy hujjati hisoblanadi. Unda individual rivojlanish rejasi, amalga oshirilgan loyihalar, monitoring hisobotlari, tahliliy materiallar va reflektiv yozuvlar muntazam ravishda jamlanadi. Individual rivojlanish rejasi rahbarning maqsadlari va ustuvor kompetensiyalarini aks ettiradi. Amalga oshirilgan loyihalar real boshqaruv faoliyatini natijasini ko'rsatadi. Monitoring hisobotlari esa rivojlanish jarayonining oraliq natijalarini hujjatlashtiradi. Tahliliy materiallar rahbarning analitik-prognozlik kompetensiyasini, reflektiv yozuvlar esa tanqidiy fikrlash darajasini namoyon etadi.

Portfolio baholash mezonlarini aniq va ilmiy asosda belgilashni talab qiladi. Loyihaviy ishlar amaliy natija asosida baholanadi. Bu yerda loyiha real muammoni hal etganmi, natija o'lchanadigan ko'rsatkichlarda namoyon bo'lganmi, degan savollar muhim ahamiyatga ega. Tahliliy materiallar ilmiy asoslanganlik mezonini asosida baholanadi, ya'ni rahbar qaror qabul qilishda statistik ma'lumotlardan, normativ hujjatlardan va ilmiy manbalardan foydalangan bo'lishi zarur. Reflektiv yozuvlar tanqidiy fikrlash darajasi bilan baholanadi. Bu jarayonda rahbar o'z faoliyatini chuqur tahlil qila olishi, xatolarni aniqlashi va takomillashtirish yo'llarini ko'rsatishi kerak. Innovatsiya esa yangilik darajasi bilan belgilanadi, ya'ni joriy etilgan g'oya an'anaviy yondashuvdan qanchalik farq qiladi va qanday qo'shimcha qiymat yaratadi [7].

Zamonaviy ta'lim boshqaruvida ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish ustuvor metodologik tamoyil sifatida qoraladi. Data-driven menejement konsepsiyasiga ko'ra, rahbarlik faoliyatining samaradorligi subyektiv fikr yoki umumiy tasavvurlar asosida emas, balki aniq statistik ko'rsatkichlar orqali baholanishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, mustaqil ta'lim jarayoni natijadorligini baholashda ham ma'lumotlarga asoslangan indikatorlar tizimi joriy etilishi zarur. Mazkur yondashuvning asosiy maqsadi – rahbarning kasbiy kompetensiyalaridagi o'sishni institutsional natijalar bilan bog'lashdir. Agar mustaqil ta'lim jarayoni haqiqatan ham samarali bo'lsa, u ta'lim sifati, monitoring tizimi, jamoa barqarorligi va raqamli boshqaruv ko'rsatkichlarida ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirishi lozim. Data-driven tahlil quyidagi asosiy yo'nalishlar va indikatorlarga tayanadi:

Ta'lim sifati – o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishi foizlarda ifodalanadi. Bu ko'rsatkich choraklik, yarim yillik yoki yillik natijalar asosida aniqlanadi. Masalan, bir yil davomida o'quv natijalari 8-12% ga oshgan bo'lsa, bu rahbarning analitik-prognoztik va strategik kompetensiyasi o'sganini ko'rsatadi. Chunki natijalar ma'lumotlar asosida rejalashtirish va monitoring mexanizmi takomillashuvi bilan bog'liq bo'ladi.

Monitoring samaradorligi – rejalashtirish aniqligi va nazorat tizimining izchilligi bilan belgilanadi. Bu yerda rejalashtirilgan va real bajarilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi tafovut tahlil qilinadi. Tafovut kamaygan sari monitoring tizimi samaradorligi oshgan deb baholanadi.

Jamoa barqarorligi – pedagogik kadrlar almashinuvi darajasi bilan o'lchanadi. Agar mustaqil ta'lim jarayonida rahbarning liderlik va kommunikativ kompetensiyasi rivojlansa, jamoada ijobiy psixologik muhit shakllanadi va kadrlar almashinuvi kamayadi. Masalan,

pedagoglar qo'nimsizligi 15% dan 9% ga tushgan bo'lsa, bu jamoa barqarorligi oshganini ko'rsatadi.

Raqamli boshqaruv samaradorligi – boshqaruv platformalaridan foydalanish faolligi va ma'lumotlarni qayta ishlash tezligi orqali aniqlanadi. Elektron jurnal, monitoring tizimi yoki ma'lumotlar panelidan muntazam foydalanish darajasi oshsa, bu rahbarning raqamli kompetensiyasi rivojlanganini bildiradi. Data-driven yondashuvning muhim jihati shundaki, u kompetensiya o'sishini bilvosita, lekin aniq natijalar orqali ko'rsatadi. Rahbarning analitik, strategik yoki raqamli kompetensiyasi qog'ozdagi baholash bilan emas, balki real ko'rsatkichlar o'zgarishi bilan namoyon bo'ladi. Ko'rsatkichlar muntazam ravishda yig'iladi va dinamik tahlil qilinadi. Boshlang'ich ko'rsatkichlar bilan yakuniy natijalar solishtiriladi, o'sish sur'ati aniqlanadi va trend grafigi tuziladi. Bu rivojlantirishning vaqt bo'yicha dinamikasini ko'rsatadi. Data-driven indikatorlar asosida samaradorlik tahlilining afzalliklari bir nechta. Avvalo, u obyektivdir, chunki statistik ma'lumotlarga asoslanadi. Ikkinchidan, u raqamli asoslangan bo'lib, natijalarni aniq foiz va koeffitsientlar orqali ifodalaydi. Uchinchidan, u institutsional natijani ko'rsatadi, ya'ni rahbarning kasbiy rivojlanishi maktab faoliyatiga qanday ta'sir qilganini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, mustaqil ta'lim samaradorligini baholash an'anaviy yondashuvlardan tubdan farq qilib, faqat bilim darajasi bilan emas, balki ularning amaliy qo'llanishi va institutsional natijalar bilan belgilanadi. Taklif etilgan integratsiyalashgan metodik yondashuv kompetensiyaviy paradigma, reflektiv amaliyot, data-driven boshqaruv va adaptiv liderlik konsepsiyalarini uyg'unlashtirgan holda kasbiy rivojlanishni kompleks baholash imkonini beradi. Kompetensiya asosidagi diagnostik-reyting modeli rahbarlarning kasbiy o'sishini aniq indikatorlar orqali

o'lchash, rivojlanish dinamikasini kuzatish va natijalarni miqdoriy jihatdan ifodalashga xizmat qiladi. Portfolio va reflektiv evidensiya esa rivojlanish jarayonini chuqur tahlil qilish, amaliy faoliyat natijalarini hujjatlashtirish va refleksiyaning kuchaytirish orqali baholashning sifat jihatini ta'minlaydi. Data-driven indikatorlar tizimi esa mustaqil ta'lim natijalarini real institutsional o'zgarishlar bilan bog'lab, baholashning obyektivligi va ishonchliligini oshiradi.

Shu tariqa, mustaqil ta'lim samaradorligini baholashning taklif etilgan modeli kasbiy rivojlanishni tizimli, ilmiy asoslangan va natijaga yo'naltirilgan mexanizm sifatida tashkil etishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv ta'lim boshqaruvi amaliyotida rahbarlar faoliyatini takomillashtirish, qaror qabul qilish sifatini oshirish hamda ta'lim muassasalarida barqaror institutsional rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduqodirov A.A, Pardayev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan, 2009. –145 b.
2. Asadov Y.M. Boshlang'ich ta'limda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasi // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislari to'plami. – T: 2014. –10-14-b.
3. Alkarov, E.M. (2026). Maktab rahbar kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini yangi bosqichga olib chiqish mexanizmi // Maktab ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar. – 6(1). – B. 1–10. <https://orcid.org/0000-0003-3215-3135>
4. Gulboyev A.T., Pedagogik tashxis vositasida o'qituvchilar malakasini uzluksiz oshirish: diss. ped. fan. nomzodi. – Toshkent, 2010.
5. Daminova Sh.K., Umumta'lim maktablari rahbarlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida mustaqil ta'lim shaklini joriy etishning zarurati// Maktab ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar. – 4(1). – B. 136–144. https://doi.org/10.66023/mt/v2026_i286/316
6. Mardonov Sh.Q. Pedagog kadrlarni ta'limiy qadriyatlar asosida tayyorlash va malakasini oshirishning pedagogik asoslari. Ped. fan. dok. ... dis. – Toshkent.: 2006. – 122-123 b.
7. Turg'unov S.T. va boshqalar. O'qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish mexanizmi – Toshkent., "Voriz-Nashriyot", 2012. – 167 b.
8. Xudoyberdiyev E.U. Umumta'lim muassasalarini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish mexanizmini takomillashtirish. Ped.fan... (PhD), diss. – Toshkent, 2025. – 168 b.

ESG STANDARTLARINING OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA AMALIY QO'LLANILISHI: TALABALAR FIKRI ASOSIDAGI EMPIRIK TAHLIL

Ibragimov Abdimalik Gapparovich,

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti,
Ta'lim sifatini ta'minlash va akkreditatsiya bo'limi boshlig'i
e-mail: ibragimovabdimalik0@gmail.com*

Tulyakov Axmad Sa'dullayevich,

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti,
Ta'lim sifatini ta'minlash va akkreditatsiya bo'limi bosh mutaxassisi
e-mail: tulyakovahmad@gmail.com*

Suyunov Sherzod Turdali o'g'li,

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti,
Xalqaro ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish va
o'quv metodik ta'minot bo'limi uslubchisi
e-mail: sherzod.suyunov.01@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasasida ESG (Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area) tamoyillarining amaliy qo'llanilish holati talabalar fikri asosida empirik tahlil qilindi. Tadqiqot davomida professor-o'qituvchilarning dars berish sifati, o'quv jarayonlarining tashkil etilishi, talabaga yo'naltirilgan ta'lim, baholash tizimining shaffofligi hamda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari o'rganildi. So'rovnoma natijalari statistik tahlil qilinib, ESG standartlarining ayrim komponentlari oliy ta'lim muassasasida samarali qo'llanilayotgani aniqlandi. Shu bilan birga, baholash tizimi, feedback mexanizmlari va raqamli infratuzilmani takomillashtirish zarurligi qayd etildi. Tadqiqot yakunida ESG tamoyillarini takomillashtirishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: ESG standartlari, ta'lim sifati, oliy ta'lim, sifatni ta'minlash, talabaga yo'naltirilgan ta'lim, baholash tizimi, raqamli ta'lim, elektron ta'lim platformalari, akademik muloqot, ta'lim boshqaruvi.

**Практическое применение стандартов ESG в
высших образовательных учреждениях:
эмпирический анализ на основе мнений
студентов**

Ибрагимов Абдималик Гаппарович,

*Начальник отдела обеспечения качества
образования и аккредитации Национального
педагогического университета
Узбекистана имени Низами*

Туляков Ахмад Саъдуллаевич,

*Главный специалист отдела обеспечения
качества образования и аккредитации
Национального педагогического университета
Узбекистана имени Низами*

Суюнов Шерзод Турдали угли,

*Методист отдела координации
международных образовательных программ
и учебно-методического обеспечения
Национального педагогического университета
Узбекистана имени Низами*

Аннотация: В данной статье на основе мнений студентов проведён эмпирический анализ практического применения принципов ESG (Стандарты и рекомендации по обеспечению качества в Европейском пространстве высшего образования) в высшем учебном заведении. В ходе исследования были изучены качество преподавания профессорско-преподавательского состава, организация образовательного процесса, реализация студентоориентированного обучения, прозрачность системы оценивания, а также возможности использования электронных образовательных ресурсов. Результаты анкетирования были подвергнуты статистическому анализу, который показал, что отдельные компоненты стандартов ESG эффективно реализуются в деятельности высшего учебного заведения. Вместе с тем была отмечена необходимость дальнейшего совершенствования системы оценивания, механизмов обратной связи (feedback) и цифровой инфраструктуры. По итогам исследования разработаны практические рекомендации, направленные на совершенствование внедрения принципов ESG в системе высшего образования.

Ключевые слова: стандарты ESG, качество образования, высшее образование, обеспечение качества, студентоориентированное обучение, система оценивания, цифровое образование, электронные образовательные платформы, академическая коммуникация, управление образованием.

**Implementation of ESG standards
in higher education institutions:
an empirical study based on students'
perspectives**

Abdimalik Gapparovich Ibragimov,
Head of the Department for Quality Assurance and Accreditation Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan
Akhmad Sa'dullayevich Tulyakov,
Chief Specialist of the Department for Quality Assurance and Accreditation, Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan
Sherzod Turdali o'g'li Suyunov,
Methodologist of the Department for Coordination of International Educational Programs and Educational-Methodological Support Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

Abstract: This article presents an empirical analysis of the practical implementation of ESG (Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area) principles in a higher education institution based on students' opinions. The study explores the quality of teaching, organization of the educational process, student-centered learning, transparency of the assessment system, and the access opportunities to electronic educational resources. The article statistically analyzes the survey results and defines that several components of ESG standards are effectively implemented in the higher education institution. Additionally, It identifies the need to improve the assessment system, feedback mechanisms, and digital infrastructure. Based on the findings, the study proposes practical recommendations for improving the implementation of ESG principles.

Keywords: ESG standards, quality of education, higher education, quality assurance, student-centered learning, assessment system, digital education, electronic learning platforms, academic communication, education management.

Вugungi kunda oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini ta'minlash va boshqaruv samaradorligini oshirish global miqyosdagi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Jahon miqyosida raqobatning kuchayishi, xalqaro akademik integratsiya va mehnat bozori talab-

larining o'zgarishi oliy ta'lim muassasalaridan sifatni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, Yevropa oliy ta'lim hududi uchun ishlab chiqilgan ESG (Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European

Higher Education Area) standartlari oliy ta'lim sifatini ta'minlashning muhim xalqaro modeli sifatida e'tirof etiladi [6, 7-b.].

ENQA ekspertlarining ta'kidlashicha, ESG standartlarining asosiy maqsadi oliy ta'lim muassasalarida ichki va tashqi sifatni ta'minlash tizimini rivojlantirish, shaffoflikni oshirish hamda "sifat madaniyati"ni shakllantirishdan iboratdir [6, 8-b.]. Mazkur standartlar talabaga yo'naltirilgan ta'lim, adolatli baholash tizimi, akademik resurslardan foydalanish imkoniyati va manfaatdor tomonlar bilan samarali hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.

UNESCO tadqiqotlarida qayd etilishicha, zamonaviy oliy ta'lim tizimining raqobatbardoshligi bevosita ta'lim sifatini monitoring qilish va boshqaruvning samarali mexanizmlarini joriy etish bilan bog'liqdir [4, 24-b.]. Ayniqsa, raqamli transformatsiya sharoitida elektron ta'lim resurslari, onlayn platformalar hamda talabalar fikrini muntazam o'rganish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biriga aylanmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ham oliy ta'lim tizimini xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida xalqaro standartlar asosida ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish hamda oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi o'rnini mustahkamlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan [1].

Amaliyotda ta'lim sifati, baholash tizimining shaffofligi, talabalarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki, elektron resurslardan foydalanish imkoniyati va baholash tizimi bilan bog'liq ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Bu esa ESG standartlarining oliy ta'lim muassasalarida amaliy qo'llanilish holatini empirik tadqiqotlar asosida o'rganishni dolzarb masalaga aylantiradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasalarida ESG tamoyillarining amaliy qo'llanilish darajasini talabalar so'rovnoma-si asosida tahlil qilish hamda mavjud muammolarni aniqlash orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot davomida talabalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari asosida dars sifati, baholash tizimining shaffofligi, talabaga yo'naltirilgan ta'lim, elektron resurslardan foydalanish imkoniyati elektron resurslardan foydalanish imkoniyatlari kabi ESG indikatorlari tahlil qilindi.

Oliy ta'lim tizimida sifatni ta'minlash masalasi so'nggi yillarda xalqaro miqyosda ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ayniqsa, Yevropa oliy ta'lim hududida ishlab chiqilgan ESG (Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area) standartlari ta'lim sifatini boshqarishning zamonaviy modeli sifatida keng qo'llanilmoqda.

ENQA tomonidan ishlab chiqilgan ESG standartlarida oliy ta'lim muassasalarida ichki sifatni ta'minlash tizimini shakllantirish, talabaga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirish, baholash jarayonlarining shaffofligini ta'minlash hamda manfaatdor tomonlar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish asosiy tamoyillar sifatida belgilangan [6, 9-b.]. Mazkur standartlar ta'lim sifati ustidan nazoratni kuchaytirishdan ko'ra, oliy ta'lim muassasalarida barqaror "sifat madaniyati"ni shakllantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

UNESCO tadqiqotlarida ham oliy ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligi raqamli transformatsiya jarayonlari bilan chambarchas bog'liqligi qayd etilgan [4, 31-b.]. Elektron ta'lim resurslari, onlayn platformalar va raqamli monitoring tizimlari ta'lim sifatini baholash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim vosita sifatida ko'rsatib o'tiladi.

Ravshan Ishmuhamedov va Abduqodir Abduqodirov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham oliy ta'lim tizimida sifatni ta'minlash, xalqaro standartlarni joriy etish va boshqaruv samaradorligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqotlarda kredit-modul tizimini rivojlantirish, ichki monitoring tizimini kuchaytirish va talabalar fikrini muntazam o'rganish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillari sifatida baholanadi [5, 48-b.].

Ushbu tadqiqotning o'ziga xos jihati shundaki, unda ESG standartlari tamoyillarining amaliy qo'llanilish holati talabalar fikri asosida empirik tahlil qilinadi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida sifatni ta'minlash tizimining real holatini baholash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim muassasasida ESG (Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area) tamoyillarining amaliy qo'llanilish holatini baholash maqsadida empirik tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida talabalar fikri asosida ta'lim sifati, talabaga yo'naltirilgan ta'lim, baholash tizimining shaffofligi hamda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilindi.

Tadqiqotning asosiy usuli sifatida so'rovnoma (survey) metodidan foydalanildi. So'rovnoma Google Forms platformasi orqali tashkil etilib, respondentlarning anonimligi ta'minlandi. Tadqiqotda bitta oliy ta'lim muassasasining 9794 nafar talabasi ishtirok etdi. Respondentlar turli fakultet va ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarni qamrab oldi.

So'rovnoma savollari ESG standartlarining asosiy indikatorlari asosida ishlab chiqildi. Tadqiqot davomida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ma'lumotlar yig'ildi:

- professor-o'qituvchilarning dars berish sifati;
- o'quv jarayonlarining tashkil etilishi;


- talabalar va professor-o'qituvchilar o'rta-sidagi akademik muloqot;
- baholash tizimining shaffofligi;
- elektron ta'lim platformalari va raqamli resurslardan foydalanish imkoniyatlari.

Olingan natijalar foiz ko'rsatkichlari asosida statistik tahlil qilinib, ESG standartlari tamoyillari bilan qiyosiy baholandi.

Tadqiqot jarayonida ESG standartlarining "Teaching and Learning", "Student-Centered Learning", "Assessment and Evaluation" hamda "Digital Support and Resources" komponentlariga alohida e'tibor qaratildi. Natijalar tahlili orqali oliy ta'lim muassasasida sifatni ta'minlash tizimining amaliy holati baholandi hamda mavjud muammolarni aniqlashga harakat qilindi.


Natijalar va muhokama.

Ta'lim sifati va professor-o'qituvchilar faoliyatining baholanishi. Tadqiqotda respondentlardan professor-o'qituvchilarning dars berish sifati yuzasidan fikrlari o'rganildi. Olingan natijalarga ko'ra, respondentlarning 54,2 foizi dars berish sifatini "Yuqori", 42,6 foizi "O'rta", 2,7 foizi esa "Past" darajada deb baholagan. Natijalar oliy ta'lim muassasasida ta'lim jarayonining umumiy sifati talabalar tomonidan ijobiy baholanayotganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, respondentlarning yarmidan ko'pi professor-o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini yuqori darajada baholagani ESG standartlarining "Teaching and Learning" tamoyillari bilan mos keladi [6, 11-b.].



Shu bilan birga, respondentlarning 42,6 foizi dars sifatini oʻrta darajada deb baholagani taʼlim jarayonida ayrim muammolar mavjudligini ham koʻrsatadi. Bu holat professor-oʻqituvchilarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish, interaktiv metodlardan foydalanishni kengaytirish hamda talabalar bilan akademik mulqotni kuchaytirish zarurligini anglatadi.

emas” deb javob bergan. Ushbu natijalar oliy taʼlim muassasasida oʻquv jarayonlarini tashkil etish boʻyicha ijobiy holat mavjudligini koʻrsatadi. Respondentlarning yarmidan koʻpi taʼlim jarayonidan toʻliq qoniqish bildirgani ESG standartlarining ichki sifatni taʼminlash tamoyillari amaliyotda qisman samarali joriy etilayotganini anglatadi [6, 12-b].



Oʻquv va dars jarayonlari tashkil etilishining sifati sizni qanchalik qoniqtiradi?

Natijalar tahlili shuni koʻrsatadiki, professor-oʻqituvchilarning dars sifati ESG standartlarining talabaga yoʻnaltirilgan taʼlim konsepsiyasini amalga oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Talabalar tomonidan dars sifati yuqori baholanishi taʼlim jarayonining samaradorligiga hamda talabalarning umumiy qoniqish darajasiga bevosita taʼsir koʻrsatadi.

Biroq ayrim respondentlarning dars sifatini past baholashi taʼlim jarayonida metodik yondashuvlarni takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni kengroq joriy etish hamda professor-oʻqituvchilarning malakasini muntazam oshirib borish zarurligini koʻrsatadi.

Oʻquv va dars jarayonlari tashkil etilishining sifati. Tadqiqot davomida respondentlarning oʻquv va dars jarayonlari tashkil etilishidan qoniqish darajasi ham oʻrganildi. Natijalarga koʻra, respondentlarning 57,3 foizi oʻquv jarayonidan “Toʻliq qoniqarli”, 39,7 foizi “Qisman qoniqarli”, 2,9 foizi esa “Qoniqarli

Shu bilan birga, respondentlarning 39,7 foizi oʻquv jarayonlarini faqat qisman qoniqarli deb baholagani ayrim tashkiliy va metodik muammolar mavjudligini koʻrsatadi. Xususan, dars jadvali, amaliy mashgʻulotlarning samaradorligi, auditoriya yuklamasi hamda interaktiv metodlardan foydalanish darajasi talabalar qoniqishiga taʼsir qiluvchi asosiy omillardan biri boʻlishi mumkin.

ESG standartlariga koʻra, taʼlim jarayonlari talabalar ehtiyojlari va kompetensiyalarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan boʻlishi lozim [6, 13-b]. Shu sababli oʻquv jarayonlarini tashkil etishda talabalar fikrini muntazam monitoring qilish va feedback tizimlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalar shuni koʻrsatadiki, taʼlim jarayonlarini yanada takomillashtirish uchun talabaga yoʻnaltirilgan metodlarni kengaytirish, amaliy mashgʻulotlar ulushini oshirish hamda raqamli taʼlim texnologiyalaridan samarali foydalanish zarur hisoblanadi.


Talabaga yo'naltirilgan ta'lim va akademik muloqot. Davlat ta'lim standartlarining muhim tamoyillaridan biri talabaga yo'naltirilgan ta'lim (student-centered learning) hisoblanadi. Mazkur yondashuvda talabalarning ta'lim jarayonidagi faolligi, o'z fikrini erkin bildirish imkoniyati hamda professor-o'qituvchilar bilan akademik muloqoti muhim ahamiyat kasb etadi [6, 13-b].

Tadqiqot davomida respondentlardan dars jarayonida professor-o'qituvchilarga savol berish va fikr bildirish imkoniyati mavjudligi yuzasidan fikrlari o'rganildi. Natijalarga ko'ra, respondentlarning 83 foizi dars jarayonida erkin savol berish va fikr bildirish imkoniyati mavjudligini bildirgan. Shuningdek, 15,5 foiz respondent bu imkoniyat qisman mavjudligini qayd etgan bo'lsa, 1,5 foiz respondent bunday imkoniyat mavjud emasligini ta'kidlagan.

larini rivojlantirish hamda ta'lim sifatini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi. Tia Loukola va Ting Zhang tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham talabalarni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish sifat madaniyatining asosiy elementi sifatida baholangan [3, 22-b].

Shu bilan birga, ayrim respondentlar tomonidan savol berish imkoniyati faqat qisman mavjudligi qayd etilgani ayrim auditoriyalarda an'anaviy pedagogik yondashuvlar saqlanib qolayotganligini ko'rsatadi. Bu esa interaktiv metodlardan foydalanishni kengaytirish, ochiq muloqot muhitini rivojlantirish va talabalar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash zarurligini anglatadi.

Baholash tizimining shaffofligi va adolatliligi. ESG standartlarida baholash jarayonining adolatli, shaffof va oldindan belgilangan



Darslar davomida professor-o'qituvchilarga savol berish va fikr bildirish imkoniyati mavjudmi?


Mazkur natijalar oliy ta'lim muassasasida talabalar va professor-o'qituvchilar o'rtasidagi akademik muloqotning yetarlicha shakllanganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, respondentlarning katta qismi dars jarayonida o'z fikrini erkin bildirish olishini qayd etgani DTSning talabaga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari amaliyotda qo'llanilayotganidan dalolat beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, dars jarayonida erkin muloqot muhitining mavjudligi talabalar faolligini oshirish, mustaqil fikrlash ko'nikma-

mezonlar asosida tashkil etilishi ta'lim sifatini ta'minlashning muhim elementlaridan biri sifatida qayd etilgan [6, 15-b]. Talabalarni baholash jarayonining ochiqligi hamda aniq mezonlar asosida amalga oshirilishi talabalar ishonchini oshirish bilan birga, ta'lim jarayonining samaradorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida respondentlarning baholash tizimi yuzasidan fikrlari o'rganildi. Natijalarga ko'ra, respondentlarning 69,1 foizi joriy, oraliq va yakuniy nazorat tizimini ado-

latli va shaffof deb hisoblagan. Shuningdek, 25,5 foiz respondent baholash tizimini qisman shaffof deb baholagan bo'lsa, 5,4 foiz respondent baholash tizimida shaffoflik yetarli emasligini bildirgan.



Baholash tizimi (joriy, oraliq, yakuniy nazoratlar) adolatli va shaffof deb hisoblaysizmi?

Mazkur natijalar oliy ta'lim muassasasida baholash tizimi bo'yicha umumiy ijobiy holat mavjudligini ko'rsatadi. Respondentlarning katta qismi baholash jarayonlarini adolatli deb baholagani ESG standartlarining "Assessment and Evaluation" tamoyillari qisman samarali joriy etilayotganidan dalolat beradi.

Biroq respondentlarning 25,5 foizi baholash tizimini faqat qisman shaffof deb hisoblagani ayrim muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, baholash mezonlarining barcha talabalar uchun bir xil tushunarli emasligi, ayrim hollarda feedback tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi hamda baholash natijalari bo'yicha izoh berish amaliyotining sustligi talabalar qoniqishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Lee Harvey va Diana Green ta'kidlashicha, ta'lim sifatining muhim indikatorlaridan biri baholash tizimining ishonchligi va ochiqligi hisoblanadi [2, 18-b]. Shu sababli baholash


jarayonlarida shaffoflikni yanada oshirish, elektron monitoring tizimlarini rivojlantirish hamda talabalar uchun aniq baholash mezonlarini taqdim etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, baholash tizimini takomillashtirish orqali talabalar ishonchini oshirish, akademik halollikni mustahkamlash hamda ESG standartlarining amaliy samaradorligini yanada kuchaytirish mumkin.

Elektron ta'lim resurslari va raqamli infratuzilma. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar va elektron ta'lim platformalaridan samarali foydalanish ta'lim sifatini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. ESG standartlarida ham ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlovchi axborot resurslari va raqamli infratuzilmaning mavjudligi alohida ta'kidlangan [6, 16-b].

Tadqiqot davomida respondentlarning elektron ta'lim platformalari va onlayn resurslardan foydalanish imkoniyatlari yuzasidan fikrlari o'rganildi. Natijalarga ko'ra, respondentlarning 47,6 foizi elektron resurslardan foydalanish imkoniyatini "Yuqori", 44,7 foizi "O'rta", 6,2 foizi "Past", 1,4 foizi esa "Mavjud emas" deb baholagan. Natijalar oliy ta'lim muassasasida raqamli ta'lim infratuzilmasi ma'lum darajada shakllanganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, respondentlarning deyarli yarmi elektron platformalardan foydalanish imkoniyatini yuqori baholagani ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarning faol qo'llanilayotganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, respondentlarning 44,7 foizi ushbu imkoniyatlarni o'rta darajada baholagani raqamli ta'lim tizimida ayrim kamchiliklar mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, internet tezligi, elektron platformalarning funksional imkoniyatlari, o'quv materiallarining to'liq joylashtirilmasligi hamda ayrim fanlarda raqamli resurslardan foydalanish darajasining pastligi talabalar qoniqishiga ta'sir qilishi mumkin.



Elektorn o'quv resurslari va onlayin platformalardan foydalanish imkoniyatlari qanday?

UNESCO tadqiqotlarida qayd etilishicha, raqamli transformatsiya sharoitida elektron ta'lim resurslari va onlayn platformalardan samarali foydalanish ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi [4, 31-b]. Ayniqsa, LMS platformalari, elektron kutubxonalar va masofaviy ta'lim tizimlari talabalar uchun ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasasida raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish, elektron ta'lim resurslari sifatini oshirish hamda internet va platformalar barqarorligini kuchaytirish DTSlarini samarali joriy etish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasasida ESG standartlarining ayrim elementlari amaliyotda samarali qo'llanilayotganligini ko'rsatdi. Xususan, professor-o'qituvchilarning dars sifati, talabalar bilan akademik muloqot hamda baholash tizimining shaffofligi respondentlarning aksariyati tomonidan ijobiy baholandi.

Shuningdek, talabaga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillarining qisman shakllangani, talabalar fikrini bildirish imkoniyatlari mavjudligi ham ESG standartlarining amaliy qo'llanilayotganidan dalolat beradi. Tadqiqot davomida baholash tizimining shaffofligi ham respondentlar-

ning katta qismi tomonidan ijobiy baholandi. Bu holat ESG standartlarining "Assessment and Evaluation" tamoyillari oliy ta'lim muassasasida ma'lum darajada joriy etilganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayrim respondentlar tomonidan baholash tizimi va elektron ta'lim resurslari o'rta darajada baholangani mazkur yo'nalishlarda qo'shimcha takomillashtirish zarurligini anglatadi.

Tahlillar natijasida oliy ta'lim muassasasida ESG standartlarining tamoyillarini yanada samarali joriy etish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- talabaga yo'naltirilgan pedagogik metodlarni kengaytirish;
- baholash tizimining ochiqqligi va feedback mexanizmlarini kuchaytirish;
- elektron ta'lim platformalari va raqamli infratuzilmani rivojlantirish;
- professor-o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik kompetensiyalarini oshirish;
- talabalar fikrini muntazam monitoring qilish tizimini takomillashtirish.

Umuman olganda, ESG standartlarining amaliy qo'llanilishi oliy ta'lim tizimida sifatni ta'minlash, boshqaruv samaradorligini oshirish hamda talabalar ehtiyojlariga mos ta'lim muhitini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'QUVCHILAR IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TEATR PEDAGOGIKASINING AHAMIYATI

*Shavkatova Gulnoza Rustam qizi,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti doktoranti (DSc),
shavkatoavg123@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarda teatr vositalari orqali ijodiy qobiliyatga oid tasavvurlarni boyitishda xalqaro tajribaning o'rni ilmiy-nazariy va qiyosiy tahlil asosida yoritiladi. Tadqiqotda O'zbekiston ta'lim tizimidagi ma'naviy-estetik tarbiya yondashuvlari xorijiy tajribalar bilan solishtirildi. UNESCO, OECD hamda APNIEVE xalqaro tarmoqlarining konseptual hujjatlari asosida ijodiy iqtidor va kreativlikni shakllantirishda qadriyatlar ta'limi, dramapedagogika va refleksiv yondashuvning samarali mexanizmlari aniqlandi. Natijada maktab amaliyotidagi so'rovnoma asosida o'quvchilarning ijodiy va estetik tasavvurlarini boyitish uchun integrativ model zarurligi asoslandi.

Kalit so'zlar: ijodiy qobiliyat, teatr pedagogikasi, UNESCO, OECD, APNIEVE, kreativlik, integrativ yondashuv, so'rovnoma.

Значение театральной педагогики в развитии творческих способностей учащихся

Шавкатова Гулноза Рустам кизи,
Докторант (DSc) Национального института
педагогического мастерства имени А. Авлони

Аннотация: В данной статье на основе научно-теоретического сравнительного анализа раскрывается роль международного опыта в обогащении представлений учащихся о творческих способностях посредством теа-

тральных средств. В исследовании подходы к духовно-эстетическому воспитанию в системе образования Узбекистана сопоставлены с зарубежным опытом. На основе научных документов UNESCO, OECD и APNIEVE определены эффективные механизмы формирования креативности, такие как ценностное образование, театральная педагогика и рефлексивный подход. В результате на основе практического опроса обоснована необходимость интегративной модели для обогащения творческих представлений учащихся.

Ключевые слова: творческие способности, театральная педагогика, UNESCO, OECD, APNIEVE, креативность, интегративный подход, опрос.

The importance of theatre pedagogy in developing students' creative abilities

Shavkatova Gulnoza Rustam qizi,
Doctoral Researcher at the A. Avloni National
Institute of Pedagogical Mastery

Abstract: This article explores the role of international experience in developing students' creative abilities through drama tools based on scientific-theoretical and comparative analysis. The study compares approaches to spiritual and aesthetic education in the education system of Uzbekistan with foreign experiences. The article identifies effective mechanisms for formulating creativity, inclu-

ding values education, drama pedagogy, and a reflective approach based on the scientific frameworks of UNESCO, OECD, and APNIEVE. As a result, the study substantiates the need for an integrative model in order to enrich students' aesthetic and crea-

tive thinking potential based on a practical school survey.

Keywords: *creative talent, theater pedagogy, UNESCO, OECD, APNIEVE, creativity, integrative approach, survey.*

Bugungi globallashuv, texnologik yangilanish va ijtimoiy hayotdagi tezkor o'zgarishlar sharoitida o'quvchini faqat bilim va ko'nikma bilan emas, balki ma'naviy mezonlar, ijodiy mas'uliyat, estetik tanlov va badiiy burch hissi bilan tayyorlash dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Shu sababli "ijodiy iqtidor" tushunchasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda tobora muhim o'rin egallamoqda. UNESCO o'zining madaniyat va badiiy ta'limga oid deklaratsiyalarida ta'limning bosh vazifasi o'quvchini "badiiy jihatdan sezgir va kreativ inson" sifatida tarbiyalash ekanini ta'kidlaydi, bu global yondashuv maktab darslarida sahna san'ati vositalariga tizimli tayanish zarurligini yaqqol ko'rsatib beradi.

Mazkur tadqiqotda "teatr vositalari" tushunchasi ostida rolli o'yinlar, sahnalashtirish, drammatizatsiya, improvizatsiya, obrazli talqin va refleksiv muhokama kabi teatr pedagogikasi elementlari nazarda tutiladi. Ushbu vositalar o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, estetik didi va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbek pedagogik tafakkurida ham madaniyat va ijodiy kamolot o'rtasidagi uzviy bog'liqlik muhim o'rin tutadi. Tadqiqotchilar Yo'ldoshev va Matchonovlarning "Adabiyot o'qitish metodikasi" darsligida ijodiy faoliyatni ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida talqin qilib, yosh avlodning yuqori badiiy madaniyati mustaqil tafakkur, estetik ongi va amaliy ijodiy faoliyatdagi tajribasi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadilar [2]. Ushbu metodik adabiyotda ijodiy iqtidorlarni dars jarayonida izchil ochib borish darslarni modernizatsiya qilishga xizmat qilishi haqida alohida ta'kidlanadi.

O'zbekistonda mazkur yo'nalish normativ-huquqiy hujjatlarda ham qo'llab-quvvatlangan. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" oiladan boshlab umumiy o'rta ta'lim tizimida estetik va badiiy tarbiyani uzluksiz yo'lga qo'yishini nazarda tutadi [1]. Ushbu hujjatda milliy teatr an'alariga qiziqish uyg'otish, shaxsiy ijodiy sifatlarni shakllantirish va ilg'or pedagogik tajribani ommalashtirish kabi vazifalar belgilangan. Hozirgi ta'lim strategiyalari ham umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda san'at integratsiyasini zarur deb ko'rsatadi.

Mahalliy olimlar R.Djurayev, M.Qur'onov, N.Isakulova o'quvchilar qobiliyatini aniqlashda madaniy-insonparvarlik yondashuvini ilgari surgan. Ularning fikricha, qobiliyatni rivojlantirishning asosi – bu shaxsning erkin fikrlash muhiti, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ishonchli muloqotdir.

Xorijiy tadqiqotlarda C.Rogers, J.Biggs, K.Tollefson-Hall qobiliyatli o'quvchilar uchun "performans asosidagi ta'lim" (*performance-based learning*) samaradorligi isbotlangan. Ushbu yondashuv o'quvchini passiv bilim oluvchidan faol ijodkor shaxsga aylantiradi.

Biroq, ko'plab adabiyotlarda "o'quvchilarda ijodiy qobiliyatiga oid tasavvurlarni boyitish" masalasi ko'proq umumiy nazariy tavsiflar yoki adabiy kompetensiya bilan cheklangan tarzda yoritilgan. Masalan, maktab amaliyotida teatr san'atining vazifalari ko'pincha darsdan tashqari to'garak faoliyati sifatida tahlil qilinadi. Bu yondashuvlar muhim bo'lsa-da, teatr elementlarining dars strukturasidagi o'rni va ularning xalqa-

ro mezonlar asosidagi amaliy-empirik tahlillari yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

“Iqtidor inson faoliyatining turli yo‘nalishlarida namoyon bo‘lishi mumkin. Jumladan, amaliy faoliyatda tashkiliy qobiliyatlar, ilmiy faoliyatda intellektual salohiyat, badiiy-estetik faoliyatda sahna san‘ati, tasviriy san‘at va musiqaga oid qobiliyatlar, kommunikativ faoliyatda esa liderlik va samarali muloqot kompetensiyalari shakllanadi. Mazkur qobiliyatlarning rivojlanishi shaxsning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi” [8].

Shu jihatdan mazkur maqolaning maqsadi adabiyot darslarida o‘quvchilarda ijodiy iqtidorga oid tasavvurlarni boyitishda xalqaro teatr pedagogikasi modellarining ahamiyatini aniqlash, samarali vositalarni baholash va ularni amaliyotchi o‘qituvchilarning empirik fikrlari asosida tahlil qilishdir. Tadqiqot savoli quyidagicha ifodalanadi xalqaro va amaliy tajribaning qaysi elementlari o‘quvchilarda ijodiy iqtidori haqidagi bilim, munosabat va ko‘nikmalarni boyitishda eng samarali hisoblanadi?

Nazariy manbalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, teatr pedagogikasi o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur nazariy qarashlarning amaliyotdagi holatini aniqlash maqsadida amaliyotchi o‘qituvchilar o‘rtasida sotsiologik so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma natijalari nazariy xulosalarni empirik jihatdan tekshirish imkonini berdi.

Mazkur tadqiqot sotsiologik so‘rovnoma hamda desk research usuli qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini pedagogik aksiologiya, estetik tarbiya nazariyasi va teatr pedagogikasi tamoyillari tashkil etdi. Manbalar ikki guruhga ajratildi: birinchisi o‘zbek olimlari va normativ hujjatlar; ikkinchisi xalqaro tashkilotlar (UNESCO, OECD, APNIEVE) konseptual hisobotlari hamda drama pedagogikasi va sahnalashtirish texnologiyalariga oid tadqiqotlar tashkil etadi.

Tahlilda quyidagi usullar qo‘llanildi:

1. kontent-tahlil – ijodiy iqtidor, qadriyat ta‘limi va drama pedagogikasi va sahnalashtirish texnologiyalariga oid manbalardagi tayanch kategoriyalarni ajratish;

2. qiyosiy tahlil – O‘zbekiston va xalqaro tashkilotlar amaliyotidagi yondashuvlarni solishtirish;

3. empirik tahlil – 105 nafar amaliyotchi adabiyot o‘qituvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma ma‘lumotlarini matematik-statistik qayta ishlash;

4. sintez – xalqaro tajribadan chiqadigan konseptual xulosalarni pedagoglarning amaliy takliflari bilan umumlashtirish.

Manba tanlashda uch mezon asos qilib olindi: birinchidan, teatr pedagogikasiga aloqadorlik; ikkinchidan, xalqaro institutsional ishonchlilik; uchinchidan, o‘quvchi yoshidagi shaxslar bilan ishlashga tatbiq etish imkoniyati. Shu asosda UNESCOning san‘at ta‘limini tizimlashtirish hujjatlari, OECDning o‘quvchilarda kreativlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish loyihalari, APNIEVENing yaxlit shaxs tarbiyasi prinsiplari, shuningdek, milliy pedagogikamizdagi ilg‘or darsliklar va metodik tavsiyalar o‘rganildi [3].

Tahlil natijasida o‘quvchilarda ijodiy iqtidorga oid tasavvurlarni boyitishda xalqaro tajriba va amaliy so‘rovnomaning ahamiyatini belgilovchi asosiy pedagogik omillar aniqlandi.

1. Qadriyatlar ta‘limini teatr pedagogikasi bilan integratsiya qilish: UNESCO va APNIEVE tashkilotlarining yaxlit yondashuv mezonlariga ko‘ra, badiiy-estetik tarbiya o‘quv jarayoniga tizimli ravishda singdirilishi kerak [4]. Ushbu uslubiyotga binoan, sahnalashtirish elementlari darsda shunchaki ko‘ngilochar vosita emas, balki shaxsni rivojlantirish va ijodiy hayotga tayyorlash omilidir. Bu tajriba shuni ko‘rsatadiki, kreativlik, hamkorlik va ifodalilik kabi tushunchalar quruq nazariya bilan emas,

balki rollar ijrosi va jamoaviy sahna refleksiya-si orqali shakllantiriladi.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning iqtidorini shakllantirish – bu ta'lim tizimining ustuvor strategik vazifalaridan biridir. Ushbu jarayon psixologik, pedagogik, ijtimoiy va madaniy omillar birligiga asoslangan bo'lishi lozim. O'qituvchining individual yondashuvi, innovatsion metodlardan foydalanish, ijodiy muhit yaratish va ota-onalarning faol ishtiroki iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashning eng muhim shartlaridir.

Psixologlar L.Vigotskiy, J.Guilford, H.Gardnerlarning ta'kidlashicha, iqtidor “kreativ tafakkur” va “divergent fikrlash” bilan bevosita bog'liq, ya'ni inson muammoga noodatiy yondashish, bir masalaga bir nechta yechim topish, yangi g'oyalarni ilgari surish qobiliyatiga ega bo'lsa, bu holat iqtidorning yuqori darajasini ifodalaydi [6].

2. Kreativlikni dars muhitida izchil rag'batlantirish: OECD tashkilotining “Fostering Students' Creativity and Critical Thinking” loyihasi doirasidagi xulosalar shuni tasdiqlaydiki, samarali teatr pedagogikasi o'quvchiga adabiy matn va hayotiy obraz o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni tushunishga ko'maklashadi [3]. Xalqaro hisobotlarda drama va sahnalashtirish darslarida muntazam qatnashish o'quvchilarda o'z-o'zini anglash hamda muammoli vaziyatlardan unumli chiqish ko'nikmalarini keskin oshirishi qayd etilgan. Demak, ijodiy qobiliyat emas, balki darsda sahna elementlari yordamida shakllanadigan faol munosabatdir.

Maktab amaliyotidagi real holatni, teatr elementlarining dars samaradorligiga ta'sirini va tizimdagi muammolarni aniqlash maqsadiga muvofiq, maktablarda adabiyot fanidan dars beruvchi 105 nafar amaliyotchi o'qituvchilar o'rtasida anonim so'rovnoma o'tkazildi. Respondentlarning 68% ini 15 yildan ortiq stajga ega tajribali pedagoglar tashkil etdi. Olingan

ma'lumotlar statistik qayta ishlanib, quyidagi 1-jadval ko'rinishida umumlashtirildi.

1-jadvalda jamlangan statistik ma'lumotlar sotsiologik korrelyatsiyasi shuni ko'rsatadiki, amaliyotchi o'qituvchilarning mutloq ko'pchiligi (**84.0%**) sahnalashtirish va teatr elementlarini o'quvchilarning ijodiy fikrlash salohiyatini oshiruvchi asosiy omil deb hisoblaydi. Teatr metodlarining darsga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish darajasi jami **96.0%** (oshiradi va juda oshiradi variantlari yig'indisi) ni tashkil etib, metodning yuqori motivatsion kuchga ega ekanligini ko'rsatadi.

Yosh davrlari pedagogikasi kesimida qaraganda, o'qituvchilar ushbu metodikani ko'proq o'rta bo'g'inda, ya'ni **5–7-sinflar (48.0%)** hamda **8–9-sinflarda (44.0%)** qo'llash yuqori samara berishini qayd etishgan. Bu holat o'smirlik yoshidagi o'quvchilarning emotsional faolligi va sahna orqali o'zini namoyon qilishga bo'lgan intilishi bilan izohlanadi. Mazkur jarayonda shakllanadigan eng ustuvor tayanch kompetensiya sifatida **ijodkorlik (64.0%)** va **jamoada hamkorlikda ishlash (24.0%)** ko'rsatilgan.

Biroq, empirik tahlil maktab amaliyotida bir qator tashkiliy va psixologik to'siqlar mavjudligini ham ko'rsatdi. O'qituvchilar teatr elementlarini qo'llashda eng ko'p duch keladigan muammo sifatida **vaqt yetishmasligi (32.0%)** va **o'quvchilarning psixologik tortinchoqligi (32.0%)** variantlarini belgilashgan. Shu bilan birga, respondentlarning **72.0%** i ushbu texnologiyalardan unumli foydalanish uchun o'qituvchiga maxsus metodik tayyorgarlik zarurligini, **24.0%**i esa maktablarda aynan metodik qo'llanmalar tanqisligini muammo sifatida ko'rsatgan.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro yondashuvlar va mahalliy pedagogik ehtiyojlar o'quvchilarda ijodiy qobiliyatga oid tasavvurlarni boyitishda integratsiya, amaliylik va refleksivlik tamoyillarini ilgari suradi. UNESCO va OECD xulosalariga ko'ra, ijodiy rivojlanish

Teatr pedagogikasi vositalarini qo'llash bo'yicha o'qituvchilar so'rovnomasi natijalari

№	Baholash indikatorlari (Savollar)	Variantlar muqobilligi	Umumiy nisbat (% da)
1	Adabiyot darslarida teatr elementlarini qo'llash ijodiy fikrlashni rivojlantiradimi?	Ha Qisman Yo'q	84.0% 12.0% 4.0%
2	Teatr elementlaridan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradimi?	Oshiradi Juda oshiradi Kam ta'sir qiladi	72.0% 24.0% 4.0%
3	Teatr metodlari qaysi yosh bosqichlarida (sinflarda) samaraliroq natija beradi?	5–7-sinflar 8–9-sinflar 10–11-sinflar Boshlang'ich sinflar	48.0% 44.0% 4.0% 4.0%
4	Teatr vositalari orqali o'quvchilarda qaysi tayanch kompetensiya ko'proq shakllanadi?	Ijodkorlik Hamkorlikda ishlash Muloqot madaniyati	64.0% 24.0% 12.0%
5	Sahnalashtirish texnologiyalaridan foydalanish uchun maxsus metodik tayyorgarlik kerakmi?	Ha Qisman Yo'q	72.0% 20.0% 8.0%
6	Darsda teatr pedagogikasini qo'llashdagi asosiy muammo/to'siq nimadan iborat?	Vaqt yetishmasligi O'quvchilar tortinchoqligi Metodik qo'llanmalar kamligi Texnik imkoniyatlar cheklanganligi	32.0% 32.0% 24.0% 12.0%

butun shaxsni kamol toptirish bilan chambarchas bog'liqdir. O'qituvchilarning so'rovnomadagi ochiq takliflari (masalan, *“tayyor ssenariylar va video darslar kerak”*, *“metodik qo'llanma va raqamli botlar yaratish lozim”*) maktab amaliyotida teatr vositalarini darsga integratsiya qilishda yangicha va raqamli yordamchi modellar ishlab chiqish zarurligini tasdiqlaydi.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimi uchun quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Vaqt taqchilligini hal etish (Didaktik modullashtirish): Sahnalashtirish metodlarini 45 daqiqalik darsning butun qismiga emas, balki darsning “uy vazifasini so'rash” (rolli o'yin) yoki “yangi mavzuni mustahkamlash”

bosqichlarida 5-7 daqiqalik mikromodul shaklida tatbiq etish lozim.

2. Psixologik to'siqlarni bartaraf etish: O'quvchilardagi tortinchoqlik muammosini yengish uchun rollarni o'quvchi xarakteridan kelib chiqib differensial taqsimlash, dastlab matni kamroq bo'lgan dialogik vaziyatlarni bajarish kerak.

3. Metodik va raqamli ta'minot: Adabiyot o'qituvchilariga yordam sifatida dars ssenariylari, qisqa rollar matni hamda muvaffaqiyatli dars namunalari aks etgan elektron platformalar yoki maxsus **Metodik Telegram-bot** tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Olib borilgan tahlillar asosida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratil-

gan “Teatr-pedagogik integrativ model” taklif etiladi. Mazkur model uch tarkibiy komponentdan iborat:

Motivatsion komponent o‘quvchilarda teatr faoliyatiga qiziqish uyg‘otish;

Faoliyat komponenti rolli o‘yinlar, sahnalashtirish va improvizatsiya orqali amaliy tajriba hosil qilish;

Refleksiv komponent bajarilgan faoliyatni tahlil qilish va o‘z-o‘zini baholash.

Ushbu model o‘quvchilarning ijodkorlik, muloqot madaniyati va estetik tafakkurini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘tkazilgan tadqiqot va empirik so‘rovnoma natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, xalqaro tajriba o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatga oid tasavvurlarni boyitishda fundamental nazariy-metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi. U teatr pedagogikasini darsning ajralmas qismi, qadriyatlar va

ijtimoiy-kommunikativ mas‘uliyat uyg‘unligi sifatida talqin etadi.

Ikkinchidan, so‘rovnoma orqali maktab amaliyotida teatr metodlariga qiziqish juda yuqori (**96.0%**) bo‘lsa-da, vaqt yetishmasligi va metodik qo‘llanmalar kamligi uning tizimli qo‘llanilishiga to‘sqinlik qilayotgani aniqlandi. Aynan shu sababli dars soatlariga moslashtirilgan qisqa mikromodulli sahnalashtirish texnologiyalarini joriy qilish dolzarbdir.

Uchinchidan, O‘zbekiston ta’lim tizimida ijodiy qobiliyat masalasi normativ hujjatlarda alohida aks etganini hisobga olib, xalqaro tajribalardagi kabi bosqichli va teatr muhiti bilan uzviy bog‘langan innovatsion metodik modellarni kengaytirish zarur. Kelgusida ushbu yo‘nalishda eksperimental dars dasturlari va o‘quvchilar ijodkorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish pedagogika fanini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida // Qaror. – 2019. – № 1059. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-4676839>
2. Yo‘ldoshev Q., Matchonov S. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Sharq, 2022. – 256 b.
3. OECD. Fostering Students’ Creativity and Critical Thinking: What it Means in School. – Paris: OECD Publishing, 2019. – URL: https://www.oecd.org/en/publications/fostering-students-creativity-and-critical-thinking_62212c37-en.html
4. UNESCO-APNIEVE. Learning to Be: A Holistic and Integrated Approach to Values Education for Human Development. – Paris: UNESCO, 2002. – URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000127914>
5. Лев Виготский. Воображение и творчество в детском возрасте. – Москва: Просвещение, 1997. – 128 с.
6. Joy Paul Guilford. Creativity. – New York: Scribner’s, 1967. – 248 p. URL: https://www.researchgate.net/publication/8902778_Creativity
7. Howard Gardner. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983. – 440 p. URL: <https://scispace.com/pdf/the-theory-of-multiple-intelligences-94sassg9ml.pdf>
8. Yavkacheva Z. Maktab o‘quvchilarida ijodiy qobiliyatni o‘stirishda iqtidor tushunchasining o‘rni // Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o‘qitishning psixologik-pedagogik jihatlarini respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – 2023. – 2-iyun. – B. 44.
9. Jo‘rayev R.X. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – 180 b.
10. Qur‘onov M. Ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 160 b.
11. Isakulova N.J. Pedagogik innovatsiyalar va kreativ ta’lim. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 168 b.
12. John Biggs. Teaching for Quality Learning at University (2nd ed.). – Cambridge: Open University Press, 2003. – Chapter 2. – P. 11–12. – URL: <https://www.scribd.com/document/465985387/81-373-1-PB>

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ONA TILI KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA SINGAPUR VA FINLANDIYA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATSIYALASH ASOSIDAGI INNOVATSION METODLAR TIZIMI

Xolmurodova Mahliyo Usmon qizi,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistranti

Tel: +998 88 953 27 99

E-mail: mahliyobonu99@icloud.com

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashini shakllantirish hamda kommunikativ ko'nikmalarini takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda ona tili kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari yoritilib, Singapur va Finlandiya ta'lim tizimlarida qo'llanilayotgan samarali pedagogik yondashuvlarning qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqot davomida xalqaro tajribalar milliy ta'lim tizimi talablari bilan uyg'unlashtirilib, "Lingvistik konstruktor", "Matn detekivi", "3D fikrlash" metodlaridan iborat innovatsion metodlar tizimi taklif etilgan.

Keltirilgan metodlar o'quvchilarning so'z boyligini kengaytirish, bog'lanishli nutqini rivojlantirish, ijodiy va tanqidiy fikrlashini shakllantirish, shuningdek, dars jarayonida faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari mazkur metodlar boshlang'ich sinf ona tili darslarining samaradorligini oshirish, xalqaro pedagogik tajribalarni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish hamda kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga samarali joriy etish imkonini berishini ko'rsatadi [6; 8].

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ona tili kompetensiyasi, innovatsion metodlar, Singapur

ta'lim modeli, Finlandiya ta'lim modeli, interfaol ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, tanqidiy fikrlash, kommunikativ kompetensiya, pedagogik texnologiyalar.

Система инновационных методов, основанная на интеграции образовательных технологий Сингапура и Финляндии для развития языковой компетентности в начальном образовании

Холмуродова Махлиё Усмон кизи,
магистрант Узбекского государственного университета мировых языков

Аннотация: В современной системе образования развитие языковой компетентности, критического мышления и коммуникативных навыков учащихся начальной школы является одним из приоритетных направлений. В статье раскрываются теоретические основы формирования языковой компетентности на уроках родного языка, а также проводится сравнительный анализ эффективных педагогических подходов, применяемых в образовательных системах Сингапура и Финляндии.

На основе изучения международного опыта предложена система инновационных методов,

включающая “Лингвистический конструктор”, “Текстовый детектив”, “3D-мышление”. Представленные методы способствуют расширению словарного запаса учащихся, развитию связной речи, творческого и критического мышления, а также активизации учебной деятельности.

Полученные результаты подтверждают, что интеграция международного педагогического опыта с национальными образовательными традициями позволяет повысить эффективность обучения родному языку и успешно реализовать компетентностный подход в начальном образовании.

Ключевые слова: начальное образование, языковая компетентность, инновационные методы, образовательная модель Сингапура, образовательная модель Финляндии, интерактивное обучение, компетентностный подход, критическое мышление, коммуникативная компетенция, педагогические технологии.

System of innovative methods based on the integration of Singaporean and Finnish educational technologies for developing native language competence in primary education

Kholmurodova Mahliyo Usmon qizi,
*Master's Student, Uzbekistan State World
Languages University*

Abstract: *Developing language competence, critical thinking, and communication skills of students in primary class has become one of the leading priorities of modern education. This article explores the theoretical foundations of developing native language competence and presents a comparative analysis of effective pedagogical approaches implemented in the educational systems of Singapore and Finland.*

During the research, international experiences have been combined with the requirements of national education system and the researcher proposes an innovative methodological system consisted of “Linguistic Constructor”, “Text Detective”, “3D Thinking”. These methods serve for enriching students’ vocabulary, improving speech coherence, fostering creative and critical thinking, and increasing active participation in classroom activities.

The findings ensure that integrating international educational practices with national pedagogical traditions enhances the effectiveness of native language instruction and supports the successful implementation of competency-based approach in primary education.

Keywords: *primary education, native language competence, innovative methods, Singapore education model, Finland education model, interactive learning, competency-based approach, critical thinking, communicative competence, teaching technologies.*

So‘nggi yillarda dunyo ta‘lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muloqot madaniyati va hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda [6; 8]. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot oqimining keskin ortishi va globalashuv jarayonlari maktab ta‘limi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Endilikda o‘quvchining faqat nazariy bilimga ega bo‘lishi yetarli emas, balki u olgan bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo‘llay olishi, mustaqil qaror qabul qilishi, muammolarni tahlil qilishi va samarali

muloqot yurita olishi zarur. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda boshlang‘ich ta‘lim alohida o‘rin tutadi. Aynan ushbu bosqichda bolaning nutqi, tafakkuri, kommunikativ faoliyati, kitobxonlik madaniyati va bilim olish motivatsiyasi shakllanadi. Shu sababli boshlang‘ich sinflarda ona tili fanini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [1; 9].

Ona tili ta‘limining asosiy maqsadi o‘quvchilarga grammatik bilimlarni o‘rgatish bilan-gina cheklanmaydi. Ushbu fan orqali o‘quvchilarda nutqiy madaniyat, mantiqiy fikrlash, matn

bilan ishlash, fikrni ogʻzaki va yozma shaklda aniq hamda izchil ifodalash koʻnikmalari rivojlantiriladi. Shuningdek, ona tili darslari oʻquvchilarning boshqa fanlarni muvaffaqiyatli oʻzlashtirishlari uchun ham zarur boʻlgan universal kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Xalqaro baholash dasturlari natijalari ham oʻquvchilarning matnni anglash, tahlil qilish va fikrni asoslab bayon etish koʻnikmalarini rivojlantirish taʼlim sifatining muhim mezonlaridan biri ekanligini koʻrsatmoqda [6]. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro taʼlim tizimlarida qoʻllanilayotgan samarali metodik yondashuvlarni oʻrganish va ularni milliy taʼlim amaliyotiga moslashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi [8].

Bugungi kunda Singapur va Finlandiya taʼlim tizimlari oʻzining yuqori samaradorligi, oʻquvchi markazli yondashuvi va innovatsion pedagogik texnologiyalari bilan dunyo miqyosida alohida eʼtirof etilmoqda [6; 8]. Singapur taʼlim modelida strukturali fikrlash, hamkorlikda ishlash va vizual modellash ustuvor ahamiyatga ega boʻlsa, Finlandiya taʼlim modelida mustaqil izlanish, fenomen asosidagi oʻqitish va ijodiy yondashuv asosiy tamoyillar sifatida qaraladi. Ushbu yondashuvlarning integratsiyasi boshlangʻich sinf ona tili darslarini yanada samarali tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

Mazkur tadqiqotning **maqsadi** boshlangʻich taʼlimda ona tili kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslarini tahlil qilish, Singapur va Finlandiya taʼlim tizimlarining samarali pedagogik tajribalarini qiyosiy oʻrganish hamda ularni milliy taʼlim amaliyotiga moslashtirish asosida innovatsion metodlar tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning **ilmiy yangiligi** shundan iboratki, xalqaro pedagogik yondashuvlar va milliy taʼlim anʼanalari uygʻunligi asosida boshlangʻich sinf ona tili darslari uchun “Lingvistik konstruktor”, “Matn detektivi”, “3D fikr-

lash” metodlarini yagona metodik tizim sifatida qoʻllash mexanizmi taklif etiladi.

Tadqiqotning **amaliy ahamiyati** esa ishlab chiqilgan metodlar boshlangʻich sinf oʻqituvchilari, metodistlar va pedagogika yoʻnalishi talabalari uchun ona tili darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda metodik tavsiyalar vazifasini bajarishi bilan belgilanadi. Mazkur metodlar oʻquvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, tanqidiy va ijodiy fikrlashini shakllantirish hamda taʼlim sifatini oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Boshlangʻich taʼlim uzluksiz taʼlim tizimining poydevori boʻlib, aynan ushbu bosqichda oʻquvchilarning nutqi, tafakkuri, muloqot madaniyati va bilim olishga boʻlgan motivatsiyasi shakllanadi. Shu sababli boshlangʻich taʼlim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish bugungi pedagogika fanining dolzarb yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Ona tili taʼlimining asosiy vazifasi oʻquvchilarga grammatik qoidalarni oʻrgatish bilangina cheklanmaydi. Ushbu fan orqali oʻquvchilarda tinglash, tushunish, tahlil qilish, fikrni ogʻzaki va yozma shaklda izchil bayon etish, muloqotga kirishish hamda matn bilan ishlash kompetensiyalari shakllantiriladi. Nutqiy kompetensiya esa oʻquvchining til vositalaridan turli kommunikativ vaziyatlarda maqsadga muvofiq va samarali foydalanish qobiliyatini ifodalaydi [9].

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda kompetensiya shaxsning bilim, koʻnikma, malaka va hayotiy tajribalarini integratsiyalashgan holda amaliy faoliyatda qoʻllay olish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtayi nazardan boshlangʻich sinf oʻquvchisining ona tili kompetensiyasi quyidagi tarkibiy qismlarni oʻz ichiga oladi:

- lingvistik kompetensiya;
- kommunikativ kompetensiya;
- matn bilan ishlash kompetensiyasi;
- tanqidiy va ijodiy fikrlash kompetensiyasi;
- ijtimoiy muloqot kompetensiyasi [1; 6].

Mazkur kompetensiyalarning uyg'un rivojlanishi o'quvchining keyingi bosqichlarda barcha fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarning o'rni. So'nggi yillarda ta'lim tizimida o'quvchi markazli yondashuv ustuvor yo'nalish sifatida shakllanmoqda. Ushbu yondashuvga ko'ra, o'quvchi tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki bilimni mustaqil izlovchi, tahlil qiluvchi va amaliyotda qo'llovchi faol subyekt hisoblanadi.

Bunday yondashuvda o'qituvchining vazifasi axborotni yetkazish emas, balki o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish, ularni izlanishga yo'naltirish va mustaqil fikrlashini qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'ladi [8].

Ona tili darslarida mazkur tamoyillarni amalga oshirish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish;
- matnni anglab o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- mantiqiy va tanqidiy fikrlashni shakllantirish;
- jamoada ishlash madaniyatini rivojlantirish;
- kommunikativ kompetensiyalarni takomillashtirish.

Natijada o'quvchi grammatik bilimlarni yodlab qolmaydi, balki ularni real nutqiy vaziyatlarda ongli ravishda qo'llashni o'rganadi.

Singapur va Finlandiya ta'lim metodologiyalarining qiyosiy tahlili. Dunyo ta'lim tizimlari orasida Singapur va Finlandiya maktab ta'limi samaradorligi bilan alohida ajralib turadi. Har ikkala davlat xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalarni namoyon etib kelmoqda. Ularning muvaffaqiyati innovatsion metodlardan foydalanish, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv va ta'lim jarayonini amaliy faoliyat asosida tashkil etish bilan izohlanadi.

Singapur ta'lim modeli o'quvchilarning strukturali fikrlashini rivojlantirishga asoslanadi [6]. Dars jarayonida kichik guruhlarda ishlash, hamkorlikda muammoni hal qilish, vizual modellash va bosqichma-bosqich tahlil qilish metodlari keng qo'llaniladi. O'quvchilar o'z fikrini asoslashga, dalillar keltirishga va muhokamalarda faol ishtirok etishga o'rgatiladi.

Finlandiya ta'lim tizimida esa o'quvchining tabiiy qiziqishi va mustaqil izlanishi ustuvor hisoblanadi. Ta'lim jarayonida fenomen asosidagi o'qitish, fanlararo integratsiya, tadqiqot faoliyati va ijodiy topshiriqlarga keng o'rin beriladi. O'qituvchi esa nazorat qiluvchi emas, balki ta'lim jarayonini tashkil etuvchi hamkor vazifasini bajaradi.

Mazkur yondashuvlarning umumiy jihati shundaki, ular o'quvchini bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol yaratuvchi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf ona tili darslarida bu yondashuv-

1-jadval

Singapur va Finlandiya ta'lim yondashuvlarining qiyosiy tavsifi

Ko'rsatkich	Singapur modeli	Finlandiya modeli
Ta'lim markazi	Hamkorlikdagi faoliyat	O'quvchi shaxsining rivojlanishi
Asosiy metod	Strukturali fikrlash	Tadqiqot va mustaqil izlanish
O'qituvchi roli	Jarayonni boshqaruvchi	Hamkor va yo'naltiruvchi
O'quvchi roli	Faol ishtirokchi	Mustaqil tadqiqotchi
Baholash	Jarayon va natijaga asoslangan	Rivojlantiruvchi baholash
Asosiy maqsad	Muammoni hal qilish va hamkorlik	Ijodkorlik va tanqidiy fikrlash

lardan foydalanish o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish, bog'lanishli nutqini rivojlantirish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda yuqori samara beradi (1-jadval).

Xalqaro tajriba va milliy ta'lim integratsiyasi. Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Biroq har qanday xorijiy metodni o'zgartirishsiz qabul qilish emas, balki uni milliy ta'lim mazmuni, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va mavjud pedagogik sharoitlarga moslashtirish muhim hisoblanadi.


Boshlang'ich sinf ona tili darslarida Singapur ta'limidagi hamkorlikda fikrlash modeli hamda Finlandiya ta'limidagi fenomen va tadqiqotga asoslangan yondashuvni integratsiyalash o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Mazkur integratsiya asosida ishlab chiqilgan innovatsion metodlar o'quvchilarning:

- so'z boyligini kengaytirish;
 - bog'lanishli nutqini rivojlantirish;
 - tanqidiy va kreativ fikrlashini shakllantirish;
 - kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirish;
 - fanlararo bog'liqlikni anglash;
- kabi muhim ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, xalqaro pedagogik tajriba va milliy ta'lim an'analarning uyg'unlashuvi boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni samarali amalga oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi hamda zamonaviy ona tili ta'limining metodik asoslarini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

Innovatsion metodlar tizimini integratsiyalashning pedagogik modeli va amaliy



1-rasm. Singapur va Finlandiya ta'lim texnologiyalarini integratsiyalash asosidagi innovatsion metodlar tizimi

imkoniyatlari. Boshlang'ich ta'limda ona tili kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligi ko'p jihatdan o'quv jarayonida qo'llaniladigan metodlarning mazmuni va tashkil etilishiga bog'liq. Zamonaviy ta'lim konsepsiyasi o'quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki bilimni mustaqil ravishda izlovchi, tahlil qiluvchi va amaliy faoliyatda qo'llovchi faol subyekt sifatida shakllantirishni nazarda tutadi. Shu sababli boshlang'ich sinf ona tili darslarida xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan innovatsion metodlardan foydalanish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot doirasida Singapur ta'limining strukturali fikrlash, hamkorlikda ishlash va vizual modellashtirish tamoyillari hamda Finlandiya ta'limining fenomen asosidagi o'qitish, mustaqil izlanish va ijodiy yondashuv tamoyillari integratsiyasi asosida innovatsion metodlar tizimi ishlab chiqildi.

Taklif etilayotgan metodlar o'zaro bog'liq bo'lib, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi.

Metod o'quvchilarni tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki til birliklarini mustaqil ravishda quruvchi va tahlil qiluvchi faol ishtirokchiga aylantiradi [1; 9].

Qo'llanilishi. Mazkur metod 4-sinf ona tili darslarida, ayniqsa "Sifat", "Sifatlarning otga bog'lanishi" va "Sifatlarning ma'no turlari" mavzularini o'rganishda samarali qo'llaniladi [7]. O'quvchilarga sifat va ot yozilgan kartochkalar tarqatilib, ular mazmunan mos so'z birikmalarini hosil qiladi, ushbu birikmalar asosida gaplar va kichik matnlar tuzadi. Mashg'ulot yakunida yaratilgan matnlar tahlil qilinib, grammatik va mazmuniy jihatdan takomillashtiriladi.

Natija va afzalliklari. Metod qo'llanilganda o'quvchilarning so'z boyligi kengayadi, bog'lanishli nutqi rivojlanadi, so'z tanlash madaniyati va grammatik tafakkuri shakllanadi. O'quvchilar sifat va otning o'zaro bog'lanishini amaliy faoliyat orqali anglaydi, gap va matn yaratish ko'nikmalari mustahkamlanadi. Shuningdek, metod hamkorlikda ishlash, kommunikativ muloqot, kreativ va tanqidiy fikr-

2-jadval

Taklif etilgan innovatsion metodlarning pedagogik imkoniyatlari

Metod nomi	Asosiy maqsadi	Rivojlantiriladigan kompetensiyalar
Lingvistik konstruktor	So'z, gap va matn o'rtasidagi bog'lanishni shakllantirish	Lingvistik, kommunikativ
Matn detektivi	Matnni tahlil qilish va kuzatish ko'nikmasini rivojlantirish	Axborot bilan ishlash, tanqidiy fikrlash
3D fikrlash	Kuzatish, tahlil qilish va fikr bildirish	Kreativ va tanqidiy fikrlash

"Lingvistik konstruktor" metodi

Maqsadi. "Lingvistik konstruktor" metodining asosiy maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarida so'z, so'z birikmasi, gap va matn o'rtasidagi bog'lanishni ongli ravishda anglash, grammatik birliklardan nutq jarayonida to'g'ri foydalanish hamda mustaqil va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdan ibo-

lash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [3; 6].

Namuna. "Sifatlarning otga bog'lanishi" mavzusida o'qituvchi o'quvchilarga *oppoq, qizil, shirin, mehribon* sifatlari hamda *qor, olma, ona, bola* otlari yozilgan kartochkalarini taqdim etadi. O'quvchilar *oppoq qor, qizil olma, mehribon ona, kichkina bola* kabi birik-

malarni hosil qilib, ular asosida quyidagi matn-ni yaratadi: *“Bugun oppoq qor yog‘di. Kich-kina bola hovliga chiqdi. Mehribon ona unga issiq kiyim kiydirdi.”* Ushbu faoliyat davomida o‘quvchilar til birliklari o‘rtasidagi bog‘lanish-ni amaliy ravishda o‘zlashtiradi va bog‘lanishli nutqni shakllantiradi.

“Matn detektivi” metodi

Maqsadi. “Matn detektivi” metodining asosiy maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matnni anglab o‘qish, til birliklarini kuzatish, tahlil qilish va mustaqil ravishda aniqlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat [9]. Metod o‘quvchilarni matn bilan faol ishlash-

3-jadval.

“Lingvistik konstruktor” metodining amaliy qo‘llanilishi (“Sifat so‘z turkumi” mavzusi misolida)

Sifatlar	Otlar	Hosil bo‘lgan birikmalar
oppoq	qor	oppoq qor
tip-tiniq	shudring	tip-tiniq shudring
beg‘ubor	qalb	beg‘ubor qalb
oq	choyshab	oq choyshab

Metodni bajarish tartibi:

1. O‘quvchilar sifat va ot kartochkalarini mazmuniga ko‘ra moslashtiradi.
2. Hosil qilingan birikmalar asosida sodda gaplar tuzadi.
3. Tuzilgan gaplardan kichik matn yaratadi.
4. Matn grammatik va mazmunij jihatdan tahlil qilinadi.

Metodning yangiligi. Ushbu metodning yangiligi shundaki, bunda o‘quvchi grammatik materialni faqat topmaydi yoki ko‘chirib yozmaydi, balki uni **quradi**. Odatda ona tili darslarida o‘quvchilardan sifatlarni topish, tagiga chizish, gap tuzish talab qilinadi. Lingvistik konstruktor metodida esa o‘quvchi:

- tayyor so‘zlarni tartiblaydi
- ortiqcha birlikni chiqarib tashlaydi
- mos bo‘lmagan sifatni almashtiradi
- gapni boyitadi
- matnning mazmunij mantiqini tiklaydi

ya’ni u til bilan faol ishlaydi. Shu jihatdan metod oddiy mashq emas, balki til tafakkurini rivojlantiradigan konstruktorlik faoliyatidir [1].

ga undab, so‘z turkumlari va ularning o‘zaro bog‘lanishini amaliy faoliyat orqali o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Qo‘llanilishi. Mazkur metod 4-sinf ona tili darslarida, ayniqsa “Sifat”, “Sifatlarning otga bog‘lanishi” va “Sifatlarning ma’no turlari” mavzularini o‘rganishda samarali qo‘llaniladi [7]. O‘qituvchi o‘quvchilarga kichik matnni taqdim etadi va ularga “til detektivi” sifatida matndan sifatlarni topish, ularning qaysi ot bilan bog‘langanini aniqlash hamda ma’no turini izohlash vazifasini beradi. Mashg‘ulot yakuni-da topilgan til birliklari asosida matn boyitilib, grammatik tahlil amalga oshiriladi.

Natija va afzalliklari. Metod qo‘llanilganda o‘quvchilarning matnni anglab o‘qish, kuzatish va tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlantiradi, sifat va ot o‘rtasidagi bog‘lanish yaxshiroq o‘zlashtiriladi hamda nutqiy faollik oshadi. Shuningdek, metod o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish, kommunikativ muloqot va tanqidiy tahlil kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi [3].

Namuna. “Sifatlarning otga bog‘lanishi” mavzusida o‘qituvchi quyidagi matnni taqdim

etadi: *“Bugun tongda oppoq qor yog‘di. Ko‘m-ko‘k osmon asta-sekin oqarib ketdi. Kichkina bola hovliga chiqib, qordan quvondi.”* O‘quvchilar matndan **oppoq**, **ko‘m-ko‘k**, **kichkina** sifatlarini topib, ularning mos ravishda **qor**, **osmon** va **bola** otlari bilan bog‘langanini aniqlaydi. Keyingi bosqichda ular matnni yangi sifatlar bilan boyitadi: *“Oppoq yumshoq qor yog‘di. Kichkina quvnoq bola hovliga chiqdi.”* Ushbu faoliyat orqali o‘quvchilar matnni tahlil qilish, grammatik birliklarni aniqlash va nutqni boyitish ko‘nikmalarini amaliy ravishda egallaydi.

kuzatish, tahlil qilish va fikr bildirish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali nutqiy hamda mantiqiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat. Metod o‘quvchilarni til hodisalarini mustaqil kuzatish, ularni tahlil qilish va o‘z xulosalarini asoslab bayon etishga yo‘naltiradi [3; 6].

Qo‘llanilishi. Mazkur metod 4-sinf ona tili darslarida, ayniqsa “Sifat”, “Sifatlarning otga bog‘lanishi” va “Sifatlarning ma‘no turlari” mavzularini o‘rganishda samarali qo‘llaniladi [7]. O‘qituvchi o‘quvchilarga matn yoki tasvirni taqdim etadi va faoliyatni uch bosqichda

4-jadval.

“Matn detektivi” metodining amaliy qo‘llanilishi

Matndan topilgan sifat	Bog‘langan ot	Sifatning ma‘no turi
oppoq	qor	rang-tus
ko‘m-ko‘k	osmon	rang-tus
kichkina	bola	hajm-belgi

Metodni bajarish tartibi:

1. O‘quvchilar berilgan matnni diqqat bilan o‘qiydi.
2. Matndan sifatlarini aniqlab, ularning bog‘langan otlarini topadi.
3. Har bir sifatning ma‘no turini izohlaydi.
4. Matnni yangi sifatlar bilan boyitib, grammatik va mazmunij jihatdan tahlil qiladi.

Metodning yangiligi. Ushbu metodning yangiligi shundaki, o‘quvchi matnni oddiy o‘qish obyekti sifatida emas, balki izlanish va tahlil manbai sifatida qabul qiladi. An‘anaviy “toping va tagiga chizing” topshirig‘i o‘rniga o‘quvchi matndagi til birliklarini mustaqil izlaydi, ularning bog‘lanishini aniqlaydi, ma‘nosini tahlil qiladi va matnni yangi birliklar bilan boyitadi. Natijada o‘quvchi grammatik bilimlarni tayyor shaklda emas, balki faol izlanish va kuzatish jarayonida egallaydi [1; 8].

“3D fikrlash” metodi

Maqsadi. “3D fikrlash” metodining asosiy maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida

tashkil etadi: kuzatish, tahlil qilish va fikr bildirish. O‘quvchilar matndan sifatlarini aniqlaydi, ularning bog‘langan otlarini hamda ma‘no turlarini izohlaydi, so‘ng o‘z kuzatuvlari asosida og‘zaki yoki yozma fikr bildiradi.

Natija va afzalliklari. Metod qo‘llanilganda o‘quvchilarning kuzatuvchanligi, tahliliy fikrlashi va bog‘lanishli nutqi rivojlanadi. Ular til birliklarini ongli ravishda qo‘llashni o‘rganaadi, matn bilan ishlash malakasi mustahkamlanadi hamda mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmasi shakllanadi. Shuningdek, metod kommunikativ kompetensiya, kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirib, dars jarayonining interfaolligini oshiradi [3; 8].

Namuna. “Sifatlarning ma‘no turlari” mavzusida o‘qituvchi o‘quvchilarga olma rasmini namoyish etadi. Dastlab o‘quvchilar predmetni kuzatadi va uning belgilarini aniqlaydi (**qizil**, **shirin**, **dumaloq**). Keyingi bosqichda ushbu sifatlarning ma‘no turlarini tahlil qiladi: *qizil* – rang-tus, *shirin* – maza-ta‘m, *dumaloq* – shakl-hajm bildiruvchi sifat. Yakuniy bosqichda esa

“Qizil olma juda shirin va dumaloq bo‘ladi” mazmunidagi gap yoki kichik matn tuzib, o‘z fikrini bayon etadi. Ushbu jarayon o‘quvchilarning kuzatish, tahlil qilish va nutqiy faoliyatini uyg‘un rivojlantiradi.

Mazkur metodlardan foydalanish natijasida:

- o‘quvchilarning nutqiy faolligi oshadi;
- matn bilan ishlash kompetensiyasi rivojlanadi;

5-jadval.

“3D fikrlash” metodining amaliy qo‘llanilishi

3D bosqichlari	O‘quvchi faoliyati	Natija
Kuzatish	Rasm yoki matndagi sifatlarni aniqlaydi	Belgilarni farqlaydi
Tahlil qilish	Sifatning ma’no turi va bog‘langan otini izohlaydi	Grammatik bog‘lanishni anglaydi
Fikr bildirish	Topilgan sifatlar asosida gap yoki matn tuzadi	Bog‘lanishli nutq va mantiqiy fikrlash rivojlanadi

Metodni bajarish tartibi:

1. O‘quvchilarga matn yoki tasvir taqdim etiladi.
2. Ular predmet yoki hodisaning belgilarini kuzatadi va sifatlarni aniqlaydi.
3. Topilgan sifatlarning ma’no turi hamda bog‘langan otlari tahlil qilinadi.
4. O‘quvchilar o‘z kuzatuvlari asosida gap yoki kichik matn tuzib, fikrlarini sinfda taqdim etadi.

Metodning yangiligi. Ushbu metodning yangiligi shundaki, o‘quvchi bilimni tayyor holda qabul qilmaydi, balki uch bosqichli faoliyat – kuzatish, tahlil qilish va fikr bildirish orqali mustaqil ravishda o‘zlashtiradi. Natijada dars jarayoni izlanish va muloqotga asoslanadi, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi, nutqiy faolligi hamda til hodisalarini ongli ravishda qo‘llash ko‘nikmalari rivojlanadi.

Taklif etilgan metodlarning pedagogik samaradorligi. Taklif etilgan metodlar tizimi kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga mos ravishda ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning asosiy ustunligi o‘quvchini faol ta’lim subyekti sifatida shakllantirishga qaratilganidir [1; 6].

- tanqidiy va kreativ fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi;
- hamkorlikda ishlash madaniyati rivojlanadi;
- fanlararo bog‘liqlikni anglash darajasi ortadi;
- mustaqil qaror qabul qilish va fikrni asoslab bayon etish malakalari takomillashadi.

Taklif etilgan metodlar tizimining muhim xususiyati shundaki, ular milliy ta’lim mazmuniga moslashtirilgan holda Singapur va Finlandiya pedagogik tajribalarining samarali jihatlarini o‘zida mujassamlashtiradi [6; 8]. Natijada boshlang‘ich sinf ona tili darslarini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish uchun yaxlit metodik model shakllanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, taklif etilgan metodlar boshlang‘ich sinf ona tili darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, 4K kompetensiyalarini (kommunikativlik, hamkorlik, kreativlik va tanqidiy fikrlash) rivojlantirish hamda ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois mazkur metodlarni boshlang‘ich ta’lim amaliyotiga joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizxo'jayeva N.N. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 224 b.
2. Brookhart S.M. *How to Give Effective Feedback to Your Students*. ASCD nashriyotining real kitobi.
3. Hattie J. *Visible Learning*. Dunyodagi eng ko'p iqtibos keltiriladigan pedagogik kitoblardan biri.
4. Kholmurodova M.U. Communicative strategies in english academic discourse and their translation in the context of transnational joint education programs // Transmilliy qo'shma ta'lim dasturlarining rivojlanishi: O'zDJTU tajribasi va xalqaro sifat kafolati tizimlari bo'yicha ilmiy-amaliy yondashuvlar. – Toshkent, 2026. – № 1. – B. 39–42.
5. Mo'minova N.U. Raqamli platformalar orqali maktablararo transmilliy hamkorlik: sifatni ta'minlash va ta'lim natijalarini monitoring qilish mexanizmlari // Transmilliy qo'shma ta'lim dasturlarining rivojlanishi: O'zDJTU tajribasi va xalqaro sifat kafolati tizimlari bo'yicha ilmiy-amaliy yondashuvlar. – Toshkent, 2026. – № 1. – B. 80–82.
6. OECD. *The Future of Education and Skills 2030*. OECD rasmiy loyihasi va Learning Compass hujjatlari mavjud.
7. Ona tili. 4-sinf darsligi / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2023. – 144 b.
8. UNESCO. *Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education*. Paris: UNESCO, 2021. UNESCO rasmiy saytida mavjud.
9. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. *O'zbek tili o'qitish metodikasi*. PDF shaklida elektron kutubxonalarda mavjud.

РЕФЛЕКСИВНЫЙ ПОДХОД КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ У УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ В ПРОЦЕССЕ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ

Жамолиддинова Нилуфар Акрамжоновна,
Доцент Наманганского государственного университета
e-mail: nilufar.jamaliddinova@gmail.com

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические возможности рефлексивного подхода в развитии навыков дифференцированного обучения у учителей иностранных языков в процессе повышения квалификации. Обосновывается, что рефлексия выступает не только средством самоанализа педагогической деятельности, но и механизмом осознанного проектирования разноуровневых заданий, адаптации содержания, выбора форм групповой работы и корректировки оценивания с учётом индивидуальных образовательных потребностей обучающихся. Предложена структурно-содержательная модель развития навыков дифференцированного обучения в условиях центра повышения квалификации.

Ключевые слова: дифференцированное обучение, рефлексивный подход, учителя иностранных языков, повышение квалификации, профессиональная компетентность, методические навыки, индивидуальные образовательные потребности.

Malaka oshirish jarayonida refleksiv yondashuv chet tili o'qituvchilarining differensiallashgan ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish omili sifatida

Jamoliddinova Nilufar Akramjonovna,
Namangan davlat univertiteti dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada malaka oshirish jarayonida chet tili o'qituvchilarining differensial ta'limni loyihalash va amalga oshirish ko'nikmalarini rivojlantirishda refleksiv yondashuvning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqotda refleksiya o'qituvchining kasbiy tajribasini tahlil qilish, o'qituvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash, topshiriqlarni murakkablik darajasi bo'yicha moslashtirish hamda o'quv natijalariga ko'ra ta'lim jarayonini tuzatish mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Maqolada malaka oshirish markazi sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan refleksiv-differensial modelning tarkibiy qismlari va metodik shartlari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: differensial ta'lim, refleksiv yondashuv, chet tili o'qituvchilari, malaka oshirish, kasbiy kompetentlik, metodik ko'nikmalar, individual ta'lim ehtiyojlari.

Reflexive approach as a factor in developing differentiated instruction skills of foreign language teachers in the process of professional development

Jamoliddinova Nilufar Akramjonovna,
Associate professor of Namangan
State University

Abstract: The article explores the pedagogical potential of the reflective approach in developing

differentiated instruction skills of foreign language teachers during in-service professional development. The study analyzes reflection not only as a means of self-analysis but also as a mechanism for designing multi-level tasks, adapting content, selecting flexible forms of group work, and adjusting assessment in accordance with learners' individual educational needs. The article proposes a structural

and content-based model for developing differentiated instruction skills of foreign language teachers in the scope of in-service training courses of a professional development center.

Keywords: *differentiated instruction, reflective approach, foreign language teachers, professional development, teacher competence, teaching skills, individual learning needs.*

Современное обучение иностранным языкам развивается в условиях высокой неоднородности учебных групп. В одной аудитории могут обучаться слушатели с различным уровнем языковой подготовки, разной скоростью усвоения материала, отличающимися коммуникативными потребностями, мотивацией, когнитивными стилями и опытом использования языка за пределами учебной среды. В таких условиях применение единообразной методики снижает результативность обучения, поскольку не позволяет в полной мере учитывать образовательные возможности и затруднения каждого обучающегося. Поэтому одним из актуальных направлений профессионального развития учителей иностранных языков становится овладение навыками дифференцированного обучения.

Дифференцированное обучение в преподавании иностранных языков предполагает гибкое проектирование содержания, методов, заданий, темпа, форм взаимодействия и способов оценивания с учётом готовности, интересов и индивидуальных особенностей обучающихся. В отличие от фрагментарного использования разноуровневых упражнений, дифференциация требует системного педагогического мышления: учитель должен уметь диагностировать учебные потребности, планировать несколько траекторий работы с материалом, организовывать

продуктивное взаимодействие в группе и анализировать эффективность принятых решений.

Особую значимость в этом процессе приобретает рефлексивный подход. Рефлексия позволяет учителю осознанно соотносить цели урока, реальные действия обучающихся, выбранные методические приёмы и полученные результаты. В рамках повышения квалификации рефлексивный подход становится фактором перехода от формального освоения методических рекомендаций к профессиональному саморазвитию, поскольку педагог учится видеть причины учебных трудностей, оценивать собственные решения и проектировать последующие изменения в практике.

Цель статьи теоретически обосновать роль рефлексивного подхода как фактора развития навыков дифференцированного обучения у учителей иностранных языков в процессе повышения квалификации и предложить структурно-содержательную модель его реализации в условиях центра повышения квалификации.

Для достижения поставленной цели использованы методы теоретического анализа научно-методической литературы, обобщения педагогического опыта, сравнительно-сопоставительного анализа подходов к дифференциации обучения и педагогического моделирования. Статья имеет теорети-

ко-методический характер и может служить основой для разработки программы повышения квалификации, практических занятий, рефлексивных заданий и диагностических материалов для учителей иностранных языков.

Теоретические основы дифференцированного обучения в преподавании иностранных языков

В педагогической литературе дифференцированное обучение рассматривается как организация учебного процесса, при которой содержание, процесс, образовательный продукт и учебная среда адаптируются к различиям между обучающимися. Классическая идея дифференциации связана с отказом от модели “один подход для всех” и переходом к педагогике, ориентированной на вариативность учебных потребностей. В исследованиях К. Томлинсон и соавторов подчёркивается, что дифференциация должна учитывать готовность обучающихся, их интересы и особенности учебного профиля [1].

Для преподавания иностранных языков данное положение имеет особое значение. Языковое обучение является одновременно когнитивным, коммуникативным и социокультурным процессом. Поэтому различия между обучающимися проявляются не только в объёме словарного запаса или уровне грамматических знаний, но и в степени речевой смелости, опыте межкультурного общения, уровне тревожности, способности к аудированию, темпе чтения, готовности участвовать в диалоге и навыках самостоятельной работы. Учитель иностранного языка должен учитывать эти различия при подборе текстов, коммуникативных ситуаций, грамматических упражнений, заданий на аудирование, письменных работ и форм обратной связи.

Д. Блаз, анализируя возможности дифференцированного обучения в языковом образовании, отмечает, что успешная дифференциация не сводится к упрощению материала для одних учащихся и усложнению для других. Она предполагает создание такой образовательной среды, в которой каждый обучающийся имеет доступ к значимому языковому содержанию, получает сильные вызовы и может демонстрировать результат разными способами [2]. Следовательно, учителю необходимо владеть не отдельными приёмами, а целостной системой методических навыков.

К числу ключевых навыков дифференцированного обучения у учителей иностранных языков можно отнести: диагностику уровня владения языком и учебных затруднений; определение индивидуальных и групповых целей; разработку разноуровневых заданий; адаптацию текстов и инструкций; гибкое группирование обучающихся; применение формирующего оценивания; организацию самостоятельной и парной работы; предоставление индивидуализированной обратной связи; анализ результатов и корректировку дальнейших действий.

Исследования профессионального развития педагогов показывают, что освоение дифференцированного обучения является сложным процессом. Учителям недостаточно получить готовый набор методических рекомендаций. Им необходимо научиться принимать решения в конкретной педагогической ситуации, сопоставляя цели, ресурсы, характеристики группы и результаты обучения. В работах W. Smets и K. Struyven подчёркивается, что внедрение дифференцированного обучения связано с постепенным профессиональным ростом учителя и требует специальной поддержки в процессе повышения квалификации [3].

Рефлексивный подход как методологическая основа

профессионального развития учителя

Рефлексивный подход в педагогическом образовании ориентирован на развитие способности учителя анализировать собственную деятельность, выявлять основания профессиональных решений и преобразовывать практику на основе осмысленного опыта. Рефлексия включает не только оценку проведённого урока, но и предварительное прогнозирование возможных трудностей, наблюдение за процессом обучения во время занятия, анализ результатов и планирование дальнейших действий. В этом смысле рефлексивный подход обеспечивает связь между теоретическим знанием и реальной педагогической практикой.

В подготовке и профессиональном развитии учителей иностранных языков рефлексия особенно важна, поскольку языковой урок строится на динамичном взаимодействии. Учитель постоянно реагирует на качество речевых ответов, ошибки, паузы, невербальные сигналы, уровень вовлечённости, трудности понимания текста или аудиоматериала. Без рефлексивной позиции педагог может механически следовать плану урока, не замечая, что часть обучающихся теряет темп, а другая часть нуждается в более сложной коммуникативной задаче.

Исследователи рефлексивной практики в TESOL и EFL подчёркивают её значение для устойчивого профессионального развития. А. Cirocki и Т. Farrell рассматривают рефлексивную практику как инструмент, который помогает учителю осознавать собственные убеждения, анализировать педагогические действия и развивать способность к профессиональному выбору [4]. S. Baluchzada также отмечает, что рефлексивное обучение способствует развитию профессиональной

компетентности учителей английского языка как иностранного [5].

Б. Ларриви предлагает рассматривать уровень рефлексии учителя через способность критически оценивать педагогические решения, учитывать последствия своих действий и переходить от технического анализа приёмов к более глубокому пониманию целей образования [6]. В контексте дифференцированного обучения это означает, что педагог должен задавать себе не только вопрос “какое задание дать?”, но и вопросы “почему именно это задание соответствует потребностям данной группы?”, “какие обучающиеся остаются вне активной работы?”, “какие данные подтверждают эффективность выбранной формы?”.

Таким образом, рефлексивный подход выступает не дополнительным элементом повышения квалификации, а методологическим основанием развития навыков дифференциации. Он переводит внимание учителя с внешнего выполнения методики на внутреннюю логику педагогического решения. Благодаря рефлексии учитель учится видеть связь между индивидуальными особенностями обучающихся, содержанием языкового материала, организацией учебного взаимодействия и результатами обучения.

Взаимосвязь рефлексии и дифференцированного обучения

Рефлексивный подход является фактором развития навыков дифференцированного обучения по нескольким основаниям. Во-первых, он усиливает диагностическую функцию педагогической деятельности. Учитель, ориентированный на рефлекссию, систематически анализирует, какие задания вызывают трудности, какие учащиеся нуждаются в дополнительной поддержке, какие формы работы повышают речевую ак-

тивность, а какие, напротив, ограничивают участие отдельных обучающихся.

Во-вторых, рефлексия способствует осознанному проектированию учебного материала. При подготовке к занятию учитель определяет не только общую тему и цель, но и возможные варианты её достижения: базовые и усложнённые задания, опоры для слабых обучающихся, дополнительные коммуникативные задачи для сильных учащихся, разные способы предъявления материала, альтернативные формы итогового продукта. Такая работа делает дифференциацию не случайной, а заранее продуманной.

В-третьих, рефлексивный подход обеспечивает корректировку обучения в ходе самого занятия. Учитель иностранного языка наблюдает за тем, как обучающиеся выполняют задания, какие ошибки повторяются, насколько группа готова к переходу от языковой тренировки к речевой практике. Если рефлексия становится привычным профессиональным действием, педагог быстрее принимает решения о смене темпа, перераспределении ролей, изменении состава пар или групп, введении дополнительной речевой опоры.

В-четвёртых, рефлексия повышает качество оценивания. Дифференцированное обучение требует формирующего оценивания, при котором внимание уделяется не только итоговому баллу, но и динамике продвижения обучающегося. Рефлексивный педагог анализирует, насколько критерии оценивания понятны учащимся, позволяют ли они фиксировать индивидуальный прогресс, как обратная связь влияет на дальнейшую учебную активность. В результате оценивание становится средством развития, а не только контроля.

Наконец, рефлексивный подход формирует у учителя установку на педагогическую гибкость. Дифференциация невозможна без

готовности менять привычные схемы урока. Учитель должен быть открыт к профессиональному поиску, обсуждению трудностей, анализу ошибок и экспериментированию с новыми методами. Именно рефлексия помогает воспринимать педагогическую проблему не как неудачу, а как источник профессионального роста.

Структурно-содержательная модель развития навыков дифференцированного обучения в центре повышения квалификации

В условиях центра повышения квалификации развитие навыков дифференцированного обучения у учителей иностранных языков целесообразно организовать на основе структурно-содержательной модели, включающей целевой, содержательный, процессуальный, рефлексивно-диагностический и результативный блоки.

Целевой блок направлен на формирование готовности учителей к проектированию и реализации дифференцированного обучения в языковой аудитории. Он предполагает развитие понимания сущности дифференциации, освоение способов диагностики учебных потребностей, формирование умений разрабатывать разноуровневые задания и готовность анализировать собственные педагогические решения.

Содержательный блок включает темы, связанные с индивидуальными различиями обучающихся, методикой работы с разноуровневыми группами, адаптацией языкового материала, формирующим оцениванием, проектированием коммуникативных заданий и использованием рефлексивных инструментов. Важно, чтобы содержание повышения квалификации было связано с реальными профессиональными ситуациями учителей: смешанный уровень владения языком, пассивность отдельных учащихся,

трудности аудирования, различия в скорости выполнения заданий, неравномерное участие в устной речи.

Процессуальный блок предполагает использование активных форм обучения взрослых: анализ кейсов, микропреподавание, моделирование фрагментов урока, взаимное наблюдение, групповое проектирование заданий, экспертное обсуждение, педагогическое портфолио и рефлексивный дневник. Такие формы позволяют учителям не только получить информацию, но и практически попробовать способы дифференциации, получить обратную связь и осмыслить собственные действия.

Рефлексивно-диагностический блок включает самооценку, диагностические карты, чек-листы наблюдения, рефлексивные вопросы после выполнения заданий и индивидуальный план профессионального

развития. Данный блок обеспечивает непрерывную связь между обучением на курсах повышения квалификации и дальнейшей практикой учителя в школе, колледже, лицее или языковом центре.

Результативный блок выражается в повышении способности учителя проектировать вариативные задания, организовывать дифференцированное взаимодействие, применять гибкие формы оценивания и обосновывать собственные методические решения. Важным результатом является также развитие рефлексивной культуры учителя, то есть готовности регулярно анализировать практику и совершенствовать её на основе данных о продвижении обучающихся.

Представленные компоненты показывают, что навыки дифференцированного обучения имеют комплексный характер. Они соединяют диагностическое мышление,

Таблица 1

Основные компоненты навыков дифференцированного обучения

Компонент	Содержание навыка	Рефлексивный вопрос учителя
Диагностический	Выявление уровня владения языком, учебных трудностей, темпа работы, мотивации и коммуникативных потребностей обучающихся.	Какие различия в группе влияют на достижение цели урока?
Проектировочный	Разработка разноуровневых заданий, речевых опор, вариантов инструкции и способов представления результата.	Какие варианты задания помогут каждому обучающемуся продвинуться дальше?
Организационный	Гибкое группирование, распределение ролей, организация парной, групповой и индивидуальной работы.	Насколько выбранная форма взаимодействия обеспечивает участие всех обучающихся?
